Aytishimiz joizki, xalqimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha saqlanib kelgan badiiy namunalar yosh avlodni tarbiyalashda, ularning ma‘naviy boy, o‘tkir zehni, zamon talabiga javob bera oladigan kishilar bo‘lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, aqliy tasavvurni yanada boyitib, tasavvurlarni rivojlantiradi. Bugungi kunda ham biz bolalarimizni tarbiyalashda, ongini rivojlantirishda, nutqini ustirishda xalq ogzaki ijodi na‘munalaridan foydalanamiz. Qadimdan ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan bu meros xali ham o‘z saviyasini yo‘qotmagan, bolajonlarimiz uchun qiziq bir san‘at asari bulib kelayпти.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alaviya M. Uzbek xalk marosim kushiklari. T. 1974.
2. Mallaev N. Uzbek adabiyoti tarixi. T «Ukituvchi» 1976.
3. Imomov K Uzbek xalk prozasi T. 1981.
4. Jumaboev Mamasoli Uzbek bolalar adabiyoti: Oliy ukuv yurtlarining uzbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun darslik. — T.: «Uzbekiston», 2001. — 242 b.
5. Uzbek xalk ertaklari. T.2000.
6. Uzbek xalk topishmoklari.T. «Ukituvchi» 1991.

IJRO ISHI YURITUVIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING AMALIY AHAMIYATI

Anvar Bekkulov Farxodovich

Majburiy ijro byurosi, Qashqadaryo tumanlararo bo‘limi davlat ijrochisi. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi tinglovchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada majburiy ijro byurosi ishlash tizimi haqida bo‘lib, Byuroda xizmat qilish qonuniylik, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda ularga rioya etish, ochiqlik va shaffoflik, nazorat qilinish va hisobot berish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi haqida ma’lumotlar tizimi berilgan.

Kalit so‘zlar: MIB, davlat ijrochilari, organlar, sud, hokimiyat, davlat.

“Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi ijro hokimiyati organlari tizimidan mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida tashkil etilgan. Byuroning davlat ijrochilari zimmasiga sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini taminlash vakolati yuklatilgan. Davlat ijrochilari davlat xizmatchilari, hokimiyat vakili hisoblanadi va katta huquqlarga ega. Aynan davlat ijrochilari jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini himoya qilishning yakuniy bosqichida turib, uni hal etish vakolatiga ega bo‘ladilar. Sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarining past darajadagi faktik ijrosi nafaqat fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari buzilishiga, balki boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. O‘z huquqlarini himoya qilayotgan shaxslar

buzilgan huquqlarini faqat nazariy tan olinishi emas, balki amaliy, real himoya qilinishini kutadilar¹”.

Ochiqlik va shaffoflik – Byuro xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini

Konstitutsiya va qonunlarga tayanib hamda “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi” Qonunga asosan ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atishdan boshlab ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi



¹ Associate Professor of the Department of Criminal Law, criminology and anti-corruption Tashkent state university of Law, Tashkent, Uzbekistan.



shaxslar (xolislar, vakillar, tarjimon, mutaxassis)ni davlat ijrochisi tomonidan chiqarilgan qarorlar haqida, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa ijro harakatlari to‘g‘risida va majburiy ijro etish choralari haqida xabardor qilinshidir.

Shu bois, davlat ijrochilaridan o‘zlari chiqargan har qanday qaror bo‘yicha ishlarni ochiq va oshkora amalga oshirishi lozimligi talab qilinadi. Davlat ijrochisi qanday ijro xarakterini amalga oshirish uchun kelganligini qanday xujjatga asosan ijro ishini yuritayotganligini ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarga tushuntirish shart.

Shuni ham alohida takidlab o‘tish joizki, Byuroning majburiy ijro ishini amalga oshirish faoliyatida ijro hujjatlarining Majburiy ijro byurosi organlariga taalluqliligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi” Qonunning 8¹-moddasida qanday toifadagi yoki darajadagi ijro hujjatlari tuman (shahar) bo‘limlariga, Majburiy ijro byurosining hududiy boshqarmalariga yoki markaziy apparatiga taalluqli ekanligini belgilab qo‘yilgan. Bunday qoida davlat ijrochisining xizmat majburiyatlari chegarasini belgilab qo‘yilishiga, ish samaradorligi sifatiga va eng asosiysi ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Undiruvchi foydasiga chiqarilgan sud qarorlarini ijro etish qaysi Byuro organiga taalluqliligini bilishi ularni sarson-sargardonliklardan himoya qiladi. Bu kabi qonunda belgilangan aniqliklar ijro harakatlarini shaffofligini taminlashning yuridik mezonini sanaladi.

Ijro ishi yurituvda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashning amaliy ahamiyatlaridan biri ijro ishi yuritishda taraflarning huquq va majburiyatlarini davlat ijrochisi tomonidan batafsil tanishtirib chiqish amaliyoti qonun bilan mustahkamlab qo‘yilganligidir.

Qonun bo‘yicha “Taraflar ijro harakatlarini amalga oshirishda ijro ishi yuritish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar, nusxalar olish, qo‘shimcha materiallar taqdim etish, iltimosnomalar berish, ijro harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etish, ijro harakatlari jarayonida og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, ijro ishi yuritilishi davomida paydo bo‘ladigan masalalar yuzasidan o‘z vajlari va fikr-mulohazalarini bildirish, ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlari va fikr-mulohazalariga qarshi e‘tiroz bildirish, rad qilish, davlat ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar²”

² Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги Қонуни 11 –модда.



Davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda ijro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun ijro ishi yuritish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kun muddat belgilaydi va qarzdorni mazkur muddat tugaganidan keyin ijro hujjatidagi talablar undan ijro yig'imi, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga solingan jarimalar, shuningdek ijro xarajatlari undirilgan holda majburiy ijro etilishi to'g'risida xabardor qiladi

Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasi u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek hujjati ijro etilishi lozim bo'lgan sud yoki boshqa organga yuboriladi.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi” Qonunning etiborli tomoni shundaki, unda deyarli moddiy huquq normalari yo'q. Qonunning barcha qoidalari faqat protsessual huquq normalarini o'zida aks ettirgan. Shuning uchun ham Majburiy ijro byurosining ijro ishi yurituvdagi barcha ijro harakatlarini ochiqlik va shaffoflikni ta'minlamasdan amalga oshirish protsessual tartib qoidalarini buzish hisoblanadi.

Aynan shuning uchun ham Byuroga qaysi organ tomonidan ijro hujjati kelib tushganligi, qachon kelganligi, ushbu Qonunning 8-moddasi talablariga javob beradimi yo'qmi shunga ko'ra davlat ijrochisi ish yurituvga olishi yoki 8-24-moddalari bilan davlat ijrochisi ijro hujjatini olgan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida qaytarib yuboradi.

Amaldagi protsessual qonun hujjatlariga muvofiq Byuroga ijrosini taminlash uchun ijro hujjatlari qog'oz shaklida yoki elektron shaklida hujjatni bergan organning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat shaklida “MIB ijro” axborot tizimi orqali yuboriladi. Sudlar tomonidan ijro hujjatlari 2019-yil 31-dekabrga qadar E-SUD elektron baza orqali yuborish amaliyotidan foydalanib kelingan bo'lsa, 2020-yil 1-yanvardan yangi E-XSUD elektron platforma orqali elektron shaklda yuborilmoqda. Yuborilgan ijro hujjatlarining ijroga qaratilganligi yoki qaytarilgan holatini sudyalarda mazkur bazadan bevosita nazorat qilib tura oladi.

Har ikkila shaklda yuborilgan ijro hujjatlari masul xodimlar tomonidan elektron dasturga kiritiladi. “MIB ijro” elektron dasturiga kiritilgan ijro ishlari davlat ijrochilariga elektron tizim orqali taqsimlanadi. Ijro ishi bo'yicha ijro harakatlari “Mening ijro ishlarim” sahifasida amalga oshiriladi³. Agar undiruvchi sudga E-XSUD elektron baza orqali davo ariza kiritgan bo'lsa. Ushbu baza orqali u Sudning

³ Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси ходимларининг ягона корпаратив порталида ижро ишини юритиш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома. 2018 йил 1-август.

barcha hujjatlarini va davlat ijrochisining ijro harakatlari natijalarini qarorlarini ham ko'rib tura oladi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiyalar texnologiyalar asrida barcha ijro hujjatlari va ijro harakatlari ham elektron axborot tizimi orqali amalga oshirilishi juda qulay va samarali, ayni paytda ushbu jarayon shaffof hisoblanadi.

Byuroda tomonlarni ijro harakatlari to'g'risida va majburiy ijro etish choralari haqida "MIB-ijro" portali orqali xabardor qilinadi, shuningdek davlat ijrochisining huzuriga yoxud ijro harakatlarini amalga oshirish joyiga chaqiruv qog'ozi, boshqa xabarnoma, telefonogramma, telegramma yoki boshqa aloqa vositalari (bundan buyon matnda chaqiruv qog'ozi, boshqa xabarnoma deb yuritiladi) orqali chaqirtiriladi. Bu ham ijro ishi yurituvda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning amaliy ifodasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Majburiy ijro byurosi xodimlarining yagona korporativ portali markazlashgan holatda doimiy nazoratda bo'lganligi bois har bir ijro hujjatining elektron reestri yuritilib alohida nazoratda turadi.

Ijro ishi yurituvda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning yana bir amaliy misoli. Qarzdorning xonalari va omborlarini ochish, mol-mulkini ko'zdan kechirish, xatlash, olib qo'yish va berish bilan bog'liq ijro harakatlarini amalga oshirishda xolislar ishtirok etishi shart. Xolislar ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak⁴. Ijro harakatlarini amalga oshirishda davlat ijrochisini doim qiynaydigan muammo ham aynan shu holislar ishtirokini taminlash masalasi. Milliy mentalitetimizga ko'ra aksariyat fuqarolar o'zining qo'shnisini javobgar yoqi qarzdor sifatida ijro ishida ishtirok etishdan bosh tortadi. Vaholanki, holislar ishtirokisiz qilingan har qanday ijro harakati noqonuniy hisoblanadi.

Shuning uchun ham davlat ijrochilarining eng og'riqli muammosini hal qilishning samarali vositalaridan biri sifatida ularni "Body camera" lar bilan taminlash kerak. Mazkur Body camera yordamida ijrochi ijro ishini ochiq va oshkora amalga oshira olishga erishadi. Davlat ijrochisi aholi yashash joyida yoki noturar manzillarda hech bir ijro harakatini yolg'iz amalga oshirmasligi lozim. Ijro ishlarini taminlash jarayonida taraflar o'rtasida har xil ziddiyatlar ko'ngilsiz hodisalar yuz berib qolish ehtimoli juda yuqri. Ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy



⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида"ги Қонуни 18-модда.

tarmoqlarda keng tarqalayotgan ayrim videolarga etibor qaratadigan bo'lsak, ijro harakatlarini amalga oshirish uchun hududlarga chiqilganda qarzdorlar har xil usullar bilan qo'rqitish, o't qo'yish, o'ziga hattoki davlat ijrochisining sog'ligi va hayoti uchun xavfli bo'lgan jismoniy qarshiliklar ko'rsatishmoqda. Bu holatlarni tasvirga tushurish uchun ham davlat ijrochida Body camera bo'lishi zarur ekanligining amaliy isboti. Ijro vaqtida yuz bergan noqonuniy vaziyatlarni tasvirga tushurish uchun davlat ijrochisi o'zining shaxsiy telefon aparatidan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bu esa "Shaxslarga doir malumotlar to'g'risida"gi Qonun normalariga ham zid hisoblanadi.

Ijro ishi yurituvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning muhim jihatlaridan biri jamoatchilik vakillari bilan bir qatorda tarjimon va mutaxassislarni jalb qilish masalasi. Xalqaro huquq tamoillarida ham ishi yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanishi kafolatlangan. Bu tamoillar bizning barcha qonunlarimizda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ijro harakatlarini amalga oshirayotganda yuzaga keladigan, maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirib berish uchun davlat ijrochisi o'z tashabbusiga yoki taraflarning iltimosiga binoan o'zining qarori bilan mutaxassis tayinlashi mumkin. Mutaxassis yozma ravishda xulosa beradi. Mutaxassisning yozma xulosasi u davlat ijrochisining qarori bilan tanishgan kundan e'tiboran o'n besh ish kuni ichida taqdim etilishi kerak. (O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun 20 modda.)

2017-yildan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari E-XSUD va "MIB ijro" axborot tizimlarini ushbu jarayonga tatbiq qilinganini alohida taxsinga loyiq natija. Bunday imkoniyatlar davlat ijrochisining ish unumdorligini oshirish bilan birga uning vaqtini ham tejaydi.

Amaliyotda qarzdor jismoniy shaxslarni chetga chiqish huquqini vaqtincha cheklash va uni olib tashlash bilan bog'liq korrupsion xavf-xatarlar ham uchramoqda. Bugungi kunda ayrim davlat ijrochilarining mas'uliyatsizligidan yoki mansab vakolatidan kelib chiqib pora talab qilish holatlari oqibatida fuqarolarimiz moddiy va manaviy zararlar ko'rayotganligi ham sir emas.

Xususan, o'zining chetga chiqish huquqi vaqtincha cheklanganligi to'g'risida u yoki bu sababga ko'ra xabardor bo'lmagan ayrim qarzdorlar o'zining ushbu huquqi cheklanganligi haqida davlat chegarasidan chiqish paytida xabar topadi.

Bu vaziyatda fuqaroga yetkazilgan zararlarni (*boy berilgan foyda va yo'qotilgan vaqt uchun kompensatsiya undirish*) qoplanmaydi. Bu kabi holatni o'ziga yetkazilgan zararni ko'pensatsiya qilish fuqaroni zimmasiga tushadi. Bu esa o'z-o'zidan, fuqarolarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga majbur



qiladi. Aksariyat holatlarda bunday harakatlarni amalga oshirishga fuqaroning bilimi ham imkoniyati ham yetmaydi, ya'ni buzilgan huquqlar tiklanmay qolib ketadi.

Bugungi kunda maxsus elektron tizimdan qarzdorning O'zbekiston Respublikasidan chiqishiga qo'yilgan vaqtincha cheklov olib tashlanganda bu haqdagi xabar idoralararo ma'lumot almashinuvi tizimi orqali avtomatik tarzda Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga hamda Chegara qo'shinlariga yuborilgani bilan qarzdorga nisbatan qo'yilgan cheklovni olib tashlash inson faktoriga bog'liq bo'lib qolmoqda.

A.Hamidov bu boradagi mazkur tartibni yanada soddalashtirish orqali takomillashtirish, fuqarolarga yanada qulaylik yaratish, ularning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagilarni amaliyotga joriy etishni taklif etadi:

- qarzdor jismoniy shaxs tomonidan qarzdorlik maxsus elektron to'lov tizimlari orqali "onlayn" shaklda bartaraf etilganida, uning O'zbekiston Respublikasidan chiqishiga qo'yilgan vaqtincha cheklov maxsus elektron tizimdan avtomatik tarzda olib tashlanishi va shu vaqtning o'zida cheklov olib tashlangani to'g'risidagi ma'lumot idoralararo ma'lumot almashinuvi tizimi orqali avtomatik tarzda Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga hamda Chegara qo'shinlariga yuborish;

- jismoniy shaxslar o'ziga nisbatan cheklov qo'llanilgan yoki muqaddam qo'llanilgan cheklov olib tashlanganligini mobil aloqa vositalari orqali qisqa raqamga USSD so'rovnomasi yuborish orqali aniqlash imkonini yaratish.⁵

Vahlanki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish sohasidagi asosiy vazifalari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz rioya etish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini so'zsiz ijrosini taminlash, ijro hujjatlari hamda undirilgan mablag'larning haqqoniy hisobini yuritish, ijro ishi yuritishda sansolorlik va suiistemolchilik holatlarini oldini olish, kompleks tahlil o'tkazish, tizimli muammolarni aniqlash, majburiy ijro tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishdan iborat⁶ ekanligini har bir davlat ijrochisi amalda isbotlab berishi kerak.

⁵ А.Ҳамидов. Фуқаролик ишлари бўйича ва иқтисодий судлар қарорларини ижро этиш тартиби, мавжуд муаммолар ҳамда уларнинг ечимлари. Монография. 77-б. "BAKTRIA PRESS" МЧЖ. Тошкент. 2019 й.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Бosh прокуратураси хузуридаги Мажбурий ижро бюроси директорининг "Суд хужжатлари ва бoshqa органлар хужжатларини ижро этиш борасидаги фаолиятини самарали ташкил қилиш тўғрисида"ги 62-сон Буйруғи. 2019 йил 1 август.

Majburiy ijro byuro hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari 2021-yil 1-yanvardan boshlab o'z faoliyati to'g'risida tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga har yarim yilda hisobot taqdim etib borish amaliyoti joriy qilinganligi ijro ishi yurituvda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning amaliy mexanizmlaridan hisoblanadi.

Ijro ishini yopiq tarzda amalga oshirishning imkoniyati mavjud emas, birorta ijro harakatlari yashirin tarzda undiruvchi va qarzdorga malum qilmagan holda amalga oshirilishi mumkin emas.

Ijro hujjatida undiruvchining yoki qarzdorning elektron pochta manzili yoki mobil telefonining raqami mavjud bo'lgan taqdirda (agar ular sudga yoki ijro hujjatini bergan boshqa organga (mansabdor shaxsga) taqdim etilgan bo'lsa), ijro ishini yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi bildirishnoma uning jo'natilganligi va qabul qilib olinganligi faktlarini qayd etish imkonini beruvchi maxsus avtomatlashtirilgan tizimdan foydalangan holda elektron pochtaga yoxud mobil telefonga qisqa xabar (SMS) tarzida yuborilish amaliyotini joriy etilganligining o'zi ham ijro harakatlari butkul ochiq faoliyat ekanligini tushunish mumkin.

Davlat ijrochilarining o'z xizmat vazifalarini qay darajada olib borayotganligi, ijro harakatlari samaradorligi va natijadorligi haqidagi malumotlarni Majburiy ijro byurosining hududiy boshqarmalari matbuot xizmati tomonidan ommaviy axborot vositalarida muntazab yoritib borish ham ochiq va shaffoflikni amaliy ifodasidir.

Biroq, ijro ishi yurituvda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda erishilgan yutuqlarga qaramay ayrim yo'lga qo'yilishi muhim bo'lgan ayrim mexanizmlar joriy qilinmay qolmoqda.

Jumladan, har bir tuman (shahar) hududlar kesimida Byuro faoliyatiga jamotchilik nazorati yo'lga qo'yilmagan.

Fuqarolarning, yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qiluvchi sud hujjatlari ijro etilishining ahvoli (holati) qay darajada? Davlat organlari, mansabdor shaxslar ijtimoiy va fuqarolar manfaatlariga daxldor bo'lgan o'z vazifalari va funksiyalarini qay darajada bajarayotganligi kuzatish Jamoatchilik nazoratining ob'ekti hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati nafaqat ijro harakatlarini qonuniy va adolatli olib borilayotganini nazorat qiladi, balki davlat ijrochilarini korrupsiya degan illatning iskanjasiga tushib qolishdan saqlaydi. Qolversa, davlat ijrochilari nomiga qilinayotgan har xil asoslanmagan ig'vo va bo'xtonlardan himoya ham qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni 11 –modda.
2. A.Hamidov. Fuqarolik ishlari bo‘yicha va iqtisodiy sudlar qarorlarini ijro etish tartibi, mavjud muammolar hamda ularning yechimlari. Monografiya. 77-b. “BAKTRIA PRESS” MChJ. Toshkent. 2019 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi direktorining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish borasidagi faoliyatini samarali tashkil qilish to‘g‘risida”gi 62-son Buyrug‘i. 2019 yil 1 avgust.



COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LABOR LEGISLATION OF FRANCE AND KAZAKHSTAN, REGULATING THE ASPECT OF THE APPLICATION OF THE NON-COMPETITION AGREEMENT WITH EMPLOYEES

Zukhra Bekmurodova Kadam kizi

Toshkent davlat Yuridik universiteti

Annotation: This scientific article provides a comparative analysis of the legislation of France and Kazakhstan on the occasion of the application of non-competition agreements with employees. The advantages and disadvantages of the regulation of the institution under consideration are considered.

Keywords: prohibition of competition, freedom of labor contract, protection of the interests of the employer.

Аннотация: В данной научной статье проведен сравнительный анализ законодательства Франции и Казахстана по случаю применения соглашений о неконкуренции с работниками. Рассмотрены достоинства и недостатки регулирования рассматриваемого института.

Ключевые слова: запрет конкуренции, свобода трудового договора, защита интересов работодателя.

The design of the non-compete agreement has its roots in Germany and has become widespread since the 20th century. In practice, the concept of "non-competition agreement" is widely used in jurisdictions when considering issues of labor relations between the employer and employees. The experience of foreign countries shows that an employer can enter into a non-competition agreement with an employee to provide a guarantee that this employee will not enter into labor relations with a competing enterprise for a certain period of time after the termination of the employment contract with this employer. Such contracts are widely used in the labor legislation of Germany, France, Italy, Kazakhstan and many other developed and developing countries.

In a study by Starr, Bishara and Prescott conducted in 2015, the data show that a significant number of US workers (18% of all workers, or nearly 30 million people) are subject to non-compete agreements.

The prevalence of such agreements raises important questions about how they affect worker welfare, job mobility, business dynamics and overall economic growth.



This report presents findings from economic theory and evidence for the economic impact of non-compete agreements. Discussions on the policy of consequences continue, starting a discussion about how such agreements can be used in a way that balances the interests of firms with the interests of workers and society as a whole.

In order to objectively evaluate the expediency of applying a non-competition agreement in Uzbekistan, it is necessary to highlight the general principles of regulation of this institution of countries in which precedent or legislation allows restriction of an employee's rights to subsequent employment under an agreement.

The experience of France and Kazakhstan in applying this type of agreement should be considered. In practice, the non-competition pact is regulated by labor legislation, which provides for the admission of the conclusion between the employer and the employee, in addition to the employment contract, a non-competition agreement. It can be in the form of one of the terms of the employment contract, or as a separate contract.

French labor law contains this construction under the term "non-competition agreement", literally *la clause de non-concurrence*. It should be noted that the history of the creation of this design has a century-long duration, and even in the works of O. Balzac there is an example of a non-competition clause. In the novel "Lost Illusions", O. Balzac describes the storyline of the sale of a company - a printing house, the right to publish a newspaper, and there describes a case about an employee's guarantee that he will refuse further competition from the former owner of the organization: "David undertook to continue not to publish any newspaper under the threat of thirty thousands of penalties".⁷ In this case, it is clear that this non-competition clause is more of a civil law nature, and at that time labor law was not distinguished as an independent branch of law and the employee did not act as a subject of competition and labor relations.

To date, the classic editions of French labor law, *Droit du travail*, which has been reprinted more than twenty times, contain the following definition of a non-competition agreement: "*la clause de non-concurrence*": "This is an agreement according to which the employee undertakes at the moment signing an employment contract, not to carry out, directly or indirectly, competitive activities in relation to the organization with which he entered into labor relations, both by employment in an organization engaged in competitive activities, and by creating such an organization"⁸.

⁷ Balzac O. *Lost Illusions* // *Cob. cit.*: in 24 t. M., 1960. T. 8.

⁸ Hess-Fallon B., Simon A.-M. *Droit du travail* / 21-e edition. Editions Dalloz. 2010.



In the prudential courts of France, which consider labor disputes according to their jurisdiction, over the entire period a lot of experience has been accumulated in resolving cases on whether the “non-competition agreement” provision between the employer and the employee should be recognized as valid or invalid. It should be noted that the court receives appeals both from employers who are trying to protect interests from the unlawful competitive activities of a former employee, and employees in case of non-compliance by the employer with the terms of this agreement, or on constitutional provisions on the freedom of citizens' rights to engage in entrepreneurial activities.

Legislative acts of March 2 and 17 and June 14, 1791, defined the principle that says: "Any person has the right to engage in trade or work, craft or industrial activity at his discretion."⁹

The above-mentioned acts are also valid in the fifth French Republic. The Council of State, in a resolution of June 22, 1981, emphasizing the commentary on the principle of freedom of enterprise, indicated that the law of March 2 and 17, 1791 is still in force.

In order to eliminate conflicts, court practice has determined the basic conditions that are necessary for the entry into force of the non-competition pact. These conditions are considered in the decision of the Court of Cassation, which was adopted on July 10, 2002.

One of these decisions states that “In view of the fact that the non-competence clause is legal only if it is necessary to protect the legitimate interests of the enterprise, is limited in time and space, that it takes into account the specificity of the employee’s work and includes an obligation for the employer to pay the employee a monetary compensation, that is, it is valid only in the presence of the totality of these conditions”¹⁰.

In order to regulate the conclusion of this agreement, the legislation prescribes the conditions that are necessary for the recognition of the non-competition clause. These conditions and requirements are spelled out in 3 decisions of the Court of Cassation, which were adopted on July 10, 2002:

must be legal and reasonable, that is, this applies to those employees whose professional activities directly affect the business of the enterprise and its financial component;

⁹ Lyusher F. Constitutional protection of the rights and freedoms of the individual. M.: Progress-Univers, 1993.

¹⁰ Kauder S. Les different aspects des clauses de non-concurrence en France. [Electronic resource].

this agreement should be limited in space and in terms. In France, employers conclude this agreement for a period of 2 years. After the expiration of this period, the employee has the right to conclude an employment contract with a competing enterprise.

must take into account the specificity of the position;

for compliance with the requirements of non-competition on the part of the employee, the employer is obliged to bear the compensation payment. The amount of remuneration must comply with the requirements and conditions stipulated in this agreement. If the employee is not employed after the conclusion of this agreement, for the entire period the employer must compensate with a cash payment not less than the average earnings at the last place of work.

In French labor law, a non-competition agreement is recognized as valid if the conditions are met by both the employer and the employee. The amount of compensation payments is negotiated in advance and prescribed in this agreement.

In case of violation of obligations under the terms of the non-competition agreement, the employer has the right to:

- 1) stop payment of compensation;
- 2) appeal to a prudential court and demand a fine from the employee;
- 3) apply to the judicial authorities with a request to prohibit the conclusion of an employment contract with a competitor enterprise for a specific period;
- 4) apply to the court to impose obligations on the employee to return the amount paid for the entire period;
- 5) claim in court to cover the losses incurred as a result of the violation of the non-competition clause.

Not only the employee can be held liable for violation of the non-competition agreement. In some cases, the responsibility is also placed on the new employer, who, by a court decision, may be obliged to compensate for the damage suffered by the former employer. In this case, according to the general tort of the French Civil Code, legal liability has the character of civil law, according to article 1382 of the French Civil Code, the rule that "any act of a person that causes damage to another obliges the person who caused the damage occurred, for damages"¹¹. However, this requires proof of the existence of two conditions.

The first case is related to the fact that the employer has information about the presence in the contract of the employee at the old place of conditions on

¹¹ Shonia G.V. General characteristics of the labor law of France: Abstract of the thesis. diss. ... cand. legal Sciences. M., 2009.



confidentiality and non-competition. But, if the new employer was not aware of such conditions in the employment contract before the conclusion of the employment contract with the employee, the latter is subject to termination.

Otherwise, the employer will be held liable for an act referred to as unfair competition.

The second case is when an employer entices an employee in order to use his experience and knowledge, which was acquired during the period of work from a competing enterprise. In this case, the term "détournement d'ouvriers" is used - luring other people's workers in order to take advantage of the production features and techniques of a competing company. Therefore, if the employee terminated the employment relationship with the employer in order to conclude an agreement with another - a competitor organization, then the new employer will be held jointly and severally liable for the damage caused. The basis will be the norm of Art. L.-122-15 of the Labor Code. In addition, the affected employer has the right to apply to the commercial court with the accusation of the new employer in the case of unfair competition.

Kazakhstan

To date, in the Republic of Kazakhstan, the non-competition clause is actively used in practice and this type of agreement is regulated by the Labor Code.

According to the 1st article of subparagraph 9 of the Labor Code of the Republic of Kazakhstan, the condition of non-competition is the terms of the non-competition agreement that restrict the employee's right to carry out actions that can harm the employer¹².

That is, this norm assumes the fact that the non-competition condition cannot be specified in the employment contract, but is concluded as a separate type of non-competition agreement with an employee.

According to paragraph 1 of Article 29 of the Labor Code of the Republic of Kazakhstan, "by agreement of the parties, a non-competition agreement may be concluded between the employer and the employee, which provides for the employee's obligation not to carry out actions that could harm the employer."

The non-competition agreement prescribes restrictions and conditions from acceptance, in addition, the employer has the right to establish compensation for the duration of the contract, except in cases not provided for by the legislation of the Republic of Kazakhstan. According to paragraph 3 of Article 29 of the Labor Code of

¹² The Labor Code of the Republic of Kazakhstan, adopted on 23.11.2015, electronic resource - https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38910832&pos=300;-40#pos=300;-40



the Republic of Kazakhstan, the list of positions and jobs held or performed by employees with whom a non-competition agreement may be concluded is approved by an act of the employer.

According to paragraph 2 of this article, the non-competition clause establishes restrictions and prohibitions on actions that damage the employer's activities.

As an example, such restrictions may include:

- using the capabilities and resources of the employer for purposes other than work related to the activities of this employer;
- speaking to clients or partners of the employer on their own behalf, or from third parties, in order to promote their goods or goods of third parties;
- holding a position in other organizations that have not been approved by the employer, or working or participating in a competitor company;
- act as a representative for third parties who are related to the employer;
- without prior approval of the employer, the conclusion of transactions in order to collect benefits from the property;
- receiving commissions from both the employer and third parties for transactions that were concluded between the employer and a third party;
- receiving awards or payments from third parties for work performed in the employer's field of activity, in addition to wages, which is established by the employment contract;
- speaking on behalf of or for third parties in relation to the employer.

According to paragraph 8, 123 of the article of the Labor Code of Kazakhstan, material liability in the full amount of damage caused to the employer is imposed on the employee in cases of violation of the non-competition clause, which caused damage to the employer.

It follows from this law that if an employee violates the prohibitions provided for in the non-competition agreement, he is financially liable for the damage caused to the employer and is subject to recovery.

In accordance with paragraph 2 of Article 29 of the Labor Code of Kazakhstan, compensation for the employee is established for the period of validity of the non-competition agreement. However, there is no explanation of this kind of compensation in the Labor Code and it is not equated with the concept of compensation payments from the employer to the employee. It follows from this that the employee has the right to receive compensation for the restrictions established under the contract and at the same time, the employer has the opportunity to collect



compensation in case of violation by the employee of the terms of the non-competition agreement.

Judicial practice also proves that the above-mentioned type of compensation to the employee and the employer are considered and recognized as legitimate and justified. It follows from this that the employer has the right to indicate in the contract the amount of compensation for violation of the conditions of non-competition in order to protect his interests.

In comparison with other countries where the non-competition agreement is applied, in Kazakhstan, the Labor Code does not provide for the duration of the non-competition agreement. In foreign practice, it is considered expedient to have a non-competition clause both during the period of validity and in the period after its termination, which can protect the employer for a certain period after the termination of the employment relationship with the employee.

The employer may have a guarantee for the fulfillment of the conditions under the non-competition agreement by the employee through the current legislation, namely:

- financial responsibility of the employee under the contract – according to Article 123 of the Labor Code of the Republic of Kazakhstan;
- compensation from the employer to the employee according to the established amount according to the non-competition agreement - Article 29 of the Labor Code of the Republic of Kazakhstan.

If an employee commits actions contrary to the terms of the non-competition agreement, or does not fulfill his obligations under the agreement, the employer has the right to file a lawsuit to recover compensation from the employee for the damage caused. In this case, it is necessary to prove the employee's violation of obligations and non-payment of compensation payments to him.

To date, the concept of a non-competition agreement has not been fully disclosed in Kazakhstan, and even government agencies do not have a clear understanding of the essence of this construction. If we proceed from the basic essence of the non-competition agreement itself, then it implies a ban on the transfer of an employee to a competitor company in a certain period of time to protect the interests of the employer. However, in the Labor Code of Kazakhstan, the essence of the non-competition agreement is slightly different and the Ministry of Labor and Social Protection of the Population notices the fact that they prohibit employers from prohibiting employees from transferring to a competitor enterprise, limiting its right.



The introduction of this concept in the jurisdiction of Kazakhstan was accepted optimistically by both the legal community and employers. But in practice, when applying this construction, lawyers of enterprises began to encounter ambiguous provisions and interpretations of regulations on this clause, which have not yet been settled. The difference in interpretations and ambiguity of the provisions may be understood and applied differently from a practical point of view by both employers and government agencies, which may be caused by the courts making opposite decisions on the same disputes. It should be noted that in comparison with Kazakhstan in France, this institution is regulated quite clearly and disclosed in full, I have appropriate mechanisms for its use, which leads to a decrease in the occurrence of conflicts and labor disputes on the issues under consideration and on the application of the non-competition agreement.

References:

1. Balzac O. Lost Illusions // Cob. cit.: in 24 t. M., 1960. T. 8.
2. Hess-Fallon B., Simon A.-M. Droit du travail / 21-e edition. Editions Dalloz. 2010.
3. Lyusher F. Constitutional protection of the rights and freedoms of the individual. M.: Progress-Univers, 1993.
4. Kauder S. Les different aspects des clauses de non-concurrence en France. [Electronic resource].
5. Shonia G.V. General characteristics of the labor law of France: Abstract of the thesis. diss. ... cand. legal Sciences. M., 2009.
6. The Labor Code of the Republic of Kazakhstan, adopted on 23.11.2015, electronic resource - https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38910832&pos=300;-40#pos=300;-40



ALISHER HAVOIY ASARLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Onajon Boltayeva Tojiboyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada darsda Navoiy asarlarini to‘laqonli tahlil qilish va uning qahramonlariga munosib tanqidiy baho berish imkonsizligi, Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarini mustaqil o‘qish va ular ustida mustaqil ishlash tajribasiga ham alohida e’tibor qaratilish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: “Layli va Majnun”, “Hayrat-ul-abror” “Muhokamat-ul-lug‘atayn”, interaktiv o‘yinlar, “Farhod va Shirin”, olam va odam, shaxs va jamiyat, hayot mohiyati va inson umrining mazmuni, tiriklik va o‘lim, ma’rifat va jaholat, haqiqat va yolg‘on, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va dushmanlik, muhabbat va sadoqat, diyonat va xiyonat, savob va gunoh, halol va xarom, saxiylik va baxillik, samimiyat va riyo.

Annotation: In the article, opinions are expressed about the impossibility of fully analyzing Navoi's works and giving a proper critical assessment of his characters in the class, therefore special attention should be paid to the experience of independent reading of Alisher Navoi's works and independent work on them.

Keywords: Layli and Majnun Hayrat-ul-abror" Muhokamat-ul-lugatain, interactive games, "Farhad and Shirin", world and man, individual and society, the essence of life and the meaning of human life, life and death, ma wisdom and ignorance, truth and lies, good and evil, friendship and enmity, love and loyalty, religion and betrayal, virtue and sin, halal and haraam, generosity and stinginess, sincerity and hypocrisy.

Navoiy yaratgan o‘lmas asarlar tunganmas ma’naviy mulk sifatida abadiy qoldi. O‘zbek xalqi bu boy meros bilan haqli ravishda dunyodagi buyuk adabiyot yaratgan millatlar qatoridan joy oldi. Turkiy olamda undan oldin ham, keyin ham bunday buyuk sohibi qalam chiqqani yo‘q.

“Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada



chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish muhim" - degan edilar Yurtboshimiz. Bu esa bugungi kun ta'limida dolzarb vazifalardan biridir.

Alisher Navoiy turkiy adabiy tilni taraqqiy ettirish, uni ko'pchilikka manzur qilish, bu tilni she'riyat dunyosiga tan oldirish qanchalik qiyin va mashaqqatli ish ekanini, buning uchun o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda hukmron bo'lgan fors tilidagi adabiyotga mazmun va badiiy qiymat tomonlaridan teng adabiyot yaratish zarur ekanligini yaxshi tushungan va bunday ulug' vazifani amalga oshirishga to'laqonli muvaffaq bo'lgan edi. Shuni aytish kerakki, turkiy va forsiy tillarning o'zaro munosabati haqida Navoiy o'zining qator asarlarida fikr yuritadi. Masalan, «Hayrat-ul-abror» dostonida shoir fors eli o'z ona tillarida yozilgan asarlarni o'qishdan xursandligi, turkiylar ham ana shunday boylikdan bahramand bo'lishga loyiq ekanligi, «Layli va Majnun» asarining oxirida bu rivoyatni turkcha hikoya qilganligi, turkiylar orasida xushta'b, sof idrokli odamlar ko'p ekanligi haqida yozadi.

«Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida turkiy va forsiyning ifoda qudrati bir-biriga qiyoslanadi. Bunday dalillarga qarab Alisher Navoiyni butun umri davomida qiziqtirgan, o'ylashga majbur qilgan lisoniy muammo - turkiy va forsiy tillarning bir-biriga munosabati, turkiy tilning ifoda qudrati forsiy tilning ta'sirchanligidan kam emasligini isbotlashga intilishdan iborat bo'lgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy merosini bugungi kun o'quvchisiga o'rgatishda interaktiv usullar ham muhim. Bunday usullar talabalarga motivatsiya berishda katta samara beradi. Interaktiv o'yinlar yaratish platformalari: Quizlet, LearningApps, Playfactile, Classtools.net.

Mazkur platformalarda turli shakldagi test, boshqotirma, flashkarta, QR-o'yin, so'rovnoma, diagramma, idrok xaritalari, kartochkalar yordamida rang-barang va mazmunli didaktik o'yinlarni yaratish imkoni mavjud. Bu kabi interaktiv o'yinlarni qo'llash jarayonida talabalar savollarga javob berishda yakka yoki guruh bo'lib ishlaydilar. Bu o'z o'rnida ularning hamjihatlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, muammolarga echim topish ko'nikmalarini rivojlantirib, fanning nazariy va amaliy masalalari borasidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilar Alisher Navoiy asarlari orqali olam va odam, shaxs va jamiyat, hayot mohiyati va inson umrining mazmuni, tiriklik va o'lim, ma'rifat va jaholat, haqiqat va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, do'stlik va dushmanlik, muhabbat va sadoqat, diyonat va xiyonat, savob va gunoh, halol va xarom, saxiylik va baxillik, samimiyat va riyo, boringki, insoniyat aqliyu ko'nglini band etib kelgan barcha azaliy va abadiy mavzular, qadriyat hamda tushunchalar, fazilat va illatlar haqidagi shaklan

go'zal, mazmunan teran va badiiy yuksak fikr mushohadalarini topadilar. Bu jarayon o'quvchilarni badiiy asar qahramonlari faoliyatiga tanqidiy baho berishga o'rgatishga o'rgatadi. Masalan, 9-sinflarda o'qituvchi Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Ya'ni, Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi ikkinchi doston «Farhod va Shirin» deb atalib, 1484-yilda yozib tugallanganligi, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat bo'lib, shundan muqaddima 11ta bobni o'z ichiga olishi va doston voqealari haqida so'zlab beradi. Keyin o'quvchilar oldiga quyidagi savollarni qo'yadi:

1. Farhod ko'zguda Shirinni ko'rgach, uni qanday his-tuyg'ular va fikrlar band etdi?

2. His-tuyg'ular va kechinmalar Farhodda qay tarzda namoyon bo'ldi?

3. Farhodning his-tuyg'ularini Shirin qanday baholadi?

4. Alisher Navoiy Farhod va Shirin timsollarida qanday oliyjanob sifatlarni qadrlagan?

5. Dostonda qanday salbiy xislatlar aks ettirilgan va bu qaysi obrazlarda namoyon bo'ladi?

6. Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostoni orqali qanday xislatlarni ulug'lab qaysilarini o'tkir tanqid ostiga olgan?

Tadqiqotchilik jarayonida berilgan murakkab savollar sirasiga muallifning asosiy g'oyasini izohlashga qaratilgan savollar kiradi. Bunday savollar yordamida o'quvchilar muallifning axloqiy nuqtai nazarini aniqlash va shu orqali qahramonlarga tanqidiy baho berishga muvaffaq bo'ladi. Masalan:

1) Alisher Navoiy o'z o'quvchilari oldiga qanday axloqiy sifatlar muhimligini anglash masalasini qo'yadi?

2) Axloqiy sifatlarni anglashda Farhod va Shirin qanday o'rin egallaydi?

Tadqiqotchilik birinchi navbatda ijodiy faoliyat ko'rsatish usuli hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar asar qahramoni xarakteriga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlarni tadqiq qilish asosida aniqlaydilar. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zaro munozaralarini tashkil etish samarali natijalar beradi. Adabiyot darslarida o'quvchilar jamiyatdagi turli soha kishilari bilan uchrashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chuqur mazmun-mohiyatga ega bo'lgan badiiy asarlarni anglash va ular haqida tanqidiy hukm chiqarish o'quvchilardan murakkab aqliy jarayonlarni bajaradilar. Buning uchun o'quvchilar ma'lum darajada ruhiy hamda jismoniy kuch sarflashga majbur bo'ldilar. Asar qahramonlari o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar Alisher Navoiy asarlarini o'qish va anglashga bir muncha qiynalgan bo'lsalarda, doston qahramonlariga alohida qiziqish bilan qaray



boshladilar. O‘quvchilarning Alisher Navoiy asarlari tilini tushunishga qiynalishlari ularda tanqidiy fikrlashning sust kechishiga sabab bo‘ldi. O‘quvchilar dostonni har tomonlama tahlil qilib, uning qahramonlariga tanqidiy baho berishlari uchun avvalambor asar tilini tushunishlari zarur. O‘quvchilar doston qahramonlariga tanqidiy baho berishlari uchun matnning mazmun-mohiyatini anglashi kerak. Qahramonlar faoliyatiga o‘z tajribalarining tarkibiy qismi sifatida qaray olishlari talab etiladi. O‘quvchilar dostonni idrok qila olishlari va u haqida fikr yuritishlari uchun asar tilida gapira olishlari kerak. Doston qahramonlariga tanqidiy baho berishda o‘quvchilar «bu qahramon menga yoqadi, bunisi esa yoqmaydi» prinsipi asosida ish ko‘rmasliklari lozim. Ular doston syujeti haqida fikr yuritganlarida o‘zlarini ob‘ektiv voqelik bag‘rida his eta olishlari lozim. Shundagina ular qahramonlar haqida o‘z tengdoshlari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalladoshlari, qarindosh-urug‘lari sifatida fikr yurita oladilar.

Xulosa qilib aytganda, darsda Navoiy asarlarini to‘laqonli tahlil qilish va uning qahramonlariga munosib tanqidiy baho berish imkonsizdir. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarini mustaqil o‘qish va ular ustida mustaqil ishlash tajribasiga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Har qanday badiiy asar qahramonlaridan birortasining faoliyatini etarlicha tahlil qilish va unga tanqidiy baho berish uchun asar matnini to‘liq o‘zlashtirish zarur. Chunki badiiy asarning kompozitsiyasi obrazlar tizimini ifodalaydi. O‘quvchilar badiiy asar qahramonlariga munosib tanqidiy baho bera olishlari uchun asarda ifodalangan makon va zamonni to‘g‘ri idrok eta olishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.
2. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay‘ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san‘at, 1989.- 246 b.
3. Yusupova D. Alisher Navoiy «Xamsa»sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi.–Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2011.



QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUG‘ORISHDA YANGI YONDASHUVLARNING QO‘LLANILISHI

R.N.Kodirov

M.Abdugapparova

O. Ergasheva

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Ushbu ishda aholining ehtiyojlarni qondirishda zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtirishda ishlatiladigan sug‘orish jarayoni ko‘rib chiqiladi va yangi texnik vositalar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Iqtisodiy ko‘rsatkichlari va hosildorlikka ta‘siri ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, tejamkorlik, irrigatsiya tizimi, o‘simliklar kasalligi.

Annotation: This paper discusses the process of irrigation of agricultural plants necessary to provide food for the population and provides information on the new technological solutions used in this process.

Keywords: ecology, economy, irrigation system, plant diseases.

Insoniyat paydo bo‘lgani bilan asosiy muammolardan biri sifatida oziq ovqat ta‘minoti tashkil etish hisoblangan. Tarixdan ma‘lumki eng erta insonlar yashash joylari suv mavjud joylarda shakllangan va u tugashi bilan xayot so‘ngani ro‘y bergan. Hozirda ham barcha mamlakatlar uchun shu muammo birinchi navbatda hal etilishga doimo uriniladi.

Ohirgi yillarda suv tahchilligi borgan sari salbiy ta‘siri ko‘satishi keng ko‘lamda namoen bo‘lmoqda. Buning sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin: suv me‘erdan ortiq ishlatilishi, suvni yetkazib berishda yo‘qotishlar kattaligi, iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘ingarchilik miqdori va davriyligi o‘zgardi.


Masalaning holatiga bir nazar solsaq. O‘zbekiston hududi suv manbalari bilan juda yaxshi ta‘minlangan. Suvning me‘yoridan ortiq bo‘lishi va uning yetishmasligi ham bir xilda salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi: hosildorlik kamayadi, o‘simliklarning kasalliklari tez avj oladi, tuproq eroziyasi kuchayadi.

Suv resurslaridan samarali foydalanishda ishlatiladigan texnologiyalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- yomg‘irliq (katta maydonlar kesimida) yordamida sug‘orish,
- tuproq ustidan suvni yetkazib berish,
- havo orqali mayda tomchilar orqali (barg sirtidan) sug‘orish,

- tomir tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri suvni yetkazish,
- havoning nisbiy namligini samarali yig‘ish.

Keltirilgan har bir usulning o‘zining foylari va zararli tomlari mavjud. Ularga e‘tibor qaratsak.



(a)

(b)

1-rasm. Suv tejamkor texnologiya ishlatish jaraeni

(a) – tomir orqali tomchilatib sug‘orish shakli,

(b) – hiyobonda yomg‘irlatib sug‘orish shakli.

Yomg‘irlatish jarayonida 40% gacha suv resurslari tejaladi, lekin o‘ta namlanish, tuproq eroziyasi, hosilning bir qismini yo‘qotish singari salbiy oqibatlari ham uchraydi. Boshqa tomondan, ushbu texnologik vositalarning ko‘pgina qismlari ancha qimmat va horijdan keltiriladi. Bu holat biroz yaxshilanishi kuzatilmoqda [1]. Uning asosiy yutug‘i – suv tomir tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib beriladi va bir vaqtda mineral ozuqasi ta‘minlanadi, tuproq sirtiga suv tushmaydi. Demak, begona o‘simliklar uchun sharoit yaratilmaydi. Salbiy tomoni - ishlatiladigan texnologik vositalar qimmatligi va elektr energiyasi sarfi kattaligidadir. Endi iqtisodiy samardorligi tomoni ko‘rib chiqsak. Agar ekin maydoni kichik bo‘lgan holatda 2-3 yilda, kattaligi ortgan sari – 1 yilda ishlatilgan iqtisodiy sarflar to‘la qoplanadi. Mana shu natija boshqoli o‘simliklar bilan ishlaganda kuzatiladi.

Suvni tejashning yangi samarali usuli - manzilli (faqat o‘simlikka) yaratildi. Unga suvni tejash miqdori 80% gacha, sahro va suv o‘ta tahchil hududlarda – 300%

gacha yetishi mumkin. O'rnatilishi sodda, qimmat texnologik vositalar (nasos, kompressor) ga zarurat yo'q, chunki yuqori bosimga hojati yo'q. Hosildorlik vegetatsion muddat 10-14 kunga qisqarishi hisobiga 30-50% ga ortishi kuzatildi va bir vaqtda sifati ortadi.



2-rasm. Dala sharoitida tomchilatib sug'orish jaraeni

Ushbu texnologiyani ishlatilishi tuproqning turiga bog'liq emas, ya'ni shamollatishi yaxshilanadi va eroziyadan saqlanish amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu usulda samarali natija erishish omili - ildiz tizimi atrofida tuzlarning miqdori kamayadi, qiyaligi katta joylarda va tog' qiyaligi yerlarida eng qulay vosita. Ikkinchidan, mineral o'g'itlar 50% gacha tejashga erishiladi hamda mehnat sarflari kamayishiga olib keladi. Umuman, iqtisodiy tejamkorlik va bir vaqtda texnologiyani qat'iy holda amal qilish talab etiladi. Chunki oziqlanish va sug'orish barcha tizim bo'yicha bir xilda bo'ladi.

Tomchilatib sug'orish texnologiyasini dala va issiqhona sharoitida ham amalda ishlatilishi mumkin [2,3]. Ishlatiladigan texnologiyani iqtisodiy sarfi va vositalarning olinishi sarflar ham o'ziga mos bo'ladi.



3-rasm. Issiqxona sharoitida tomchilatib sug'orishni qo'llash jaraeni

Mana shu texnologiyaning paydo bo'lishini bog'liq bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot berib o'tsak. 1950-yillarda Isroilda suv tahchilligi sharoitida shakllanishiga turtki bo'ldi. Yana bir omil – 60-yillarning boshidan sanoat masshtablarda oziq – ovqat mahsulot-larni yetishtirish [3].

Bog'larning sug'orish jarayonida havo orqali mayda tomchilar orqali (barg sirtidan) sug'orish, tomir tizimiga to'g'ridan-to'g'ri suvni yetkazish usullari ishlatiladi.



4-rasm. Mevali bog'da tomchilatib sug'orish qo'llash jaraeni

Poliz o'simliklarni sug'orish uchun yuqori keltirilgan aksariyat usullaridan foydalaniladi. Shu yerda qishloq xo'jalik o'simliklarning turlari bo'yicha foydalanish mumkin bo'lgan sug'orish texnologiyalar to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tsak.

Boshoqli o'simliklarda sug'orish vositalardan quyidagilar samarali bo'lishi mumkin:

- yomg'irlatib (30 sm balandlikgacha),
- tomchilatib (tuproq sirtidan).

Mevali bog'larda mana shu texnologiya qo'llash haqida ma'lumot juda ko'p va Internet tarmog'ida joylashtirilgan, ular bilan tanishish oson, barcha ma'lumot batafsil tushuntirilgan [4,5].

Tomchilatib sug'orishning ijobiy natijalarga erishamiz:

- pomidor, bodring, karam, kartoshka va piyoz bo'yicha hosildorlik 2 marta ortadi,
- jalb etilgan mehnat sarfi 20 martagacha kamayadi (30-40 kishi o'rniga 2-4 ta odamlar jalb etiladi).



Xulosa shuki, suv sarfini tejash o‘zimizning aholimizni oziq-ovqat maxsulotlar bilan ta’minlashga erishamiz, tuproq va atrof muhitni kelajak avlodga saqlab qolamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.mk.ru/social/article/2014/03/12/997396-kapelnoe-oroshenie-poley-printsip-deystviya-plyusyi-i-minusyi.html>
2. Бородычев В.В., Выборноэ В.В., Болкунов А.И. Орошениэ и удобрениэ репчатого лука // Труды Кубанского государственного аграрного университета: серия Агроинженерия. – 2008. – № 2. – С. 17-21.
3. Дубенок Н.Н., Болкунов А.И., Бородычев В.В., Выборноэ В.В., Афиногенов В.В. Капельноэ орошениэ и удобрениэ репчатого лука // Вестник сельскохозяйственной науки. – 2008. – № 56. – С. 34-38.
4. https://www.youtube.com/watch?v=ukPVMgIrH_A
5. <https://www.youtube.com/watch?v=DrZRijcal80>



QISHLOQ SHAROITIDA MAKTABLARDA O‘QIYDIGAN O‘QUVCHILARNING JISMONIY TARAQQIYOTI

Sohiba Maxmatqulova

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 63-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola Qamashi tumanidagi maktablarida taxsil olayotgan 1-15 yoshli o‘quvchilarning ayrim antropometrik kursatkichlarini o‘rganish natijalari keltirilgan. Unga ko‘ra tekshiriluvchi yigit va qizlarning o‘rtacha vazni mavjud standartga yaqin, bo‘y uzunligi esa me‘yorga nisbatan ayniqsa o‘g‘il bolalarda kamligi bilan ajralib turadi. Bunday holat ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishni yanada yaxshilashni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: Maktab, o‘quvchilar, tana vazni, bo‘y uzunligi, antropometriya, sog‘lom turmush tarzi.

Ma‘lumki, jismoniy taraqqiyot deganda, har bir organizmning o‘rish va rivojlanish ko‘rsatkichlari tushuniladi va u tegishli biologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shu bilan birga jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari bolalarning yoshi, jinsi, yashash sharoiti, ovqatlanishi, irsiy va individual xususiyatlari kabi qator omillarga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Antropometrik ko‘rsatkichlar, ya‘ni bo‘y uzunligi, tana massasi, ko‘krak qafasining kengligi, teri osti yog‘ qatlami qalinligi va boshqalar (somatoskopik va fiziometrik ko‘rsatkichlar) bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini tekshirish va tegishli xulosa qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarda belgilangan vazifalar asosida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, o‘quvchilarning sihat-salomatligiga o‘quv yuklamasining me‘yordan ziyod bo‘lishi, kun tartibining buzilishi, noto‘g‘ri ovqatlanish va boshqa omillarning tegishli ta‘siri tadqiqot natijalarida qayd qilingan.

Yuqorida aytib o‘tilgani singari hozirgi davr o‘quvchilarining hayoti, o‘qishi, informatsion materialning kengligi hamda kuzatiladigan ekologik disbalans o‘quvchilarning kundalik turmush tarziga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun yangi shart-sharoitlarga moslashishda o‘suvschi organizmning funksional tizimlari ishini e‘tiborga olish muhim hisoblanadi. Hozirgi zamon o‘quvchilarining jismoniy taraqqiyotini o‘rganishda ularning zamonaviy o‘qish, o‘qitish va tarbiyaviy ishlari, ulardagi morfofunksional nuqsonlarga e‘tibor bermaslik nafaqat o‘qish jarayonida



balki tegishli mutaxassislikni egallab olganlaridan keyin muvaffaqiyatli mehnat qilishi va hayot kechirishida qator noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni deyarli har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda.

O'quvchilar organizmida moddalar va energiya almashinuvi, o'sish va rivojlanish jarayonlarining jadalligi va boshqa ko'rsatkichlari bilan kattalar organizmidan farq qiladi. Qolaversa o'smirlik yoshi inson hayotidagi eng muhim, jiddiy (kritik) bosqichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu munosabat bilan o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish fiziologiya va tibbiyot oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o'z kuzatuvlarimiz davomida Qamashi tumanidagi 63-maktabida tayyorlanadigan 10-15 yoshli 200 nafar o'quvchilar ayrim antropometrik ko'rsatkichlarini o'rgandik. Tekshirishlar umumiy qabul qilingan usullar yordamida olib borildi.

Olingan natijalarga ko'ra, tekshiriluvchi o'g'il va qiz bolalarning o'rtacha tana vazni mavjud standartga yaqin, bo'y uzunligi esa me'yorga nisbatan ayniqsa o'qil bolalarda kamligi bilan ajralib turadi. Jumladan qiz bolalarning 76,5% ida tana vazni me'yorida, 2,3% ida me'yoridan kam va 5,8% ida esa me'yoridan ziyodligi kuzatildi. Bunday holatni o'g'il bolalarga nisbatan ham qayd qilish mumkin.

Tekshiriluvchilarning bo'y uzunligini aniqlash natijalariga ko'ra shuni aytish mumkinki, o'g'il bolalarning 76,5% ida bo'y uzunligi me'yorida, 16% ida me'yoridan kam va 7,5% ida esa me'yoridan ko'pligi qayd etildi. Shuningdek, tekshiriluvchi qizlarning 26,8% ida bo'y uzunligi me'yoridan kamligi kuzatildi.

O'g'il bolalarning o'ng va chap qo'l muskul kuchi me'yorga nisbatan tegishli holda 6,5 va 3,8 kg ziyod. Shuningdek qiz bolalarda esa bu ko'rsatkichlar me'yoridagi $17,9 \pm 0,4$ va $20,0 \pm 0,3$ kg o'rniga tegishli holda $22,5 \pm 0,91$ va $24,0 \pm 0,79$ kg ni tashkil qiladi. Chunonchi, bu me'yorga nisbatan tegishli holda 5,6 va 6,0 kg ziyodligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tekshirilgan guruhlardagi o'g'il va qiz bolalarning tana massasi mavjud standartlarga mos keladi, bo'y uzunligi esa o'g'il bolalarda me'yorga nisbatan biroz kam.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qamashi tumanida o'qiydigan o'quvchilarning tana massasi, bo'y uzunligi va qo'l muskullari kuchi meyor ko'rsatkichlaridan juda chetga chiqib ketmaydi. Bunday holat ularning meyoriy o'sib-rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Olingan natijalar meyor darajasidan aytarli darajada farq qilmaydi. Ammo bu ular o'rtasida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib turish hamda sog'lom turmush tarzini yanada shakllantirib borish lozimligini ko'rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камилова Р.Т. Унифицированная методика исследования и оценки физического развития детей и подростков. – Ташкент: Абу Али ибн Сина, 1996. – 103 с.
2. Методические рекомендации по вопросам изучения фактического питания и состояния здоровья населения в связи с характером питания / Зайченко А.И., Волгарев М.Н., Бондарев Г.И и др. - Москва. – 1986. – 86 с.
3. Рацион, питание и предупреждение хронических заболеваний: Доклад совместного консультативного совещания экспертов ВОЗ/ФАО, серия технических докладов 916. - Женева, 2003. – 196 с.
4. Содиков Б.А., Кучкарова Л.С., Курбонов Ш.Қ., Болалар ва ўсмирлар физиологияси ва гигиенаси. – Тошкент: 2005. 272 б.
5. Раматуллаев Ё.Ш., Курбанов А.Ш., Есимбетов А.Т. Изучение фактического питания и физического развития детей обще-образовательных сельских школ в Кашкадарьинской области. // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз – Нукус, 2012. №4 (229). – С. 52-56.



CULTURE SHOCK

Iroda Egamberdiyeva

Khalilullo Kodirov Rakhmatullo ugli

Teachers of Andijan State Institute of Foreign Languages.

Ugiloy Komilova Nozimjon kizi

Student of Andijan State Institute of Foreign Languages.

Annotation: Communicating successfully with people from different cultures can be a real challenge. Cultural differences may lead to tensions, arguments, and even wars between peoples and nations. This paper deals with one of the most common problems in intercultural communication cultural shock, it introduces its concepts and basic traits, causes and symptoms, stages of adjustment and strategies of overcoming culture shock with the aim of improving intercultural communication competence for smoothing intercultural communication. In this article You will get a lot of basic information about Culture Shock.

Keywords: culture shock, intercultural communications, strategies of overcoming culture shock, different people and cultures.

“Culture shock” is defined as a feeling of disorientation or confusion that often occurs when a person leaves a familiar place and moves to an unfamiliar one. It is often brought on by the anxiety of losing all familiar signs and symbols of social interaction. These signs are ways in which we orient ourselves to different situations in life: when to shake hands, what to say when we meet people, when and how to give tips, how to give orders to waiters, how to make purchases, when to accept or refuse invitations, etc. These cues, which may be words, gestures, facial expressions, customs, or norms are acquired by all of us in the course of growing up and are as much a part of our culture as the language we speak or the beliefs we accept. That is why many international students relate they felt like a child again when coming to the U.S. When you enter a new culture, all of most of these familiar cues are removed. You will probably experience frustration and anxiety. Generally culture shock can be broken in to six different stages. Normally after arriving in a new country everyone experiences two low stages, stages 3 and 5, before reaching a comfortable level of



adjustment. Of course, individuals will experience different degrees of each step or may even skip steps or experience them in different orders. It depends greatly on the experience of the individual and their personality type.

Stage 1 – Anxiety about leaving home and what you will find in a new country.

Stage 2 – “Honeymoon”: Everything is exciting and fascinating in your new surroundings. You are excited and elated with all the new and different experiences.

Stage 3 – The first low symptoms of Culture Shock begin to set in. You realize that everything is so different in the new culture and it is overwhelming to cope with language, housing, shopping, transportation, and social changes. You may feel lonely, or exhausted from constantly processing and trying to understand all the new experiences.

Stage 4 – Initial Adjustment Stage: You can now handle many basic interactions with no problem. It is getting easier to maneuver on campus and around Rochester. You probably feel satisfaction with your accomplishments.

Stage 5 – This second low stage is generally the most severe stage of culture shock. You can typically feel a loss of self esteem when dealing with set backs such as continuing language barriers. It is not as easy as you thought to adjust to your new surroundings. You feel like a child sometimes. Your sense of loneliness and isolation intensifies as you have been away from home for some time. You don't feel like a part of your surroundings and feel more like an outsider. People are not friendly and you do not like the new culture. You are not what you were before, and may feel angry and resentful and see everything in a negative light.

Stage 6 – Your sense of well-being and humor begins to return as you establish comfortable routines and learn to understand the customs, foods, and characteristics of the new culture. You have made some friends, and are beginning to enjoy aspects of your new life. You realize that the problems and negative aspect of the new country are not reserved for foreigners, but that even natives face many of the same problems. Your perspective becomes more balanced and well rounded as you have begun to see that there are more good things and bad things about your new life. Some things you may never like, but you accept it as part of life, the same as we accept both the positive and negative aspects of any relationship.

Culture shock is a part of human nature and is to be expected. It is a normal part of the adjustment process, and with time, the symptoms will dissipate as you become more comfortable with the new culture. This process takes great patience, time and effort. Here are a few strategies to help you get through and cope with culture shock. Culture shock can affect communication by leading to misunderstandings. People in



their daily lives use more nonverbal communication and body language than they do the spoken language. Not all nonverbal and body language, however, translate to the same thing cross-culturally. For example, for some Native American tribes, it is considered rude to look a person in the eyes when talking. This can lead to miscommunication with the dominant American culture who deems this behavior disrespectful and expect to have someone look them in the eyes when talking.

Culture shock can also lead to ineffective communication when a person needs to communicate their needs (food, bathroom, place to sleep) or ask for directions from a culture that measures distances not by miles or kilometers, but by geographical features. People, who are used to a particular set of social cues will also run into communication problems. For example, some cultures find burping as not only acceptable but a way of communicating that the meal that was just eaten was delicious. Someone from a Western culture, however, might deem this as rude and not burp which can result in the person providing the meal being insulted. Culture shock is some sort of adjustment you might feel when you are subject to a new way of living and an unfamiliar setting around you. Culture shock is feeling uncomfortable or sometimes even lonely when you are abroad in a new place (for example, during family holidays like Christmas). It might take a bit of time to settle (first two weeks are usually the most intense).

There is not anything, in particular, that might cause it, but rather a mixture of new habits you come across when you move abroad: unknown greetings (for example, in France the most common greeting among members of the family is the 'la bise' (kiss on both cheeks), local customs, accents you are not used to, or unusual food. The unknown can be overwhelming and might lead to making a cultural faux pas or feeling confused, anxious, lonely or unconfident. In essence, it might cause you stress.

These are some of their biggest culture shocks.

Big Sizes. Teenagers from around the world are astounded by the size of things in the USA. ...

Food Surprises. ...

Family Lifestyle. ...

Teen Lifestyle. ...

House Rules. ...

American High School. ...

American Teachers. ...

Holiday Passion.



Cultural invasion may be followed by the inability to adapt to a different cultural experience. The result is withdrawal, apathy and social disintegration, and in the case of certain primitive tribes it may lead to their extinction. Culture shock may occur among immigrants, rendering them susceptible to exploitation and creating divisions and conflicts. Culture shock may also affect nations as a result of economic and cultural invasion leaving them dependent, in debt, and susceptible to foreign political influence.

Reverse culture shock is the experience of many expatriate workers. These returning business people, international agency workers and missionaries find it difficult to work with fellow countrymen. Their children often know nothing of their parent's home country, school is difficult, friendships are hard to make, and they are treated differently by teachers, classmates and neighbours. Wives must adjust to smaller houses, no servants, and different systems of shopping. Working expatriates find different working conditions. Culture shock is a widespread phenomenon. The social disintegration which it entails may cause alcoholism, drug dependence, suicide, promiscuity, crime and violence. In the inability of social groups to adapt economically it may cause debt, slavery, exploitation, general dependence, and as a result poverty, malnutrition and disease. It occurs in this way particularly with indigenous populations. Underprivileged immigrants into industrialized countries may similarly suffer. Other immigrants and sophisticated societies suffering from cultural invasion show more complicated psychological problems as a result, and the situation with nations is perhaps the most complex of all.

References:

1. <http://encyclopedia.uia.org/en/problem/135306#:~:text=Culture%20shock%20is%20a%20widespread,%2C%20promiscuity%2C%20crime%20and%20violence>
2. <https://blog.icesusa.org/10-culture-shocks-in-the-usa>
3. <https://www.ipl.org/essay/Intercultural-Communication-Culture-Shock-F34JWJ67EAJFR>
4. <https://www.william-russell.com/blog/culture-shock-expats/#:~:text=There%20are%20obvious%20examples%20of,and%20levels%20of%20eye%20contact>
5. <https://homework.study.com/explanation/how-does-culture-shock-affect-communication.html#:~:text=Answer%20and%20Explanation%3A,the%20same%20thing%20cross%2Dculturally.>



6. <http://www.iso.rochester.edu/assets/pdf/Living/CultureShock#:~:text=%E2%80%9CCulture%20shock%E2%80%9D%20is%20defined%20as,and%20symbols%20of%20social%20interaction>.



IQLIM O'ZGARISHINI OLDINI OLIHGGA QARATILGAN CHORA – TADBIRLAR

Elbek Nazarov Alimovich

Toshkent davlat agrar universiteti kafedrası o'qituvchisi

Sarvinoz Tursunboyeva Akramjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ekologik muammolarni biri bulib kelayotgan muammo yaniy , iqlim o'zgarishi muammosi tirik organizmlarga qanday holda ta'sir qilishi. Iqlim o'zgarishini oldini olish va unga moslashish uchun hozirgi kundagi qilinayotgan va qilinishi kerak bulgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, jamiyat, demografikiqlim o'zgarishi , atrof muhit, resurslar, atmosfera, degradatsiya, globalekologik, yadro , azon, kislotali, biologik, issiqxona ,metan, azot, konsentratsiyalar.

Annotatsiya: In this article, one of the global environmental problems, that is, how the problem of climate change affects living organisms. Current measures to prevent and adapt to climate change are discussed.

Keywords: Globalization, society, demographic climate change, environment, resources, atmosphere, degradation, global ecological, nuclear, azone, acidic, biological, greenhouse, methane, nitrogen, concentrations.

Bugungi globallashuv jarayonida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, demografik vaziyatning o'zgarishi, ayniqsa iqlim o'zgarishida yuz berayotgan jarayonlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu dunyoning ko'pgina mintaqalarida tabiiy muvozanatning buzilishiga, ya'ni ona sayyoramizdagi harorat darajasi ko'tarilishiga, doimiy muzliklar egallagan maydonlar qisqarishiga, umumiy suv sathi ko'tarilishiga, yer, suv resurslari va atmosfera havosi ifloslanishiga, yerlar degradatsiyasi jarayoni kuchayishiga, o'simlik va hayvonot olamining noyob namunalari hamda o'rmonlar kamayib ketishiga olib kelib, hozirgi kundagi global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XX asrning 60-yillaridan e'tiboran fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi tufayli ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi kuchayib, sanoat va qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi, transport, qurilish tez sur'atlarda o'sib bordi. Buning natijasida yangi yerlarni o'zlashtirish, daryolarning suvlaridan sug'orish uchun



foydalanish, katta hajmda mineral xom ashyolarning xalq xo'jaligi ishlab chiqarishiga kiritish, ko'plab transport vositalarini ishlab chiqarish bosqichiga qadam qo'yildi. Buning natijasida tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sezilarli darajada o'zgardi.

Ozon qatlami atmosferaning yuqori qatlamida joylashgan bo'lib, Quyosh nurlari bilan birga yerga keladigan, tirik mavjudotlar uchun xavfli bo'lgan ultrabinafsha nurlarini qaytarib turadi. Ozon qatlami yerda hayot mavjudligining garovidir. Biroq bu qatlam keyingi yillarda katta xavf ostida qolgan. Butun dunyo metrologiya tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda Ozonning Antarktida tepasidagi qismida o'lchami Yevropa qit'asiga teng keladigan "tuynuk" hosil bo'lgan. Ozon qatlamining yemirilishiga sanoatda qo'llaniladigan xlor ftor uglerod (freon) sabab bo'lmoqda. U muzxonalarining sovitgichlari, aerezolli purkagichlarda, havo konditsionerlari va boshqa shunga o'xshagan narsalarda ishlatiladi. Freon uchuvchan bo'lgani uchun ham havo qatlamidan yuqori ko'tarilib, Ozon zarrachalarini "o'ldiradi".

Iqlim o'zgarishi - keng tarqalayotgan, jadal va tezlashib borayotgan jarayondir. G'arbda yashovchilar uchun ham sayyoraning isish xavfi endi faqat chekka hududlarga ta'sir qiladigan muammo emas. Dunyoning deyarli barcha qismida istiqomat qilayotgan insonlar iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan hodisalarni o'z tanalarida his qilishmoqda.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanligini ta'kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi issiqxona effekti deyiladi. Ya'ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham o'z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga odamlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Shuningdek, hozirgi kunda asosiy muammolar sifatida antropogen omillar ta'siri va qurg'oqchilik natijasida uglerod gazini yutuvchi o'rmon maydonlari keskin qisqarib ketishi, ozon qatlamining yemirilishi, yovvoyi tabiat maydonlarining qisqarib borayotganini ham keltirib o'tish mumkin. Oxirgi yuz yil ichida okeanning global sathi taxminan 15sm ga ko'tarilgan. Agar iqlim o'zgarsa bu 18 sm bo'lishi kutilmoqda. Maldiv va Tinch okeanidagi ba'zi orollarga juda katta qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, iqlim o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar:

- hozirgi yuz yillikning o'zida okeanlar sathi 1 m ko'tarilishi;



- CO₂ konsentratsiyasi atmosfera havosida ortishi (1870-yildan beri uni miqdori 30 foiz ortdi);

- Yerning ustki qobig‘i harorati +0,7°C ga o‘zgargan (so‘nggi yuz yil ichida).

- suv resurslari taqchilligining kuchayishi, shuningdek hududlarda ichimlik suvining yetishmasligi hamda muzlik va qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi, qurg‘oqchilik takrorlanishining ko‘payishi (hozirgi davrda har 10 yilning 3 yilida).

- tabiiy ofatlarning ortishi – sellar, toshqinlarning tez-tez takrorlanishi (so‘nggi 40 yil ichida tabiiy ofatdan bo‘lgan zarar miqdori 10 marotabaga oshgan);

- o‘rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o‘sib borishi;

- yog‘ingarchilikning yillik o‘rtacha darajasini mamlakatni butun hududi bo‘ylab pasayishi va ularning hududlar, vaqt hamda miqdori bo‘yicha notekis tarqalishi, haddan tashqari kuchli yog‘ingarchilikli va umuman yog‘ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi;

- qishloq xo‘jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o‘zgarishi;

- yuqori darajadagi jaziramalar takrorlanishining oshishi, harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolar ko‘payishi;

- o‘simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallarning qayta taqsimlanishi, demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalarning tubdan o‘zgarishi;

- sahrolanish jarayonlarining kuchayishi, ya‘ni, yashash va xo‘jalik yuritish mumkin bo‘lgan yerlarning kamayishi;

- iqtisodiyot sektorlari ta‘sirining to‘liq qayta taqsimlanishi va oldindan aniq aytish qiyin bo‘lgan boshqa ko‘pgina oqibatlar.

Iqlim o‘zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

-Issiqxona gazlarini kamaytirish. Buning uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish korxonalari, IES va boshqa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga tashlanayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish zarur.

-Yoqilg‘ilar sifatini yana-da yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko‘paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo‘lgan veloyo‘lakchalar tashkil etish o‘z navbatida issiqxona gazlari miqdorini kamaytiradi.

-Ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish. Tabiiy drenaj hisoblangan ko‘p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiklimni yumshatishga sabab bo‘ladi.



Shuningdek, Ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish zararli moddalar miqdorini kamayishiga xizmat qiladi.

-Suvdan oqilona foydalanish. Tomchilab sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ham o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun xizmat qiladi.

-Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni chiqindisiz texnologiyalar. energiyatejamkor, resurstejamkor, chiqindisiz, kam chiqindili texnologiyalardan foydalanishni joriy etish yoki boshqacharoq qilib aytganda mamlakatda yashil iqtisodiyotni joriy etish zarur.

-Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Quyosh, shamol energiyalaridan foydalanish bilan birgalikda atom energetikasini rivojlantirish orqali atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini oldini olish orqali iqlim o'zgarishlari oqibatlarini ma'lum bir darajada kamaytirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining bir qator bandlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilanganligi iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 <https://xs.uz/uz/post/iqlim-ozgarishining-oldini-olish-uchun-nimalar-qilish-kerak>
- 2 <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/01/climate-change/>
- 3 https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozon_qatlamining_yemirilishi_va_iqlim_o%27zgarishi
- 4 <https://lex.uz/docs/-4539502>



TARJIMASHUNOSLIKDA SHE'RIY TARJIMA MASALALARI

Shohsanam Sobirova Sobirjonovna

Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va amalyoti yo'nalishi talabasi

E-mail: shokhsanamsobirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada she'riy tarjima tarixi va bu tarjima uslubi tarjimada qanchalik kerakli ekanligi, tarjimada qanday berilishi, ma'no qanday to'liq saqlanishi, muqobil varianti bo'lmaganda qanday qilib she'riy tarjima qilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: She'riy tarjima, shoir, she'rshunos, poetik, uslub, muqobillik, fonetik, stilistik, ritm.

Annotation: This article talks about the history of poetic translation and how necessary this translation method is in translation, how it is given in translation, how to preserve the meaning completely, and how to translate poetry when there is no alternative.

Key words: Poetic translation, poet, poet, poetic, style, alternative, phonetic, stylistic, rhythm.

Tarjima nazariyasi fani qiyosiy tilshunoslikdan ajralib chiqqan. U asosan semantika aspekti bo'lib, semantikaga oid hamma savollar tarjima nazariyasiga taalluqlidir. Tilning ijtimoiylashuvini va u bilan aloqador bo'lgan tillarni o'rganuvchi sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) ham tarjima nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi bir necha turdagi matnlarni tarjima qilish usullarini aniqlashdan iboratdir. U tarjima nazariyasida ko'rsatilgan matnga mos variantlar tanlashda turli xil qoida, tamoyillar, tarjima bo'yicha olimlarning turli xil fikrlari haqida ma'lumotlar beradi. Tarjima nazariyasi va madaniyatining umumiy, tabiiy va shaxsiy mavzulari haqida axborot berishga harakat qiladi. Tarjima nazariyasi faqatgina oddiy so'zlarni tarjima etib qolmaydi, balki she'rlarni va g'azallarni o'z maromiga keltirib tarjima qiladi.

XX asming 70-yillaridan boshlab ingliz, nemis, fransuz tillaridan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni boshlandi. Shoirlarimizdan Jamol Kamol ingliz tilidan, Abdulla Sher nemis tilidan, Shavkat Rahmon ispan tilidan asliyat tilini maxsus o'rganib, asarlarni bevosita asliyatdan tarjima qilishni boshlashdi.

XX asrning oxiriga kelib o'zbek tilidan xorijiy tillarga bevosita tarjima qilishga bel bog'lagan tarjimonlar safi kengaydi. S.Saidov, Y.Parda, X.Rahimov, Sh.Karimov,

Sh.Imyaminova, Poshali Usmon o'g'li, M.Toshtemirov, B.Ermatov, A.Ko'chiboyev, S.Doniyorova A.Iminov, D.Sultonova, B.Xolbekova shular jumlasidandir.

She'riy tarjima asrlar davomida filologlar, shoirlar, she'rshunos olimlar, she'riy tarjima masalalari bilan maxsus shug'ullanib kelishgani haqida biz biroz bo'lsada tushunchaga ega bo'ldik. Ular qanday qilib muqobillikni saqlab qolish haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borishgan. She'riy tarjima nasriy tarjimadan ko'p jihatdan farq qilsa-da, ular o'rtasida mushtaraklik, zanjirdek bog'lanishlar mavjud. Ular tillararo poetik yoki she'riy muloqotga xizmat qiladi.

Badiiy tarjima murakkab ijodiy jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Bu murakkablik, ayniqsa, she'riy asarlar tarjimasida yaqqol namoyon bo'ladi desak yanglishmagan bo'lamiz. Nega bunday tarjima yo'nalishini tarjima qilish biz tarjimonlar uchun judayam murakkab? Bu savolga javoblar turlicha bo'ladi. Aslida bir tilda she'r, g'azal yozish judayam murakkab jarayon bo'lsa, uni asliyatdan boshqa tilga tarjima qilish ikki marotaba murakkab va ko'p vaqt, kuch, mehnat talab qiladi.

She'riy tarjima ijodiy jarayon bo'lib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san'atidir. Tillar she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi. She'riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she'riy sistemasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har bir she'r o'ziga yarasha noyob asar sanaladi.

She'riy tarjima qilish yangidan ijod qilishdek gap. Nemis tilidagi she'rlarni o'zbek tiliga qanday tarjima qilinishini tahlil qildik. Bunday jarayonda so'zlar soni to'g'ri saqlanadimi yoki qisqartiriladimi, so'zlarni muqobil varianti beriladimi yoki yo'q hozir Johann Wolfgang Goethening "Wandrer's Nachtlied" she'rini tahlil qilib ko'rib chiqamiz.

Nemis tili	O'zbek tili
Über allen Gipfeln Ist Ruh, In allen Wipfeln Spürest du Kaum einen Hauch; Die Vögel einschweigen im Walde. Warte nur, balde Ruhest du auch.	Sukunat qariga cho'mgan cho'qqilar Daraxtlar uchidan yengil sas kelar. Qushlar ham churq etmas o'rmonda Shoshma. Sabr qil faqat Hademay sukunat qariga cho'kasan abad

Bu yerda asliyatdagi she'r olti qatordan tashkil topgan. Tarjimada ham shakl saqlangan holda olti qator bo'lib tarjima qilingan. Ammo so'zlar soni sezilmas darajada o'zgargan. Asliyatdagi she'rning so'zlari yigirma to'rtta bo'lsa, tarjimada



yigirma uchta soʻz bilan berilgan. Bu yerda maʼno saqlangan, soʻzlar tushib qolmagan va tartib asliyatdagidek berilgan.

Sheʼriy asarni oʻzbek tilidan nemis tiliga yoki nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida ham nemis-oʻzbek sheʼriyati xususiyati, qonun-qoidalariga amal qilinadi hamda qofiyalarning tabiiy, jarangdor, hamohanglari tanlanadi. Tarjimonning mahorati sheʼr qofiyalarning qanchalik mazmunga mutanosib tanlanganligi va qayta yaratilganligi bilan belgilanadi. Sheʼrni oʻqiyotgan oʻquvchi asarni tarjima asari deb emas, balki oʻzbek tilida yozilgan sheʼrdek qabul qilishi lozim. Shu yerda bir narsani alohida taʼkidlab oʻtish joiz. Oʻzbek kitobxonini oʻzbekcha asar oʻqishi bilan birga xorijiy shoir asarida bahramand boʻlayotganini his etishi lozim.

Umuman olganda, sheʼriy tarjima tarjimondan til bilish bilan bir qatorda, uning dunyoqarashi keng boʻlishini, ikki tilning sheʼr sistemalarini, sheʼr bilan bogʻliq anʼana (qofiya, radif, vazn, turoq, hijoni qoʻllash xususiyatlari) hamda sheʼr yozish va tarjima qilish sohasidagi yangiliklardan boxabar boʻlishini talab etadi.

Xulosa sifatida taʼkidlash joiz, lirik tarjima tarjimaning eng murakkab sohasidir. Tarjima jarayonida tarjimon son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladi. Bu kabi ishlarni bajarishning ijodiy faoliyati tufayli, mutarjimdan har bir muammoli holatga ijodiy yordamni talab qiladi. Asliyatga ijodiy munosabatda boʻlish tarjimada asosiy koʻzlangan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni koʻrsatib turibdiki, tarjimani sanʼat darajasiga koʻtarish uchun avvalo, adabiyotni, sheʼriyatni ixlos, muhabbat, fidoiylik bilan bilish va sevish kerak. Shundagina tarjima asliyatdagidek nuqsonsiz tarjima qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻllanma. Toshkent: Tafakkur-Boʻstoni, 2012. – 216 b.
2. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (oʻquv qoʻllanma)-Toshkent: 2012. 68-b
3. Odilova G. Sheʼriy tarjima koʻngil ishi. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi 2013-yil 2-soni.



BADIIY GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA GIMNASTIKACHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TEXNOLOGIYALARI

Temurbek Abdullayev Ulug‘bekovich

Turkiston innovatsiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy, psixologik, texnik, taktik, nazariy va integral harakatlar,

Annotation: This article gives you a brief overview on how to organize gymnastics classes for the younger generation.

Keywords: Physical, psychological, technical, tactical, theoretical and integral actions.

Yosh avlodning jismoniy tarbiyasi ta‘lim - tarbiya tizimining tarkibiy qismini tashkil qilib, o‘quvchi va talabalarning har tomonlama jismoniy va ruhiy fazilatlarini tarbiyalash, ularni hayot, mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlash, o‘zida ma‘naviy boylik, axloqiy poklik va jismoniy kamolotlikni mujassamlashtirgan yangi kishini shakllantirish kabi oliyjanob maqsad uchun xizmat qiladi.

Badiiy gimnastika – sportning murakkab koordinatsiyali turidir. Uning o‘ziga xosligi kompozitsiyada birlashadigan erkin xarakterdagi ko‘pgina murakkab texnik harakatlarni bajarganda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda bu sport turning rivojlanishi uchun sportchilarni yoshartirish, mashqlarni murakkablashtirish, xalqaro musobaqa ishtirokchilarini ko‘paytirish, raqiblar bilan keskin kurash olib borish va shu bilan birga olimpiya dasturiga kiritilish tendensiyasi juda muhimdir. Badiiy gimnastikani rivojlantirishning zamonaviy g‘oyasini hisobga olib musobaqa qoidasiga katta e‘tibor berilmoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun gimnastikachi harakat imkoniyatlarining murakkab asosi, shu bilan birga bolaligidan musiqa va xoreografik qobiliyatga asoslangan estetik his tuyg‘uga ega bo‘lishi kerak.

Badiiy gimnastika maxsus harakat sifatlarini rivojlantirish jarayoni ko‘p yillik faoliyatni o‘ziga aks ettiradi va har bir trenirovka mashg‘ulotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur ishda yosh bolalar mashg‘ulotida foydalanish mumkin bo‘lgan mashqlar ketma ketligi bayon etilgan va ularni o‘tkazish uchun asosiy uslubiy ko‘rsatma berilgan. Uslubiy qo‘llanmada bolalarga yaxshi kayfiyat ulashuvchi, ularga yaxshi tanish va sevimli bo‘lgan musiqiy asarlar ro‘yxati keltirilgan. Keltirilgan

mashqlarning turli tumanligi va ularning har xil murakkab koordinatsiyaliligidan namuna sifatida foydalanilsa, berilgan vazifaga ko'ra mashqlar majmuasi hamda mashg'ulot mazmunini tuzishga va ijodiy tanlovga yordam beradi.

Badiiy gimnastikada zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish. Estetik sifatlarni rivojlantirish (musiqiylik, raqqosalik, ifodalay olish va artistlik mahorati). Sport tayyorgarligida ushbu turlarni qayd etib, jismoniy, psixologik, texnik, taktik, nazariy va integral harakatlar kiradi. Jismoniy tayyorgarlik umumiy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga, gimnastikaga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni kuchaytirishga, tayanch nuqtasini topa bilish qobiliyatini shakllantirishga, harakatdagi buyumga tezlik bilan javob bera olish va buyumning tushish nuqtasini oldindan aniqlay olish qobiliyatini shakllantirishga, o'rgatish jarayonini yanada murakkab qilib, o'quvchiga yuklamani kuchaytirishga qaratilgan.

Texnik tayyorgarlikda quyidagi turlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim:

- buyumsiz mashq bajarish uslubini o'rgatish;

- buyum bilan mashq bajarish uslubini o'rgatish; - xoreografik ta'lim berish, ya'ni klassik, tarixiy, xalq va zamonaviy raqs elementlarini bajarishni o'rgatish. Musiqiy harakatlarni, ya'ni musiqa va harakatlar yordamida musobaqalarga o'z dasturlarini tayyorlashni o'rgatish.

Texnik tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) kerakli harakat potensialini ta'minlovchi bazaviy mashqlar, elementlar, fazalar, tananing ayrim a'zolarining harakati, to'g'ri yurish, qomatni to'g'ri ushlash;

b) musobaqa mashqlari tarkibiga kirgan mashqlar va erkin konbinatsiyalar - bu bosqichga oldindan aniqlangan, harakat qobiliyatiga ega bo'lganlar kiradi. O'rgatish davrida mashqlarning alohida elementlarining ketma-ketligini aniq bajarish lozim. Maxsus mashqlar ifodali bajarilishi kerak. Harakat tajribasiga ega bo'lganidan so'ng bolalarga maxsus mashqlarning yangi variantlari taklif etiladi. Albatta, bunda bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqish kerak;

d) sportchining mahoratini o'stiruvchi yordamchi mashqlar, bunda uning yoshining ahamiyati yo'q. Yordamchi mashqlar yordamida shug'ullanuvchining harakat va psixik sifatlari rivojlanadi, bu esa individual usulning aniq, to'liq namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqaviy-ritmik ta'lim; egiluvchanlikni shakllantiruvchi siltash-sust mashqlar. Erta o'rgatish jarayonida aniq harakat ko'nikmalariga katta ahamiyat beriladi. Shug'ullanuvchilar obrazli tasavvur qilish va taqlid qilishdan faol foydalanish bilan birga, tasavvurni ko'rsata olishga o'tish zarur. Bu aqliy faoliyatni va o'rgatish jarayonini tezlashtiradi. Shug'ullanuvchilarni o'rgatishda tushuntirish, ko'rsatish,



aniq atamalar, baholash usullari keng foydalaniladi, bu esa shug‘ullanayotganlarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradigan mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Harakat ko‘nikmalarini mustahkamlashi va “bajarish va xato qilish” usullarini bajarishi bosqichida albatta, dasturiy o‘qitish uslubi bilan to‘ldirish zarur. Bu esa, berilgan namuna bo‘yicha shug‘ullanuvchining o‘z modelining harakatlarini shakllanishiga yordam beradi. O‘qitish vaqtida boshqa usullardan ham ratsional tarzda foydalanish kerak. Chunki, talaba va o‘quvchi qizlarni murakkab bo‘lmagan mashqlarga o‘rgatishda hamma usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy gimnastika o‘z navbatida, ertalabki gimnastika, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika kabi bir qator yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ertalabgi gimnastika mashqlarini bajarish talaba o‘quvchini qomatini to‘g‘ri rivojlanishi, nafas olishi, qon aylanishiga yordam beradi. Talaba o‘quvchilar diqqatini, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatining oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. Badiiy gimnastika talaba o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish irodalilik, sabrlilik muvafaqqiyatli hal qilish uchun harakatli o‘yin uslubiga ega bo‘lib, bugungi kunda talaba o‘quvchilarning uyg‘un rivojlanishi uchun muhim sohalardan biri sanaladi. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘rganish uslubularini o‘rgatishning harakat malakalari va maxsus bilimlarni egallashga qaratilgan. O‘rganish jarayoni bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘quvchilar bilan birgalikda ijodiy faoliyatda bo‘lishi yetakchi rol o‘ynaydi. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish 3 qismga bo‘linadi:

1. Daslabki o‘rgatish

2. Mukammal o‘rgatish

3. Mustahkamlash va takomillashtirish. Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yassioyoqlikni oldini olish, skolioz, tayanch harakat tizimini to‘g‘ri shakllanishida universal vosita hisoblanadi. Mashg‘ulotni faqat kunning birinchi yarmida emas, balki ikkinchi yarmida ham o‘tkazish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, kechki vaqtlarda ham oila bilan olib borilishi organizmning mehnat jarayonida asosiy yuklama tushadigan organlari va tizimlari faolligini oshirishga yordam beradi. Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika majmualarida quyidagi jismoniy mashq guruhlari qo‘llanadi: kerishish (cho‘zilish), yon tomonga egilishlar, o‘tirib turishlar, cho‘zilishlar, sakrashlar, sport yurishi, yugurish, oldinga egilish, bo‘shashish.

Badiiy gimnastikada mehnat jarayonida bajariladigan harakatlar xususiyatiga mos jismoniy mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun mashqlarni



tanlashda mehnat jarayoni harakatlarini yaxshi o'rganish va jismoniy tarbiya mashqlari majmuasiga shunday mashqlarni kiritish kerakki, ular organizmning aniq mehnat turi jarayonida yetakchi rol o'ynaydigan fiziologik funksiyalarini tezlashtirishga yordam bersin. Xulosa qilib gimnastika mashqlari bilan shug'illanishda nafaqat talaba o'quvchilar, balki biz katta yoshli kishilar ham o'z faolligimizni oshirgan holda jismoniy mashqlarni muntazam bajarib turmog'imiz shart va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Yefemenko. Gimnastika. T., O'zDJTI, 1980.
2. В.Смолевский. Гимнастика и методика преподавания. М., "FiS", 1987.
3. И. Гуревич. Упражнения для моделирования круговой тренировки. Минск, "Полымя", 1990.
4. Azimov. Sport fiziologiyasi. T., O'zDJTI, 1993.
5. M. Karimov. O'zbekistonda gimnastika. T., O'zDJTI, 1999.
6. V.V. Voropaev, S.A. Pushkin. Kratkiy kurs gimnastiki. M., «Sovetskiy sport», 2008.
7. M.L. Juravin, N.K. Menshikova. Gimnastika. M., «Akademiya», 2009. ‘



O'ZBEK RAQSINING QIYOFASI

Roziy Abujabborova Sharofiddin qizi

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali talabasi

Annotatsiya: shbu maqolada o'zbek milliy raqs san'ati tarixi, rivojlanishi, raqs san'ati maktablari va o'zbek milliy raqsining yetuk namoyondalari shuningdek, hududlaro milliy ijro uslublarning o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: raqs, harakatlar, mayishiy hayot, raqs maktablari, "Tanavor", "Munojot", "Katta o'yin", "Bahor", "Pilla", "Paxta", "Lazgi" raqslari.

Annotation: this article provides brief information about the history and development of Uzbek national dance art, schools of dance art and mature manifestations of Uzbek national dance, as well as specific features of regional national performance styles.

Keywords: dance, movements, domestic life, dance schools, dances "Tanavor", "Munojot", "Katta Oyin", "Bahor", "Pilla", "Pakhta", "Lazgi".

Raqs inson paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan ijtimoiy hodisalardan biridir. Dastlab raqs orqali insoniyatning mehnat jarayonlari, hayvonlarning harakatlari ijro etib yurilgan. Raqs gavdaning boshlang'ich holatidan ritmik gavda harakatlari turkumi bilan yakuniy holatga o'tish orqali vujudga keladi. Haqiqiy san'at mehnatdan toliqqan insonga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat, tetiklik, xushchaqchaqlik, hayotga, yashashga bo'lgan intilishlariga qanot bag'ishlagan. O'zbekiston diyorida yashagan xalqlar orasida raqs san'ati turmush sharoitlari, diniy marosimlar, bayramlar bilan bog'lik holda qadimdan taraqqiy etgan. Yurtimizdan topilgan qadimiy manbalar - qoyatosh rasmlari, arxeologik qazilmalar, amaliy bezak san'ati namunalarida va boshqa turli tasvirlar qatorida raqs tushayotgan qiyofalar, diniy mifologik lavhalar, sayil va muhim marosimlar aks ettirilgani bu san'at turining tarixi naqadar chuqur ildizga ega ekanligidan dalolat beradi.

Qadimiy raqs turmushdagi va mehnatdagi biror harakatga, chaqqonlik va chidamlilikka o'rgatuvchi jismoniy mashg'ulot turning bir ko'rinishidir. Raqsning bu xususiyati inson hayot tarzi davomida uzoq vaqt saqlanib kelgan. Mahalliy xalqlarda ham boshqa xalqlardagi kabi raqs ovchilar pantomimalari va g'oliblarning tantanasini ifodalovchi o'yinlarda shakllana borgan. Keyinroq esa ko'tarinki ruhiyatni kishilar



sirli kuchlar bilan bog‘liq deb tushunib, ularga tenglashish maqsadida quvvatni sun‘iy ravishda o‘stirishga harakat qila boshlaganlar.

“O‘zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida turli bayram va marosimlar bilan bog‘liq holda an‘anaviy va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to‘ldirgan va bir-biriga ta‘sir ko‘rsatgan holda muayyan bosqichlarni bosib o‘tdi”¹³.

O‘tgan XX asrning dastlabki, 20 yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy parokandalik, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, mustamlakachilik siyosati, xalq hayotidagi turli o‘zgarishlar, shu yillar mobaynida jamiyatning barcha jabhalaridagi shiddatli jarayonlar, albatta, madaniyat va san‘at sohasiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Jamiyat hayotidagi mana shunday o‘zgarishlar xalq madaniy hayotiga ayniqsa, raqs san‘atining nodir namunalari yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi. XX asrda mamlakatimizga professional teatr san‘ati kirib keldi. Uzoq asrlar davomida maishiy hayot, diniy urf-odatlar zamirida paydo bo‘lgan raqs san‘ati ustoz san‘atkorlar, raqqos va raqqosalar, keng xalq ommasi tomonidan xalq bayramlari, ommaviy tomoshalari, to‘y va marosimlarida ijro etilib, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib keldi. XX asr sahna madaniyatining paydo bo‘lishi xalq raqslarining professional sahnaviy raqs sifatida qaytadan yaralishiga, ansambllar faoliyatining shakllanishiga turtki bo‘ldi. XX asrning 30 yillaridan boshlab raqs san‘ati namunalari sifatida o‘rganila boshlandi. Ayni XX asrda o‘zbek teatr san‘atidagi o‘zgarishlar raqs san‘atining taraqqiyotiga ham ulkan ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada qisqa vaqt ichida professional o‘zbek milliy raqs san‘ati paydo bo‘ldi va o‘zining maktabiga ega bo‘ldi. Shu bois, bugun o‘zbek raqs san‘atida o‘ziga xos, o‘z uslubiga ega bo‘lgan Xorazm, Buxoro, Farg‘ona raqs maktablari tan olingan. O‘zbek raqsining har bir maktabida o‘ziga xos shakl ketma-ketligi, kuy va ohang, imo-ishoralar, harakat holatlarini farqlanishi sezilib turadi.

Professional raqqos va raqqosalar raqs sir-asrorlarini uzoq yillar davomida o‘rganadi. Raqsning eng sodda texnikasini egallagach, uni ijro qilayotganda usulga tushish, qoidaga kirib qolgan shakllarni eslab qolish talab qilinadi. Raqsni o‘rganish nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni egallashni ham taqozo etadi. “Qomatni tutish” va “mushaklar kuchini taqsimlash” kabilardagi o‘ziga xoslik ham o‘zbek an‘anaviy raqsi uch mumtoz maktabining har biri betakror ekanligini ko‘rsatadi. Yevropacha mumtoz raqsining dastlabki holatida qomat adl tutilib, oyoqlar mushagi, tizza tarang, yelkalar erkin, yelka tushirilgan, bel tekis, qo‘llar mushagi tirsakdan xiyol egilgan bo‘ladi.

¹³O‘.Muxamedova “O‘zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti” – 34-b



Farg'onacha raqsdagi ham oyoq mushaklari tovondan belga tarang tutiladi. Lekin bel mushaklari bir oz bo'sh qo'yilib, oyoqlar xiyol bukiladi. Asta qadam qo'yilib, yengil o'tiriladi, tizza o'z o'rniga keladi. Oyoqlarning yengil egilishi tufayli mumtoz raqsdagi kabi kontrapunkt chizig'i belning kichik markaziy qismiga emas, yelka mushaklari bo'ksaga bosim o'tkazadi. Qo'llar yo erkin yoki yig'ilgan vaziyatda bo'ladi. Farg'onacha raqsdagi qo'llar "cho'zilgan" bo'lib, ular o'simlik dunyosining badiiy ifodasiga aylanadi. Ya'ni barglar va maysalarning shamolda yengil tebranishini ifodalaydi. Xorazmcha raqslarda esa oyoqlar mushagi kuchi boldirdan tizzaga yo'lantirilib, tizzalar bukiladi. To'qnashuv chiziqlari bel, bo'ksa, tizzalar o'rtasida o'zgarib turadi. Yelka bir oz pastga osilib turadi. Qo'llar ham erkin qo'yilib, panjalar doim nafis harakatlantiriladi. Ularning nozik titrashini ko'rsatish uchun ko'p mashq qilishga to'g'ri keladi. Xorazm raqslari o'simlik dunyosini emas, balki jonzoqlar dunyosini o'zida aks ettiradi. Undagi harakatlarda qushning parvozi, otning chopishi, kaklikning yo'rtishi kabilarni anglash mumkin. Xorazmcha raqsdagi tananing ayrim harakatlari, undagi murakkab raqs lisoni hayvonot dunyosi hayotini ifodalaydi. Unda makon to'la egallanadi, qomat xuddi uchayotgandek, qo'llar goh keskin, goh nozik harakat qiladi. Xorazmcha raqsdagi keskin o'tirib-turish, sakrash ko'p. Unda ko'krak mushaklari ko'p bora silkinadi. Buxorocha raqsdagi qomatning yelkadan pastki qismi erkin qo'yiladi. Tana harakati davomli va sirli. Uni bajarishda mushaklar kuchi yo'nalishini o'ziga xos tarzda tashkil qilish talab etiladi. Bel qismi orqaga turtib turadi (ispancha raqsdagi kabi). Bu qo'llarning erkin, shiddatli harakat qilishiga yordam beradi. Oyoqlar yarim o'tirish, yarim aylanishga tayyor turadi. Shu asosda oyoqlarning to'la burilishiga imkon yaratiladi. Buxorocha raqslarda farg'onachadagi kabi qo'llar cho'zilmaydi. Ularda tirsaklar qattiq bukilgan holatda bo'lib, panjalar harakati quruqroq chiqadi. Harakatlar va panjalarni qarsillatish musiqaga mos keladi. Qomat adl, sho'xchan, qadamlar esa oddiy bo'ladi.

O'zbek xalq sahnaviy raqsining shakllanishi birinchi galda Asqar hoji Xaydaraliyevning XX asr boshida faoliyat ko'rsatgan ansambli va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Hamdamxon Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905-yilda esa Kavkazorti mamlakatlarida o'zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'nilishni boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isaxor Oqilov, Gavhar Raximova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o'nlab raqs ustalarining, "Bahor", "Shodlik", "Lazgi" kabi ansambllarning xizmati katta. Baletmeysterlar va bastakorlarning say-harakati bilan o'nlab yakka tartibda ijro



etiladigan o‘yinlar, duetlar, ommaviy raqslar mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o‘zbek raqs san’ati zahirasidan joy oldi. “Tanavor”, “Munojot”, “Katta o‘yin”, “Bahor”, “Pilla”, “Paxta”, “Lazgi”, “Dilxiroj”, “Cho‘pon o‘yin”, “Namanganning olmasi”, “Andijon polkasi” va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodi kamolga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Avdeyeva. “O‘zbek Milliy raqsi tarixidan” –Toshkent. 2001 y.
2. R.Karimova. “O‘zbek raqslari” – Toshkent. 2003 y.
3. E.Saitova. “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti” – Toshkent 2016 y.
4. O‘.Muxamedova “O‘zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti” – T.2020 y.
5. Sh.Jalilova.“O‘zbek raqsini o‘qitish uslubiyoti” O‘quv qo‘llanma – T.2020 y.

DETERMINANTNI HISOBLASH USULLARI

Dilnavoz Quchqarova Shaymaxammat qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

quchqarovadilnavoz@gmail.com**Mohirabonu Rahmonaliyeva**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Bu ishda determinantni hisoblashning saryyus, uchburchak, bosh diogonalga keltirish va minorlar usullari ko'rib o'tilgan va shu usullarda bir necha misollar ishlanishi keltirilgan. Biz bu ishda [3] va [4] adabiyotdagi misollardan foydalandik.

Kalit so'zlar: determinant, saryyus usuli, minor usuli, bosh diogonal.

Biz determinantni hisoblashni uchburchak, saryyus, minor, bosh diogonalga keltirish usullarini bilamiz va shu usullar yordamida bir necha misollarni ishlab namuna tariqasida ko'rib o'tamiz.

1-misol. Determinantni hisoblang.

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 2 & -1 & 3 \\ 4 & 0 & -1 \end{vmatrix}$$

Yechishda har bir usulda ishlanishini va ishlanish usullarining kamchiliklari va yutuqlarini ko'rib o'tamiz. Avval determinantni uchburchak usulida ishlab ko'raylik

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 2 & -1 & 3 \\ 4 & 0 & -1 \end{vmatrix} = (1 \cdot (-1) \cdot (-1) + 2 \cdot 3 \cdot 4 + 2 \cdot 0 \cdot 4) - (4 \cdot (-1) \cdot 4 + 3 \cdot 0 \cdot 1 + 2 \cdot 2 \cdot (-1)) = \\ = (1 + 24 + 0) - (-16 + 0 - 4) = 25 + 20 = 45$$

Saryyus usuli, bu usulda biror satr yoki ustunni parallel ko'chirib olish orqali ishlanadi.

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 1 & 2 \\ 2 & -1 & 3 & 2 & -1 \\ 4 & 0 & -1 & 4 & 0 \end{vmatrix} = 1 \cdot (-1) \cdot (-1) + 2 \cdot 3 \cdot 4 + 4 \cdot 2 \cdot 0 - 4 \cdot (-1) \cdot 4 - 1 \cdot 3 \cdot 0 - \\ - 2 \cdot 2 \cdot (-1) = 1 + 24 + 0 + 16 - 0 + 4 = 45$$

Minorlar usulida biror satr yoki biror ustun yordamida hisoblanadi. Hozir ko'radigan misolda 1-ustun bo'yicha ishlangan.

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 2 & -1 & 3 \\ 4 & 0 & -1 \end{vmatrix} = 1 \cdot (-1)^{1+1} \cdot \begin{vmatrix} -1 & 3 \\ 0 & -1 \end{vmatrix} + 2 \cdot (-1)^{2+1} \cdot \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ 0 & -1 \end{vmatrix} + 4 \cdot (-1)^{3+1} \cdot \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ -1 & 3 \end{vmatrix} = \\ = 1 \cdot 1 \cdot (1-0) + 2 \cdot (-1) \cdot (-2+0) + 4 \cdot 1 \cdot (6+4) = 1+4+40=45$$

3-usul: bosh dioganalga keltirish usulida 1 satr elementlarini -2 ga ko'paytirib 2-satrga qo'shamiz, 3-satrga esa -4ni ko'paytirib qo'shamiz. Natijadagi 2-satrni -8/5 ga ko'paytirib qo'shsak bosh dioganaldan pastki qismi nolga aylanadi, bosh diogonal elementlarini ko'paytirib qo'ysak javob yuqoridagi usullar bilan bir xil chiqadi

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 2 & -1 & 3 \\ 4 & 0 & -1 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 0 & -5 & -5 \\ 0 & -8 & -17 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 0 & -5 & -5 \\ 0 & 0 & -9 \end{vmatrix} = 45$$

2-misol. Determinantni hisoblang.

$$\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & -2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}$$

Sarryus usuli. $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 & 2 & 3 \\ 5 & -2 & 1 & 5 & -2 \\ 1 & 2 & 3 & 1 & 2 \end{vmatrix} = 2 \cdot (-2) \cdot 3 + 3 \cdot 1 \cdot 1 + 4 \cdot 5 \cdot 2 - 4 \cdot (-2) \cdot 1 - 2 \cdot 1 \cdot 2 - 3 \cdot 5 \cdot 3 = \\ = -12 + 3 + 40 + 8 - 4 - 45 = -10$

Minorlar usuli. $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & -2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix} = 2 \cdot (-1)^{1+1} \cdot \begin{vmatrix} -2 & 1 \\ 2 & 3 \end{vmatrix} + 5 \cdot (-1)^{2+1} \cdot \begin{vmatrix} 3 & 4 \\ 2 & 3 \end{vmatrix} + \\ + 1 \cdot (-1)^{3+1} \cdot \begin{vmatrix} 3 & 4 \\ -2 & 1 \end{vmatrix} = 2 \cdot 1 \cdot (-6-2) + 5 \cdot (-1) \cdot (9-8) + 1 \cdot 1 \cdot (3+8) = \\ = -16 - 5 + 11 = -10$

3-misol. $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 \\ 8 & 6 & 3 \\ 4 & 7 & 4 \end{vmatrix}$

Sarryus usuli. $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 & 1 & 3 \\ 8 & 6 & 3 & 8 & 6 \\ 4 & 7 & 4 & 4 & 7 \end{vmatrix} = 1 \cdot 6 \cdot 4 + 3 \cdot 3 \cdot 4 + 2 \cdot 8 \cdot 7 - 2 \cdot 6 \cdot 4 - 3 \cdot 3 \cdot 8 - 3 \cdot 8 \cdot 7 = \\ = 24 + 36 + 112 - 48 - 21 - 96 = 7$

Minorlar usuli. $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 \\ 8 & 6 & 3 \\ 4 & 7 & 4 \end{vmatrix} = 1 \cdot (-1)^{1+1} \cdot \begin{vmatrix} 6 & 3 \\ 7 & 4 \end{vmatrix} + 8 \cdot (-1)^{2+1} \cdot \begin{vmatrix} 3 & 2 \\ 7 & 4 \end{vmatrix} + \\ + 4 \cdot (-1)^{3+1} \cdot \begin{vmatrix} 3 & 2 \\ 6 & 3 \end{vmatrix} = 1 \cdot 1 \cdot (24-21) + 8 \cdot (-1) \cdot (12-14) + 4 \cdot 1 \cdot (9-12) = \\ = 3 + 16 - 12 = 7$

Xulosa: yuqoridagi usullarning qaysida hisoblashingizdan qat'iy nazar javob bir xil chiqadi.



Endi saryyus usulida hisoblash yuqori tartibli determinantlarni ishlashga qoʻllanmaydi, Minor usuli ham yuqori tartibini ishlaganimizda tartibini pasaytirib ishlaganimiz bilan juda koʻp ish talab qiladi, bosh diogonalga keltirish usuli qulay va vaqt kam sarflanadigan usul.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.I.Yunusova, A.S.Yunusov. Algebra va sonlar nazariyasi. T-2009. 32-b;
2. Baʼzi olimpiada masalalarini yechimda funksiyaning tadbirlari. Q Dilnavoz - Innovative developments and research in ..., 2023;
3. Kvadratik formalarni kanonik (normal) shaklga keltirish usullari. Q.Dilnavoz Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida konferensiya 232-bet ,2023.
4. Spatial thinking of students technology of using the geogebra mathematical package in forming (example of bodies of rotation) Kuchkarova Dilnavaz Sh-Galaxy international interdisciplinary research journal(GIIRJ), 668-671bet,2023may

AMIR TEMUR DAVLATIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMI

Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz davlatchiligi tarixidagi eng buyuk saltanat asoschisi va hukmdori- Amir Temur tomonidan tashkil etilgan mahalliy boshqaruv tizimi, uning ishlash prinsipi, mansablar va ularning o‘ziga xosliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, saltanat, qishloq, mahalliy boshqaruv tizimi, kadxudo, kalontar, mirzo, munshiy, suyurg‘ol, jarchi, adolat uyi, hokim, amir, kutvol, ming chopar.

XIV asrning 70-yillariga kelganda Amir Temur tomonidan mustaqil markazlashgan davlatga asos solindi. Endi Amir Temur oldida hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab masalalar turar edi. Ana shunday muhim masalalardan biri- yangi tashkil etilgan davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlay oladigan markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini yaratish va uni mamlakat hududida qat‘iylik bilan joriy qilish edi.

Amir Temur tomonidan ushbu vazifa qay tariqa bajarilgani hamda uning natijalari haqida ushbu maqolada fikr yuritimiz.

Asosiy qism: Amir Temur markazlashgan davlat tuzishidan avval ham undagi mardlik, shijoat, aql-zakovatni ko‘rgan ko‘plab insonlar uning buyuk kelajagidan bashorat qilishgan. Jumladan, Amir Sayyid Kulol kengashlardan birida Amir Temurga o‘zida ramziy ma‘no ifodalovchi yetti kulcha beradi. Bu kulchalarga Bahouddin Naqshband quyidagicha ta‘rif beradi:

“Temurbek, -dedi u, -qo‘lingdagi yetti kulcha- bu yetti iqlim, uning ustidagi talqon- unib o‘sadigan avlod, mayizlar esa toj-u taxt belgisi”[1].

Sohibqiron Amir Temur o‘z zamonasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo‘lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta‘minlash nazarda tutilgan edi[2].

Amir Temur shunday kuchli hamda o‘zaro bog‘liq fuqaroviy va harbiy bir ma‘muriyat tuzdikim, u hukmdor uzoq muddatli safarga ketganida ham samarali faoliyat ko‘rsata boshladi. Bir guruh adiblardan iborat kotibiyat (rasmiy yozma til

fors tili bo‘lib) uning ko‘rsatmalariga muntazir turar, barcha voqealarni ro‘yxatga olar, viloyatlar va chet ellar bilan yozishmalarga javob berar va mavjud ma‘lumotlar asosida yangilanib boradigan hujjatlar markazi ishini yuritishardi. Ulug‘ amir narxnavo va ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxini tekshirib borar hamda hunarmandlar uyushmalarining unumli ishlashiga homiylik qilardi. U yo‘lovchilarning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida butun Movarounnahrda yuk tashish va pochta xizmatini yaxshi yo‘lga qo‘ydi[3].

Mahalliy boshqaruv haqida so‘z ketsa, avval shuni qayd etish kerakki, saltanatning odatda hukmron sulola namoyondalari va shu xonadon tayanchi bo‘lmish harbiy-siyosiy kuchlar yordamida idora etilishini ko‘p bora ko‘rdik[4].

Alohida ko‘rsatgan xizmatlari uchun yirik amaldorlar, harbiylar, din peshvolari hamda bo‘ysundirilgan sobiq hukmdorlarga shaxsiy xizmati va sharoitga muvofiq ravishda biron hudud (viloyat, shahar, tuman) suyurg‘ol qilingan. Masalan, Amir Temur o‘z piri Sayyid Barakaga Andxundni tortiq qilgan.

Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o‘lkalarni o‘g‘illari, nabiralari va xizmat ko‘rsatgan amirlarga suyurg‘ol tarzida in‘om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrda tashqari barcha viloyat va mamlakatlarni o‘g‘il va nabiralari orasida quyidagicha taqsimladi: Ozarbayjon, G‘arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni Mirzo Umar ibn Mironshohga, Forsni Pirmuhammad ibn Umarshayxga, Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni Shohruh Mirzoga, Sulton Mahmud G‘aznaviy mulkini Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga Pirmuhammad Jahongirga, Toshkent, Sayram, O‘ror va Ashparadan to Xitoy chegarasigacha Ulug‘bekka, Farg‘ona, Tarozdan to Xo‘tangacha, ya‘ni Sharqiy Turkistonning janubi-g‘arbini Ibrohim sultonga bergan[5]. Bundan tashqari ko‘plab amirlar, amaldorlarga davlat oldidagi xizmatlariga qarab mulklar in‘om qilingan.

Ushbu mulklar hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo‘shini bo‘lib, ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur bo‘ysundirilgan mamlakatlarni boshqarish haqida “Temur tuzuklari” da shunday degan: “Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobir va ashroflarni aziz tutsinlar. Kadxudolar, kalontarlar, dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni (mo‘zorion) ko‘nglini xushnud etib, o‘zlariga qaratsinlar. Raiyatni umid va qo‘rqinch orasida saqlasinlar. Gunohlari va qilmishlariga yarasha jarima solsinlar. Menga bo‘ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari,



fozil kishilari, darveshlari, xilvatda o‘tiruvchi (zohidlar)ni suyurg‘ol, vazifa va maosh (nafaqa) bilan siylasinlar. Faqir-u miskin, biron kasb qilishga ojiz shol-ko‘rlarga nafaqa belgilasinlar. Mudarrislar va shayxlariga biron vazifa bersinlar”[6]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur qo‘lga kiritilgan mamlakatlardagi noroziliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun mahalliy aholi uchun manfaatli bo‘lgan boshqaruv tartibi shakllantirgan.

Amir Temur mamlakati ma‘muriy jihatdan ulus, viloyat va tumanlarga bo‘linib, ularni hokim, noib va tumanboshilar boshqarishgan. Ularning aksariyati harbiy mansabdor- amirlardan iborat edi. har bir shahar va viloyatda o‘z hokimi, moliya devoni, qozisi, muftiysi, mutavallisi va muhtasibi (moliyaga xilof ishlarni tekshiruvchi) bo‘lgan. Lashkarlar uchun maxsus qozi tayin etilgan[7].

Shuningdek, har bir shahar va qishloqda kutvol, ya‘ni komendant tayinlanib, unga shahar va qal‘a istehkomlarini ta‘mirlash va shahar mudofaasi vazifalari yuklangan. Shunhasiz, mahalliy ma‘murlar, o‘z navbatida, saltanatning oliy devoni-arkoni davlatga bo‘ysunishgan.

Amir Temur hayotligida kuch bilan ushlab turilgan mahalliy hokimliklar uning vafoti bilan mustaqillikka intildi. Bu jarayonda suyurg‘ol tizimi tarqoqlikning kuchayishiga ta‘sir o‘tkazgan bosh omillardan biri bo‘lib qoldi. Amir Temur davlatida suyurg‘ol yerlar dastlab o‘zining yaxshi samarasini bergan bo‘lsa-da, ammo u orqali alohida davlatlarning ajralib chiqib ketishiga imkon yaratilgandi[8].

Sohibqiron davlat ishlarida toblangan, sadoqatli, tadbirkor, olim kishilarni o‘z o‘g‘illariga maslahatchi qilib tayinlagan va ular orqali hududlarda boshqaruvning xolisligini ta‘minlamoqchi bo‘lgan. Mahalliy hokimliklarni o‘ziga itoat etuvchi davlat maslahatchilari orqali ham nazorat qilgan.

Davlat nohiya- okruglarga, o‘n mingliklar- tumanlar, mingliklar- xazoralar, yuzliklar- sadalar, o‘nliklar- dahalarga bo‘lingan.

Ming chopar- xabargirlar orqali poytaxtga axborot berilgan. Ular davlat sarhadlarida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida muttasil xabar yuborib turgan. Bu usul kamchiliklarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Yolg‘on xabar yozganlarning barmoqlari, tuxmat xabar yozganlarning boshi kesilgan. Sohibqironning 27 davlatni birlashtirgan yirik saltanatidagi doimiy kuzatuv hamda o‘zaro xabar almashinuv jarayoni butun mamalakat bo‘ylab adolatli tizimning qaror topishiga xizmat qilgan. Amir Temurning amr-farmonlari ham xabargirlar, jarchilar orqali mahalliy hokimlarga yetkazilgan.

Boshqaruvda mahalliy erkin jamoalar va mahalla oqsoqollari katta rol o‘ynagan. Amir Temur boshqaruvdagi milliy urf-odatlarini inobatga olib soliqlar yig‘ish,



mahallalarning farovonligini ta'minlash, moddiy ta'minot va boshqa masalalarda jamoa hamda uni boshqargan mahalla oqsoqollarining mustaqil fikrlarini inobatga olgan. Hatto o'zi zabt etgan hududlar ma'murlarini ham xalq fikrini inobatga olgan holda mahalliy aholi orasidan saylagan.

Qonunchilik tizimida hamma hududlar uchun bir xil qonun amalda bo'lsa-da, milliy hududlar bosib olingan yerlarga nisbatan ko'proq vakolatlarga ega bo'lgan. Bu tizim asriy an'analar natijasi edi.

Amir Temur davrida har bir viloyat va katta shaharlarda adolat uyi tashkil etilgan. U asosan davlatga, boshqarish tartibiga qarshi va mansabdorlik jinoyatlarini tahlil qilib, tegishli chora-tadbirlarni ko'rgan. Fuqarolarning shikoyatlari va talablarini to'g'ri yo'sinda hal etishga juda katta e'tibor qaratilgan.

Arz-shikoyatlar va ularning natijalari mirzolar tomonidan ro'yxatga olingan, tez-tez markaziy va mahalliy hokimiyat tomonidan o'tkazilgan taftish, so'roqlar, shuningdek, choparlarning ma'lumotlari orqali markazda joylardagi ahvol nazorat qilib turilgan.

Amir Temur davlatida idora etish tashkilotlarining ixcham, oddiy, arzon va tezkorligi, ya'ni davlat boshqaruvining iqtisodiy jihatdan tejamkorligi tamoyiliga amal qilingan. Shuningdek, markazda chiqarilgan qarorlarning munshiylar tomonidan ko'chirilib, butun saltanat bo'ylab tezkor tarqatilishiga ham jiddiy e'tibor qaratilgan.

Xulosa: Amir Temur davlatida nafaqat markaziy boshqaruv tizimi, balki mahalliy boshqaruv tizimi ham tizimli va tartibli ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Chunki rivojlanayotgan va kengayayotgan saltanatni bir maromda va itoatda ushlab turish uchun to'g'ri tizimlashtirilgan markaziy va mahalliy boshqaruv sistemasini yaratish yagona yo'l edi. Bu jihatdan olib qaraganda Amir Temur hammasini to'g'ri yo'lga qo'ya oldi. Chunki u mahalliy boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik yoki nazorat qila olmaslik asta-sekinlik bilan boshboshdoqlik va tarqoqlikka olib kelishini yaxshi tushunar edi. Aynan shuning uchun ham u mahalliy boshqaruv tizimini doimiy o'z nazoratida ushlab turish uchun to'g'ridan-to'g'ri markazga bo'ysinuvchi mahalliy lavozimlarni joriy etdi hamda o'z vazifasini suiiste'mol qilish hamda amaldorlar xalq manfaatidan o'z manfaatlarini ustun qo'yishi holatlarida shafqatsiz jazolash usulini qo'lladi. Buning sababi shunda ediki, kuch va harbiy qudrat oliy o'rinda turgan o'rta asrlar sharoitida davlatni mustahkam ushlab turishni qattiqqo'l siyosat yurgizmay turib uddalash umuman imkonsiz edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарк, 2001. –Б. 183, 184.
2. Аъламов М. Амир Темур жахон тарихида. –Т.: Шарк, 1996. –Б. 65.
3. Ahmedov V. Temur tuzuklari. –Т.: Yoshlar, 2018. –В. 162.
4. Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. –Т.: Маънавият, 1999. –Б. 37.
5. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –Т.: Sharq, 2017. –В. 116.
6. Содиков Х. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. –Т.: Art flex, 2010. –Б. 19.
7. Улжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. –Т.: Akademnashr, 2017. –Б. 76-79.
8. О‘роқов D., Sharopov A. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. –Т.: Akademnashr, 2013. –В. 94.



ЭЛЕКТРОННЫЕ РЕСУРСЫ В ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРЕИМУЩЕСТВО И ПРОБЛЕМЫ

О.Юнусов

А.Абдувохидов

Андижанский государственный университет

Ш.Косимов

Андижанский государственный медицинский институт

Состояние уровня развития общества определяется уровнем подготовкой молодых кадров и знаний по данной специальности, а также по другим техническим направлениям. Это сегодня определяют общий уровень развития общества. Считается самым выгодным - вложение финансовых средств в сферу образования. С другой стороны, сегодня это наиболее выгодно, так как в будущем это определит получение экономической прибыли за счет повышения уровня молодого поколения специалистов. Это в будущем даст новый толчок для улучшения контента по учебным предметам. Основная проблема - малое количество источников на русском языке для студентов на русском языке преподавания.

Для получения высокого уровня знаний и необходимых качеств у молодых кадров проводится большая работа. Создаются условия для получения информации по своей специальности, осуществляется обмен специалистами и студентами, налаживается работа в области коммуникационных технологий [1, 2].

Практически все вопросы, касающиеся мониторинга, сбора и анализа информации, обмен информацией, проведение работ самообразованию, работа с одаренной частью молодых специалистов - осуществляются посредством использования информационных технологий.

Ознакомление с теорией процесса и практическое выполнение экспериментов наряду с обсуждением нужно проводить с применением использования комплексного подхода, т.е. анализировать теоретический материал с учетом знаний по математике, химии, физике и информационным технологиям [3]. Практическое осмысление и анализ учебного контента по физике можно использовать для самообразования. Самостоятельное осмысление процесса изучения материалов по физике дает широкое представление о теме по данному предмету. Электронные источники дают

широкое представление для процесса самообразования и лучшего понимания учебного материала.

Таблица 1
Информация об источниках на русском языке

Тема для изучения	Источник и его электронный адрес
Сервер	https://www.youtube.com/watch?v=bYBAvIHwac0
	https://www.youtube.com/watch?v=MQJlQz6t2uo
Работа с файлами	https://www.youtube.com/watch?v=gEC-2PjWuFU
Интернет	https://www.youtube.com/watch?v=rQPBT2dimSg
	https://www.youtube.com/watch?v=e_8S-GCQNV0
Компьютерная сеть	https://www.youtube.com/watch?v=h4gqcFUzUI8
	https://www.youtube.com/watch?v=2NjjmwMT4nY

Знание дополнительной информации при подготовке к лабораторным занятиям или по самообразованию даст новый уровень понимания данной темы. Учебный контент по предметам следует использовать в комплексном исполнении, т.е. электронные, печатные и новые видео материалы.




Рис.1. Элементы компьютерной коммуникации
А) Сервер и его устройство, Б) Структура компьютерной сети



При изучении информации по данной тематике необходимо отметить следующее:

- надо обратить внимание на зависимость усвоения от начального уровня понимания контент,
- учесть менталитет и степень знания русского языка,
- провести дополнительную работу по формированию навыков работы с электронными источниками.

Желательно хорошо было бы чтобы при подготовке по учебным предметам ознакомиться с другими источниками по учебным контентом по биологии, химии, математике, географии. Все это дает возможность создать комплексность освоения информации по учебным дисциплинам.

Комплексность учебного процесса, т.е. использование учебного материала по нескольким учебным предметам для понимания учебного контента дает положительное влияние на усвоение учебного материала. Потому что увеличивается срок и глубина понимания контента. Усвоение учебного контента позволяет более широко осмыслить теоретический материал по данному предмету. Другая сторона комплексного изучения учебного материала – более глубокий уровень понимания сущности учебного материала по сравнению с обычными источниками (печатными изданиями).

Широкое использование в учебном процессе всех видов источников (печатных, сканированных и на других языках) при обсуждении теоретического материала по учебному предмету и осуществлении работ по самообразованию (его объем составляет 25-50% от всей учебной нагрузки по предмету) позволяет достичь более высокого уровня понимания учебного контента. Его формы – анализ источников, подготовка презентация, создание видеоролика, подготовка доклада (по источникам), тесты, кроссворд, проведение интерактивных игр на определенные темы [3].

Надо здесь отметить, что весь процесс должен происходить в режиме отсутствия контакта между преподавателем и студентом. Более того, весь процесс мониторинга и анализа самообразования также должен проводиться как в вышеприведенной форме, т.е. бесконтактная работа с молодыми специалистами.

Дополнительное привлечение новых электронных ресурсов обогащает контент и облегчает общее понимание учебного материала. Более того, все они ориентированы на визуальное восприятие информации.

В работе с источниками надо обратить на следующее:



- наличие хорошего уровня подготовки по информационным технологиям,
- иметь хорошую память и способность быстро анализировать информацию,
- постоянно работать с выбранной тематикой,
- анализировать и обсуждать информацию с учетом их особенностей,
- быть в курсе изменений и состояния информации по выбранной тематике.

Вышеприведенные рекомендации следует применять при работе с одаренной частью молодых специалистов. Это дает проводить их подготовку на должном уровне и осуществлять мониторинг усвоения теоретического материала, анализировать их практические навыки.

Достижение наилучшего результата получается при работе с одаренной молодежью, которая может быстро получать анализ информации, так как она имеет лучшее понимание возможностей информационных технологий. И постановка им определенной проблемы и общего пояснения результата можно надеяться на достижение поставленной цели [4,5].

Работа с доступными источниками в Интернете дает более представление о практических сторонах изучаемой темы, улучшает общее понимание по учебному предмету. С другой стороны, этот фактор дает возможность выбрать молодого специалиста с более высоким уровнем знания для последующей работы с ним по подготовке высоко квалифицированного специалиста. Этот процесс может затянуться на 5-6 лет и требует постоянного внимания и работы с молодыми специалистами [5].

В процессе образования намного облегчается понимание необходимого объема информации с одновременным усвоением большего объема информации при формировании навыков работы с литературой. Электронные источники надо широко вводить в учебный процесс, так как они важны удобны самообразования.

Литература:

1. Кирйигитов Б., К.Косимов. Новые возможности использования интерактивных технологий.//Вопросы науки и образования.-2020.-№7.-С.81-85.
2. Кирйигитов Б., Каршибоев А., Носирова М. Значение источников на иностранных языках в процессе обучения/ “Innovative achievements in science 2020” /I International scientific Online conference. 2020. С.76-78.



3. Кирйигитов Б., Ж.Маткаримов, И.Охунов. Таълимда масофавий ўқитишнинг аҳамияти /«Педагогика назарияси ва замонавий педагогик технологиялари» Республика илмий-услубий конференция материаллари. 2008. - 169-170 бетлар.

4. Кирйигитов Б., Носирова М., Медатов А., Азимов Р., Юсупова Н. Иқтидорли талабаларбилан ишлаш /“Fizika, matematika va informatika fanlarini o‘qitishning dolzalb muammolari” mavzusidagi hududiy ilmiy-uslubiy anjuman. Andijon, 2013. 150-151 – betlar.

5. Кирйигитов Б., Темирова Г., Овхунов И., Мамасодикова С. Интернет ресурслари ва таълим соҳасида қўлланилиши /“Fizika, matematika va informatika fanlarini o‘qitishning dolzalb muammolari” mavzusidagi hududiy ilmiy-uslubiy anjuman. Andijon, 2013. 152-153-betlar.



JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH FAOLIYATINI TARTIBGA SOLINISHI

Davron Narzullayev Narzulla o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi

Bugungi kunda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida bir ishlar olib borilmoqda

Jumladan ushbu sohada 100 ga yaqin qonun va qonunosti xujjatlar qabul qilingan bo'lib ushbu sohada mustahkam huquqiy baza shakllantirib kelinmoqda va shuningdek 15dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustaxkamlashga qaratilgan amaliy choralar ko'rilmogda.

Transchegaraviy noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, offshor xududlarga qonunga xilof ravishda chiqib ketayotga pul mablag'lari sonining keskin oshib borayotganligi shunga o'hshash jinoyatlarni barvaqt oldini olish va ularga barxam berish bo'yicha yangi vazifalarni xuquqni muxofaza qiluvchi organlar oldiga qo'ymoqda.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida bugungi kunda bir qancha qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo'lib ular bugungi kundagi ushbu sohadagi qonunchilik ustidan prokuror nazoratini ta'minlashda muhim axamiyat kasb etmoqda.

2004-yil 26-avgustda 660-II-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari noqonuniy yo'llar orqali orttirilgan pul mablag'lariga qarshi kurashishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Shuningdek, 2018-yil 23-maydagi PF-5446-sonli "Byudjet mablag'laridan foydalanish va samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish muxanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, va unga muvofiq respublikaning moliyaviy tizimini yanada mustaxkamlash va takomillashtirish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolintarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tiziminining umumqabul qilinganxalqaro normalar va andozalarga muvofiqligini ta'minlash



maqsadida 2018-yil 20-sentyabrda qabul qilingan PQ-3947 sonli “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Kapital boziri rivojlantirish Agentligi hamda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan tuzilgan qo‘shma qarorlar asosida ishlab chiqilgan 12 ta ichki nazorat qoidalari O‘zbekiston Respublikasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi choralar, (shuningdek, pul yuvishga qarshi kurash deb ham ataladi,) noqonuniy xatti-harakatlar bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalarning oldini olish va barxam berishga qaratilgan keng ko‘lamli qonun bilan tartibga solish va operatsion choralarni o‘z ichiga oladi. Ularga misollar quyida keltirilgan:

Qonun bilan tartibga solish choralari:

1. Pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus qonunlarni qabul qilish.

2. Qonun bilan mustaxkamlanib, mijozlarni majburiy identifikatsiyalashni joriy etish va moliyaviy operatsiyalarda ularning shaxsini tekshirish choralari belgilash.

3. Moliya institutlari tomonidan shubhali moliyaviy operatsiyalar va ularning majburiy hisobotlari to‘g‘risida hisobot berish tizimini yaratish.

4. Pul yuvish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun qattiqroq jazo belgilash.

Xalqaro hamkorlik:

Bmtning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi va uning pul yuvishga qarshi kurash to‘g‘risidagi qo‘shimcha protokoli kabi xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va ularni amaliyotda samarali qo‘llash.

Pul yuvish bilan bog‘liq operatsiyalarini aniqlash va barxam berish uchun turli mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida ma’lumot almashish va hamkorlik.

Moliyaviy monitoring va tahlil:

1. Pul yuvishning shubhali sxemalarini aniqlash maqsadida moliyaviy operatsiyalarni kuzatish va tahlil qilish uchun mas’ul bo‘lgan ixtisoslashgan organlarni tashkil yetish.

2. Shubhali moliyaviy operatsiyalarni avtomatik aniqlash uchun texnologiyalar va sun’iy intellektning kerakli algoritmlarni qo‘llash.



Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi qaratilgan muayyan chora-tadbirlar va qonunlarga misollar har bir mamlakatda farq qilishi mumkin. Masalan, Qo'shma Shtatlarda asosiy qonunlar "pul yuvish to'g'risidagi qonun" (Bank Secrecy Act)¹⁴ va "terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonun" (USA PATRIOT Act)¹⁵, Yevropa Ittifoqida esa pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi moliyaviy tizimlardan foydalanishni oldini olish to'g'risidagi ko'rsatma (AML Directive).¹⁶

O'zbekiston Respublikasida Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga qarshi qaratilgan chora tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan nazorat

Ichki nazorat

Mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora tadbirlar

Xavflarni anilashga, baholashga, kamaytirishga doir choralar.

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan nazorat pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar taqdim etadigan axborotni tekshirish va boshqa vakolatlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar majmui.¹⁷

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Departamentning asosiy vazifalari:

birinchidan, iqtisodiy jinoyatlarga va korrupsiyaga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni kompleks tahlil qilish hamda qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

uchinchidan, byudjet tizimi byudjetlari mablag'larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarida narxlarni oshirib yuborish, davlat

¹⁴ АҚШ Омонатларни суғурталаш федерал корпорацияси расмий веб-сайти: <https://www.fdic.gov/regulations/safety/manual/section8-1.pdf>

¹⁵ АҚШ ҳукумати расмий веб-сайти: <https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-107publ56/pdf/PLAW-107publ56.pdf>

¹⁶ Европа Иттифоқи қонунчилиги расмий веб-сайти: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32015L0849>

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 майдаги Фармони №ПФ-5446



organlari va tashkilotlarida debitor hamda kreditor qarzdorlikning asossiz ortishi holatlarini aniqlash, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish;

to'rtinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksida, bank-moliya, soliq, transport, qurilish va ijtimoiy sohalarda iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

beshinchidan, davlat manfaatlariga zid ravishda bitimlar tuzish holatlariga qarshi kurashish, chet el valyuta mablag'lari noqonuniy ravishda chiqib ketishi, olib kirilishi va olib chiqilishi, ularning noqonuniy muomalasi, «xufyona iqtisodiyot»ni shakllantirishning turli sxemalari va kanallarini aniqlash;

oltinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar narxlarini manipulyatsiya qilish, ularga bo'lgan sun'iy tanqislik va ajiotaj talabni vujudga keltirish, shuningdek, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari aylanmasi bilan bog'liq noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish;

yettinchidan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining samarali ijro etilishini ta'minlash;

sakkizinchidan, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborot almashish;

to'qqizinchidan, iqtisodiy va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishning oldini olish bo'yicha keng tushuntirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish etib belgilangan¹⁸

Jinoiy yo'l bilan olingan jinoiy daromadlarni legallashtirishda ichki nazoratning mohiyati jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarning oldini olish, aniqlash va to'xtatishga qaratilgan chora-tadbirlar va jarayonlar tizimini yaratishdan iborat. Ushbu sohadagi ichki nazoratning asosiy maqsadi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga yo'l qo'ymaslik va tashkilot uchun xavflarni kamaytirishdan iborat.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 майдаги Фармони №ПФ-5446

Jinoiy daromadlarni legallashtirishda ichki nazoratning vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Aniqlash va oldini olish: jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va oldini olish funksiyasi. Bu moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish, tahlil qilish va tekshirish, shuningdek ichki audit orqali amalga oshiriladi.

2. Xatarlarni baholash: pul yuvish bilan bog‘liq xavflarni baholash va boshqarish funksiyasi. Ichki nazorat mijozlar, mamlakatlar, operatsiyalar turlari va boshqa omillar bilan bog‘liq xavflarni baholash va tasniflash, shuningdek ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Qonun hujjatlariga rioya qilish: pul yuvish bilan kurashish sohasidagi qonunchilik va me‘yoriy talablarga muvofiqligini ta‘minlash funksiyasi. Ichki nazorat tashkilotga qonun va qoidalarga rioya qilishga, qoidabuzarlik va xavflarning oldini olishga yordam beradi.

4. Ichki audit: ichki nazorat samaradorligini baholash va nazorat tizimidagi mumkin bo‘lgan kamchiliklar yoki kamchiliklarni aniqlash uchun ichki auditni o‘tkazish funksiyasi. Ichki audit tashkilotdagi pullarni legallashtirishga qarshi choralar va protseduralarni takomillashtirishga yordam beradi.

Ichki nazorat pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo‘lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir.

Ichki nazoratni o‘tkazishda quyidagilar aniqlanadi:

zarur ma‘lumotlarni qayta ishlash tartibi;

ma‘lumotlarni maxfiyligini ta‘minlash;

kadrlar tayyorlash va o‘qitishga qo‘yiladigan malaka talablari;

maxsus vakolatli davlat organiga hisobot berilishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni identifikatsiya qilish mezonlari va belgilari.¹⁹

Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

xo‘jalik, fuqaroviy huquqiy munosabatlar aniqlanganda;

pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq bir martalik operatsiyalar amalga oshirilganda;

¹⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуннинг 7-моддаси

shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

mijozning shaxsi to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga nisbatan shubhalar mavjud bo'lganda mustaqil chora-tadbirlar ko'rishlari shart.

Mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

mijoz va shaxslarning shaxsini va vakolatlarini tekshirish;

mulkdor yoki mijozni nazorat qiluvchi shaxsni identifikatsiyalashni;

mijoz tomonidan amalga oshiriladigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan ishbilarmonlik munosabatlari va operatsiyalarini doimiy ravishda o'rganish.²⁰

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek ichki nazorat qoidalariga rioya etilish ustidan monitoring va nazorat qiluvchi organlar:

ehtimol tutilgan xavflarni o'rganish, tahlil qilish va aniqlashni o'z faoliyatida tizimli ravishda yiliga kamida bir marta amalga oshirishi;

o'rganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi hamda aniqlangan xavflarni kamaytirishga doir tegishli choralar ko'rishi shart.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish yuzasidan xavflarni baholash bo'yicha choralarni muvofiqlashtirishni Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti amalga oshiradi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish milliy tizimi faoliyatiga jalb etilgan davlat organlari

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti – maxsus vakolatli davlat organi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar:

Oliy sud

Bosh prokuratura

Davlat xavfsizlik xizmati

Ichki ishlar vazirligi

Davlat bojxona qo'mitasi

Nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar:

²⁰ Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг 7-моддаси



Markaziy bank
Moliya vazirligi
Adliya vazirligi
Loyihalar boshqaruvi milliy agentligi
Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
Boshqa vazirlik va idoralar:
Tashqi ishlar vazirligi
Iqtisodiy rivojlanish vazirligi
Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
Davlat statistika qo‘mitasi
Davlat soliq qo‘mitasi
Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi

Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasida keltirib o‘tilgan bo‘lib ular quyidagilar:

1. banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
2. qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari;
3. birja a‘zolari;
4. sug‘urtalovchilar va sug‘urta vositachilari;
5. lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlar;
6. pul o‘tkazmalari, to‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
7. lombardlar;
8. lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni o‘tkazuvchi tashkilotlar;
9. qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar;
- 10 ko‘chmas mol-mulkning oldi-sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalarda xizmatlar ko‘rsatuvchi va ishtirok etuvchi shaxslar;
11. mijozlar nomidan bitimlar tayyorlash va ularni amalga oshirishda notarial idoralar (notariuslar), advokatlik tuzilmalari (advokatlar) hamda auditorlik tashkilotlari;
12. kripto-aktivlar muomalasi sohasidagi faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar.

Pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlarning majburiyatlari

Pul mablagʻlari operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar:

ichki nazorat tizimlarini tashkil qilishi va joriy etishi;

identifikatsiyalash tartiblarini amalga oshirishi va mijozlarni lozim darajasida tekshirish boʻyicha choralar koʻrishi, shu jumladan mijoz va uning mulkdorlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni verifikatsiyalashi hamda muntazam yangilab borishi;

mulkdorlar va mijozlarni nazorat qiluvchi shaxslarni identifikatsiyalashi hamda ularning shaxsini tekshirish boʻyicha imkon qadar choralar koʻrishi;

JDL/TM boʻyicha oʻz xavflarini aniqlash hamda baholash choralari koʻrishi, ushbu xavflarni hujjatlar bilan qayd etishi va ularni kamaytirish yuzasidan choralar koʻrishi;

mijozni lozim darajada tekshirish boʻyicha chora-tadbirlar koʻrish imkoniyati boʻlmagan taqdirda, hisobvaraqlar ochishni, operatsiyani amalga oshirishni, amaliy munosabatlarga kirishishni rad etishi va mavjud amaliy munosabatlarni tugatishi;

shubhali operatsiyalar toʻgʻrisidagi xabarlarini, shu jumladan ularni amalga oshirishga boʻlgan urinishlar toʻgʻrisidagi xabarlarini ular aniqlangan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay maxsus vakolatli davlat organiga belgilangan tartibda yuborishi;

operatsiya ishtirokchilarini terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar roʻyxati bilan solishtirishi;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar roʻyxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyasini kechiktirmasdan toʻxtatib turishi, shuningdek shubhali operatsiya toʻgʻrisida maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi shart.²¹

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 maydagi «Byudjet mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-5446-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, respublikaning moliyaviy tizimini yanada mustahkamlash va takomillashtirish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimining

²¹ Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг 7-моддаси



umumqabul qilingan xalqaro normalar va andozalarga muvofiqliligini ta'minlash maqsadida 2018 yil 20 sentyabrda PQ-3947 sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingan bo'lib, Komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilangan:

1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq xavflarni baholash bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, shuningdek, uning asosida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini yanada rivojlantirishga va mustahkamlashga oid takliflar ishlab chiqish va choralar ko'rish;

2. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

3. FATF tavsiyalaridagi talablarni va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilishni ta'minlash;

4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, mazkur sohadagi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish etib belgilangan

Shubhali operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ishlov berishning tashkiliy-funksional ketma ketligi

1. Tashkilotlar tomonidan shubxali operatsiyalar to'g'risidagi xabarlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xuzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga yuboriladi.

2. Departament tomonidan: habarni tahlil qilish va tanlash, moliyaviy tahlil, tezkor-qidiruv tadbirlari, aktivlarni to'htatib qo'yish, jinoyat ishini qo'zg'atish, surishtiruv o'tkazish, moliyaviy xo'jalik faoliyatini taftish qilish (zarurat bo'lganda) kabi protsessual harakatlar olib boriladi.

3. Shundan so'ng prokuratura tomonidan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilib ish sudga yuboriladi.

4. Sud ish bo'yicha xukm yoki qaror chiqaradi.



5. Majburiy ijro byurosi tomonidan zararni undirish va noqonuniy aktivlarni musodara qilish choralari ko‘riladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun milliy qonunchiligimizda intizomiy, ma‘muriy va jinoiy javobgarliklar ko‘zda tutilgan.

Mehnat kodeksining 181-moddasi: (1) hayfsan; (2) o‘rtacha oylik ish haqining 30% ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima; (3) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks 1793-moddasi: bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima.

Jinoyat kodeksining 243-moddasi: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish - besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish singari jazolar ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 майдаги Фармони №PF-5446

2. Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғриси»ги Қонуннинг 7-моддаси



O‘ZBEK TILIDAGI TAFSIR VA TARJIMALARNING UMUMIY HAMDA FARQLI JIHATLARI

Muslima Niyozova

Toshkent shahri O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik fakulteti
“Islomshunoslik” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mustaqillikdan boshlab bugungi kungacha ilm-fan bilan birgalikda diniy ilmlar ham taraqqiy etib bormoqda. O‘zbekistonda nafaqat ilm-fanga balki diniy-ma’rifiy sohaga ham e’tibor kuchayib borayotgani amalga oshirilayotgan islohotlar orqali sezilmoqda. Buning yaqqol dalili esa Qur’oni karimni tafsir qilish va ma’nolarini o‘zbek tiliga tarjima qilish an’anasining davom etib kelayotganidir.

O‘zbek tilida yozilgan tafsir va tarjimalar turfa xil bo‘lib, ular orasida o‘zaro bog‘liqlik hamda o‘xshash va farqli jihatlari mavjud.

Kalit so‘zlar: Qur’oni karim, tafsir, tarjima, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Azizxo‘ja Inoyatov, Domla Hindistoniy, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Usmonxon Alimov.

Aslida ixtilof, ya’ni bir fikr bilan boshqa bir fikrning turlicha bo‘lishi inson tabiatidagi xususiyatlardan biri sanaladi. Chunki odamning yaratilishida turli tumanlik, har xillik mavjud. Shunga yarasha ularning aqllari, tafakkur doirasi, ma’lumotlarni qabul qilishi va tushunishi ham turlichadir. Payg‘ambar (s.a.v.) ham “Ummatimning ixtilofi rahmatdir” deganlar. Shunga muvofiq Qur’oni karimning tafsir va tarjimalari o‘rtasida ham o‘zaro farqlar bo‘lishi tabiiydir.

Tafsirshunoslik tadqiqotlarida tafsirlardagi farq va ixtiloflar bo‘lishining sabablari sifatida quyidagilar keltiriladi:

Qiroatdagi farqlar. Aslida Qur’on yetti xil lahjada, ular ham o‘z navbatida turli qiroatlar ila o‘qilgan. Ularning ichida eng mashhurlaridan biri Osimning Nofe’dan rivoyat qilgan qiroati bo‘lib, u Markaziy Osiyoda ham keng tarqalgan. Shunday ekan ayrim oyatlar o‘qilishining bir necha turlari bo‘lgan va ular o‘zgarishi bilan ma’nolarda ham ma’lum darajada o‘zgarishlar sodir bo‘ladi;

E’rob (so‘zlarning oxirgi harakatlarining turlanishi)lardagi farqlar. Arab tili qoidasiga ko‘ra, foil (ega) damma (u, un) bilan va maf’ul (to‘ldiruvchi) fatha (a, an) bilan o‘qiladi. Bu holatda ikkisining jumladagi ma’nolari o‘zgarib ketadi. Bunday tarzda turlicha o‘qish bilan ma’nolarda ham farqlar paydo bo‘lib boraveradi;

Soʻzlarning lugʻaviy maʼnolaridagi farqlar. Arab tilidagi baʼzi soʻzlar ikki yoki undan ziyod maʼnolarga dalolat qiladi va ularning har bir maʼnosini ishlatish mumkin sanaladi. Shuningdek mufassir olimlar bir nechta maʼnolarni anglatadigan soʻzlarni oʻrganishlari bilan bir qatorda hamma maʼnolari teng ravishda olinishi mumkin boʻlganlarini ham oʻrganib chiqqanlar;

Mutloq va muqayyad oyatlarni tushunishdagi farqlar. Mutloq oyatning mohiyati biror bir narsaga bogʻlanilmagani, qaydsiz ekanidadir, muqayyad esa biror bir narsaga bogʻlanib, qaydlanadi;

Umum va xusus oyatlar borasidagi farqlar. Aslida umumiylik va xususiylik tushunchalari soʻzlarning lafzlariga taalluqli boʻlib, ulardan tushuniladigan maʼnolarning qanchalik umumiy yoki xususiyligi bilan bogʻlanadi;

Nasx va mansux borasidagi farqlar. Nasx bir oyatning boshqa bir oyat hukmini bekor qilishi boʻlib, hukmi bekor qilingan oyat “mansux” deyiladi;

Biror bir oyat mazmuni borasida ayrim mufassir olimlarga hadis yetib kelgan boʻlib, ayrimlariga oʻsha hadis yetib kelmagan boʻlish holatidagi farqlar;

Bir soʻzning arab tiliga yaqin yoki uzoq boʻlgan bir necha maʼnolarini qoʻllashdagi farqlar;

Oyatda qoʻshimcha soʻzlar qoʻllanilmagani sababli uni ikki xil tushunishdagi farqlar²²

Oʻzbekistonda qilingan tafsir va tarjimalarning aksariyatining orasidagi farqlar ham soʻzlardan qay yoʻsinda foydalanishdadir. Bu tarjimalarning umumiy xususiyati sodda, tushunarli zamonaviy oʻzbek adabiy tilida sharhlanganligidir.²³

Shu oʻrinda tarjima va tafsirlar orasidagi farqli va oʻxshash jihatlarni qiyoslab oʻtish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qiyos Qurʼoni karimning 30-porasidan oʻrin olgan “Moʻun” surasi orqali ochib beriladi.

أَرَعَيْتَ الَّذِي يُكَذِّبُ بِالذِّينِ

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning 2018-yili Anqarada chop etilgan “Qurʼoni karim va oʻzbek tilidagi maʼnolar tarjimasi”da ushbu suraning dastlabki oyati quyidagicha tarjima qilingan: **1. Dinni yolgʻonga chiqaruvchini koʻrdingmi?**

²² Maxsudov D.R. Tafsir ilmiga kirish (oʻquv qoʻllanma). – Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. – Toshkent: “Qaqnus” nashriyat matbaa-birlashmasi, 2019. – 260 b.

²³ I.Gʻofurov, O.Moʻminov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻllanma. –Toshkent: “Tafakkur-Boʻstoni” nashriyat matbaa-birlashmasi, 2012. –78/216 b.

Shayx Alouddin Mansurning “Qur’oni karim o‘zbekcha izohli tarjima”sida ushbu oyatning tarjimasi quyidagicha qilingan: **1. Dinni** (Oxiratdagi jazoni) **yolg‘on deydigan kimsani**(ng qanday kimsa ekanligini) **ko‘rdingizmi – bildingizmi?**

Yuqorida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasida oyat izohsiz holatda tarjima qilingan bo‘lsa, Shayx Alouddin Mansur tarjimasida “din”dan “oxiratdagi jazo” ko‘zlangani qavs ichidagi izoh orqali bildirib o‘tilgan.

Domla Hindistoniyning “Qur’oni karim oyatlari ma’nolarining izohli tarjimasi”da ushbu oyat quyidagicha bayon qilinadi: **1. Ey Muhammad** (alayhissalom), **dinni yolg‘on degan odamni ko‘rdingmi?**

Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”ida esa: **1. Dinni** (oxirat jazosini) **inkor etadigan kimsani ko‘rganmisiz?!**

Yuqoridagi ikki tarjimaning bir-biridan ajratuvchi eng yaqqol jihati Domla Hindistoniy tarjimasidagi Muhammad (s.a.v)ga bo‘lgan xitob – murojaatdir. Bundan tashqari Domla Hindistoniy tarjimasida “dinni yolg‘on degan odamni ko‘rdingmi?”, deb qilingan tarjima Shayx Alouddin Mansur tarjimasida “dinni inkor etadigan kimsa ko‘rdingizmi”, shaklida keladi. Bu bilan ilk oyatdanoq ikki tarjimaning bir-biridan farqli jihatlari namoyon bo‘ldi.

Azizxo‘ja Inoyatovning “Qur’oni karim oyatlari mazmun-ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi”da “Mo‘un” surasining ilk oyati tarjimasi quyidagichadir: **1. Dinni inkor etuvchi kimsani ko‘rmaysanmi?**

Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiyning “Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi”da ushbu oyat quyidagicha tarjima qilinadi: **1. Dinni yolg‘on deydiganni ko‘rdingizmi?**

Yuqoridagi ikki tarjima ma’noda bir-biriga yaqin turfa xil lafzlar bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Tabiiyki Azizxo‘ja Inoyatov tarjimasida kelgan “dinni inkor etuvchi” shaxs Shayx Usmonxon tarjimasidagi “dinni yolg‘on deydigan” kimsa bilan hukman tengdir. “Dinni inkor etuvchi”, shaxs “dinni yolg‘on”ga chiqaruvchi kimsaning ayni o‘zidir.

“Tafsiri hilol”ning 1992-yili chiqqan nashrida Amma porasining “Mo‘un” surasi quyidagicha tafsir qilinadi: **1. Dinni, oxiratni yolg‘onga chiqaruvchini ko‘rdingmi** (Ey Muhammad s.a.v)?

Endi esa ushbu oyat “Tafsiri hilol”ning eng so‘nggi nashri bilan taqqoslanadi. 2022-yilda chop etilgan “Tafsiri hilol”da u shunday sharhlanadi: **1. Oxirat** (jazosi)ni **yolg‘onga chiqaruvchini ko‘rdingmi?** Ya’ni oxirat jazosini yolg‘onga chiqaruvchi odam qandoq odam bo‘lishini bilasanmi? Uning sifatleri qandoq bo‘lishini bilishni xohlaysanmi?

Yuqoridagi ikki tafsirdan eng so‘nggi nashrda chiqqan tafsir to‘ldirilgan ekanligi ma‘lum bo‘ladi. “Tafsiri hilol”ning avvalgi nashrida “din” so‘zidan so‘ng vergul qo‘yilib, “oxirat” deyilgan bo‘lsa, eng so‘nggi nashrda “din” so‘zi “oxirat (jazosi)”, deb o‘zgartirilgan. Avvalgi nashrda Muhammad (s.a.v)ga murojaat qiliniyatgan bo‘lsa, tafsirning 2022-yilgi nashrida bu murojaat so‘zi olib tashlangan hamda ommatan xitob qilingan.

فَذَلِكَ الَّذِي يَدْعُ الْيَتِيمَ وَلَا يَحْضُ عَلَى طَعَامِ الْمَسْكِينِ

2 va 3-oyatlar tarjimasida Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasida”da quyidagicha keladi: **2. Yetimni qo‘pollik bilan haydaydigan o‘shadir. 3. U miskinlarga taom berishga ham qiziqitmaydi.**

Shayx Alouddin Mansurning “Qur’oni karim o‘zbekcha izohli tarjima”sida:

2-3. Bas, bu yetim-yesirni (qo‘pollik bilan) haydab soladigan va (kishilarni) miskin-bechoraga taom berishga targ‘ib qilmaydigan kimsadir. Izoh: Ya‘ni, kimki iymon keltirganman, desa-yu, ammo yetim-yesirning haqqidan qo‘rqmasa; bechora-miskinlarni boshini silab mehribonlik qilmasa. U dinni inkor qilguvchi kimsalar bilan barobardir.

Yuqorida Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning tarjimasida izohsiz holatda keltirilgan bo‘lsa, Shayx Alouddin Mansur tarjimasida izohlar goh qavs ichida goh oyat tarjimasidan so‘ng bayon sifatida alohida izohlab o‘tilgan. Avvalgi keltirilgan tarjimada “qo‘pollik bilan” jumlasida oyat tarjimasida bilan qo‘shib qilingan bo‘lsa, keyingi tarjimada “qo‘pollik bilan” jumlasida qavs ichida izohlovchi bo‘lib kelgan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tarjimasida 2 va 3-oyatlar alohida tarjima qilinib, ikkita jumla alohida mustaqil jumla hosil qilingan. Shayx Alouddin Mansur tarjimasida 2 va 3-oyatlar jamlab tarjima qilingan hamda bir butun gap qilib tarjima qilingan. Bu ham tarjimon va mufassirlarning ijtihodiga ko‘ra amalga oshirilgandir.

Domla Hindsitoni tomonidan amalga oshirilgan tarjimada: **2-3. U shunday odamki, yetimga rahm qilmasdan, (qo‘rs-qo‘pollik qilib) oldidan haydaydi. Va (odamlarni) miskiniga taom berishga targ‘ib qilmaydi.**

Shayx Abdulaziz Mansurning izohli tarjimasida 2 va 3-oyatlar tarjimasida quyidagicha aks etadi: **2. Bas, u yetimni jerkiydigan 3. va miskin (bechora)ga taom berishni targ‘ib qilmaydigan (kofir) kimsadir.** Bu sifat egalari Makkaning ashaddiy kofirlaridan Os ibn Voil, Valid ibn Mug‘iyra kabilardir. Oyat ular sha‘niga doir bo‘lsa-da, uning hukmi umumiy bo‘lib, har bir mo‘min-musulmon bu kabi salbiy xususiyatlardan holi bo‘lishga harakat qilishi zarurdir.

Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida iymonsiz kishiga dalolat etib, “yetimni jerkiydigan” lafzi ishlatilgan bo‘lsa, Domla Hindistoniy tarjimasida “U shunday odamki, yetimga rahm qilmasdan, (qo‘rs-qo‘pollik qilib) oldidan haydaydi” deya qavs ichida izohlar berilib, sharhlab o‘tilgan. Domla Hindistoniy tarjimasida suralarning tarjimasi kamida besh yoki undan ziyod oyatlarning tarjimasi bilan qo‘shilib qilingan. “Mo‘un” surasida xuddi shu tartibga rioya qilingan hamda 7 oyatning barchasi jamlanib, yaxlit ma‘noni o‘zida mujassam etgan. Bu esa aynan Domla Hindistoniy tarjimasining boshqa tarjimalardan farqli jihatidir. 3-oyatda Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izoh qo‘shilgan va “miskin (bechora)ga taom berishni targ‘ib qilmaydigan “kofir” kimsa”larning sifatlari kimlarga xoslangan ekanligi oydinlashitirilgan.

Azizxo‘ja Inoyatov tarjimasida yuqoridagi ikki oyat quyidagicha tarjima qilinadi: **2. yetimni jerkiydi 3. miskin-bechoraga taom berishni targ‘ib qilmaydi.**

Shayx Usmonxon tarjimasida esa ikki oyat tarjimasi o‘zbekchaga quyidagicha o‘girilgan: **2. U yetimlarni haydaydi; 3. va kambag‘alga taom berishga rag‘batlantirmaydi.**

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki har ikki oyat tarjimasi ortiqcha izohlardan holi qilingan. Sharhlar qo‘shilmagan. Tarjimada oyatning ma‘no va mazmunlari to‘laligicha saqlangan. Azizxo‘ja inoyatov tarjimasida “yetimni jerkiydi” jumlasida Shayx Usmonxon tarjimasida “yetimlarni haydaydi”, deb kelgan. Bir tomondan bu ikki xillikka sabab ularning qaysi hadis, manba hamda so‘zning aynan qaysi ma‘nosiga suyanliklari bilan bog‘liq bo‘ladigan holat bo‘lsa, tarjimadagi ikkinchi jihat tarjimalarda kelgan birlik va ko‘plik shakllardir.

“Tafsiri hilol”ning avvalgi nashrida: **2. U yetimning haqqidan qo‘pollik bilan chetlatuvchi odamdir.** Yetim odatda ojiz, zaif shaxs bo‘ladi. Yetimni xorlovchi, unga zulm qiluvchi, haqqini poymol qiluvchi shaxsni dindor deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Alloh dinni yolg‘onga chiqaruvchilarning avalgi sifatini bundoq sifatladi. **3. Va (odamlarni) miskinlarga taom berishga qiziqitirmaydi.** Odatda, o‘zgalarni taom berishga qiziqitirmagan o‘zi hech qachon bermaydi. Bu ham dinsizlarning alomati ekan. Musulmonlar esa muhtojlarga doim yordam beradilar. Endi namozning haqiqatidan g‘ofil namozxonlar azob-u halokatdan qo‘rqitiladi.

“Tafsiri hilol”ning oxirgi nashrida: **2. (U) yetimni qo‘pollik bilan haydaydir.** Ya‘ni oxirat jazosini yolg‘onga chiqaruvchi o‘sha kishi yetimga qo‘pollik qiluvchi, uni o‘z oldidan haydab soluvchi odamdir. Ha, faqat oxiratni yolg‘onga chiqaruvchi shaxsgina yetimga shu muomalani qilishi mumkin. Yetim odatda ojiz, zaif shaxs bo‘ladi. Yetimni xorlovchi, unga zulm qiluvchi, haqqini poymol qiluvchi shaxsni

dindor deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Alloh dinni yolg‘onga chiqaruvchilarning avalgi sifatini bundoq sifatladi. **3. Va miskinlarga taom berishga qiziqitirmaydir.** Odatda o‘zgalarni taom berishga qiziqitirmagan odam o‘zi ham hech qachon bermaydi. Bu ham dinsizlarning alomati ekan. Musulmonlar esa muhtojlarga doim yordam beradilar. Shu bilan birga boshqalarni ham miskinlarga yaxshilik qilishga, ularga taom berishga qiziqitiradilar. E’tibor beriladigan bo‘lsa, ushbu oyati karimada miskinlarga taom berishga boshqalarni qiziqitirmaslik katta ayb sifatida zikr qilinmoqda. Shundoq bo‘lganidan keyin, imkoni bo‘la turib, miskinlarga taom bermaslikning o‘zi qanchalik gunohligini bilib olaversa bo‘ladi. Endi, namozning haqiqatidan g‘ofil namozxonlar azob halokatidan qo‘rqitiladi.

Yuqoridagi ikki tafsirning avvalgisida 2 va 3-oyatlarning tafsiri qisqacha bayon etilgan bo‘lsa, so‘nggi nashrda bu oyatlarga qo‘shimchalar qo‘shilib, batafsil yoritilgan. Oyatning tarjimasida ilk nashrda “yetimning haqqidan qo‘pollik bilan chetlatuvchi odam” deb jumlasiga kelgan bo‘lsa, oxirgi nashrda bu tarjima “(u) yetimni qo‘pollik bilan haydaydir” jumlasiga o‘zgartirilgan. So‘nggi nashrga yangi izohlar qaytadan qo‘shilmay, balki avvalgi nashrning sharhlariga qo‘shimcha qilib kiritilgan.

فَوَيْلٌ لِلْمُصَلِّينَ الَّذِينَ هُمْ عَنْ صَلَاتِهِمْ سَاهُونَ

4 va 5-oyatlarning o‘zbekcha tarjimasida Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning tarjimasida quyidagicha keladi: **4. Bir “namozxonlar”ga vayl bo‘lsinki, 5. ular namozlarini unutuvchilardir.**

Shayx Alouddin Mansur tarjimasida: **4-5. Bas, namozlarini “unutib” qo‘yadigan kimsalar bo‘lgan “namozxon”larga halokat bo‘lgayki;**

Yuqoridagi ikki tarjimaning avvalida ikki oyatning tarjimasida alohida qilingan. Keyingi tarjimasida bo‘lsa, ikki oyat bilan jam qilinib bir butun gap hosil qilingan. Bu uslub tarjimaga putur yetkazmaydi, balki oyat mazmunini o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Lekin o‘quvchi uchun oyatlarning ma’nosini yakka holatda bilish ham muhim sanaladi.

Domla Hindistoniy tarjimasida: **4-5. U namoz o‘quvchining holiga voydirki, namozidan g‘ofildir!** (Namozini unutib qo‘yadi)

Shayx Abdulaziz mansur tarjimasida: **4. Bas, shunday namozxonlar holiga voyki, 5. ular namozlarini “unutib” qo‘yadilar.**

Ilk oyat tarjimasida ikki oyat tarjimasida birlashtirilib, bir butun ma’no berilgan hamda “g‘ofil” lafzining ishlatilishi bilan “namozini unutib qo‘yadi” deya sharhlangan qavs ichidagi izoh bayon qilingan. “G‘ofil” so‘zining ishlatilishi ma’noga mos bo‘lgan. Shayx Abdulaziz tarjimasida ikki oyat tarjimasida alohida



berilgan bo‘lib, ko‘plik shakldadir. Domla Hindistoniya esa tarjima birlik shaklda qilingan.

Azizxo‘ja Inoyatov tomonidan qilingan tarjimada ushbu ikki oyat tarjimasi quyidagicha keltirilgan: **4. Namozxonlarning sho‘ri quriydi 5. namozni unutib qo‘ysa.**

Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiyning “Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi”da ushbu ikki oyat quyidagicha o‘zbek tiliga o‘giriladi: **4. Shunday namozxonlar holiga voyki; 5. ular namozlarini unutib “qo‘yishadi”**

Yuqoridagi har ikki tarjimaga ham izohlar qo‘shilmagan. Oradagi farq lafzlardan foydalanishdadir: avvalgi tarjimada “sho‘ri quriydi” iborasi ishlatilingan, keyingi tarjimada esa “holiga voy”, shunga qaramasdan har ikki tarjimaning mazmuni birdir. Lafzlarning turlicha ishlatilinishi esa tarjimonlarning mahoratidan kelib chiqadigan omillardan hisoblanadi. Har ikki tarjimada ham 4 va 5-oyatlar bir-biriga bog‘liq ekan kundek ravshan. Masalan, Azizxo‘ja Inoyatov tarjimasida “namozni unutib qo‘ysa” iborasining qo‘llanilishi oyatdagi “namozxonlar”ga tegishli bo‘lib, bu bilan ularga kinoya qilingan.

“Tafsiri hilol”ning 1992-yili chiqqan nashrida Amma porasining “Mo‘un” surasining 4 va 5-oyatlari quyidagicha tafsir qilinadi: **4-5. Namozlarini unutupchi “namozxonlar”ga vayl do‘zaxi (halokat) bo‘lsin.**

Ya’ni namozning ma’nolarini, hikmatlarini, inson vijdonini pokligini, qalbda marhamat – shafqatni qo‘zishini unutganlarning holiga voy. Alloh taolo “Ankabut” surasida: “Albatta, namoz faxsh va munkar ishlardan qaytaradi” degan. Kim namoz o‘qisa-yu yomon ishlardan qaytmasa, u namozini unutganlar jamoatidan bo‘ladi.

2022-yilda chop etilgan “Tafsiri hilol”da u shunday sharhlanadi: **4. Bir “namozxonlar”ga vayl bo‘lsinki. 5. Ular namozlarini unutupchilardir.** Ya’ni namozning ma’nolarini, hikmatlarini, inson vijdonini poklashini, qalbda marhamat – shafqatni qo‘zishini unutganlarning holiga voy, joyi jahannam. Alloh taolo “Ankabut” surasida: “Albatta, namoz faxsh va munkar ishlardan qaytaradi” degan. Kim namoz o‘qisa-yu yomon ishlardan qaytmasa, u namozini unutganlar jamoatidan bo‘ladi. Ushbu oyatlar ma’nosi haqida mufasssirlarimiz bir qancha ta’villar aytganlar.

Abul Oliya: “Bular namozni o‘z vaqtida o‘qimaydiganlar, ruku va sajdalarini yaxshilab, batamom qilmaydiganlar”, degan.

Abdulloh ibn Abbos (r.a): “Bu shundoq namozxonki, u o‘zi o‘qigan namozidan savob umid qilmaydi va uni o‘qimasa, iqobidan qo‘rqmaydi”, deganlar.

Ibn Jarir Tabariy keltirgan rivoyatda, Payg‘ambar (s.a.v)dan ushbu oyat haqida so‘ralganda, ular namozini o‘z vaqtdan orqaga suradiganlar, deganlar.

Mufasssirlarimiz ushbu jumladagi kelishik qo‘shimchalarga ham alohida e‘tibor berganlar. Oyatda “An solatihim saahuun” – “namozlarini unutuluvchilar”, deyilmoqda, “fii solatihim” – “namozlarida” deyilmayapti. Shundan oyatda munofiqlar haqida so‘z ketayotgani kelib chiqadi. Chunki mo‘min kishi ham namoz ichida ba‘zi narsalarni unutishi mumkin. Lekin unutish bilan unutishning farqi bor. Munofiqlarning namozini unutishi o‘qimaslik, unga e‘tiborsizlik qilishi bilan bo‘ladi. Mo‘min esa namozning ichida biror narsani unutib xatoga yo‘l qo‘ysa, sahv sajdasi qilib, darhol to‘g‘rilaydi. Ushbu oyatda zikr qilinganlar munofiqlar ekanligiga kelasi ikki oyat ham dalildir.

Yuqorida ikki tafsirning birinchisida ikki oyat bir butun holda tarjima qilingan, so‘ng har ikkisining sharhi berib o‘tilgan. Ikkinchi tafsirda esa oyatlar alohida tarjima qilinib, tafsir va ta‘villar, hadislar, sharhlar hamda qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan yoritilgan. O‘quvchi uchun suraning tarjima va tafsiri borasida bilishi afzal bo‘lgan xulosalar keltirilgan. Zarurat tug‘ilganda Qur‘oni karimdan oyatlarning mazmuniga doir oyatlar keltirilgan. Masalan, har ikki tafsirda “Ankabut” surasidan bir oyat keltirilib, namozning fazilatlaridan biri – faxsh va munkar ishni qaytarishi ekanligi bayon qilingan.

الَّذِينَ هُمْ يُرَاءُونَ وَيَمْنَعُونَ الْمَاعُونَ

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning tarjimasida “Mo‘un” surasining oxirgi ikki oyat tarjimasi quyidagicha qilinadi: **6. Ular riyo qiladiganlardir. 7. Va mo‘unni man qiladiganlardir.**

Shayx Alouddin Mansur tarjimasida: **6-7. Ular riyokorlik qiladigan va ro‘zg‘or buyumlarini ham (kishilardan) man qiladigan (ya‘ni, biron kishiga foydalari tegmaydigan) kimsalardir!**

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasida 6 va 7-oyatlar tarjimasi alohida qilingan. Shayx Alouddin Mansurda ikki oyatdan bir ma‘no hosil qilingan. Shuningdek, yuqoridagi har ikki tarjimada ham bir guruh namozxonlarni riyokorlik bilan namoz o‘qishi qaydlangan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasida “mo‘un”ning nima ekanligi ochiqlanmagan, lekin Shayx Alouddin Mansurda “mo‘un”dan murod “uy-ro‘zg‘or buyumlari” ekanligi hamda “man qiladigan” kishi aslida “birovga foydasi tegmaydigan” kimsa ekanligi ham qavs ichida izoh yordamida tilga olingan.

Domla Hindistoniy tarjimasida: **6-7. O‘qisa ham riyo bilan (o‘zini ko‘z-ko‘z qilish uchun) o‘qiydi, qo‘shnilarga kerak bo‘lgan narsalarni (ba‘zi uy-ro‘zg‘or buyumlarini yo hayr-sadaqani qizg‘anib) bermaydi.**

Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida: **6. riyokorlik qiladilar 7. va ro‘zg‘or buyumlarini** (kishilar omonatga so‘rashganda) **man etadilar.**

Domla Hindistoni tarjimasida 6 va 7-oyatlar tarjimasi birlik shaklda berilgan, namoz o‘quvchi namoz o‘qisa ham riyo bilan o‘qishi ta’kidlangan. Bu ikki oyatlar Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida ko‘plikda berilgan. Ushbu tarjimada namozlarini unutib qo‘yuvchi namozxonlar namozlarida riyokorlik qilishlari aytilgan bo‘lsa, Domla Hindistoni tarjimasida namoz o‘qiydigan kishi namoz o‘qisa ham riyo bilan o‘qishi aytilgan. Bu ham ikki tarjimaning farqlaridan biri sanaladi. Domla Hindistoni tarjimasida “mo‘un”dan murod qavs ichida berilgan uy ro‘zg‘or buyumlari yoki hayr-sadaqa ekanligi ko‘zda tutilgan. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida esa “mo‘un” uy ro‘zg‘or buyumlari, deb tarjima qilingan hamda iymonsiz kishi o‘sha narsalarni kishilar omonatga so‘rashganda bermasliklari aytib o‘tilgan.

Azizxo‘ja Inoyatov tarjimasida: **6. riyokorlik qilsa 7. va ro‘zg‘or buyumlarini omonatga bermasa.**

Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiy tarjimasida: **6. ular riyoga borishadi; 7. va ro‘zg‘or ashyolarini berishmaydi.**

Yuqoridagi oyatlarning biri-ikkinchisiga bog‘liqdir. Birisiz ikkinchisini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Azizxo‘ja Inoyatov tarjimasida ham Shayx Usmonxon temurxon o‘g‘li Samarqandiy tarjimasida ham har ikki oyat o‘zidan avvalgi oyatga uzviy bog‘langan. Avvalgi keltirilgan tarjimaning 4 va 5-oyatlar tarjimasida “namozxonning sho‘ri quriydi, namozini unutib qo‘ysa” oyati keltirilgan bo‘lib, keyingi oyat tarjimasida yana o‘sha namozxonning riyokorlik qilishi ham “riyokorlik qilsa” jumlasidagi kinoya orqali bildirilgan. Shayx Usmonxon tarjimasida bu ikki oyat ko‘plikda berilgan.

“Tafsiri hilol”ning avvalgi nashrida: **6. Undoq kishilar riyo qiladiganlardir.** Namoz o‘qisa-yu, namozning haqiqatini unutsa, yomonlik, ig‘vo, bo‘xton, yolg‘onchilik, buzg‘unchilik va boshqa razolatlardan qaytmasa, unday kishi riyokor, munofiq bo‘ladi. Odamlarning ko‘zini buyash, ular huzurida obro‘ topish, o‘zini dindor qilib ko‘rsatish uchun namoz o‘qigan bo‘ladi. **7. Va mao‘unni man qilishadi.** “Maa‘uun”ni ba‘zi tafsirchilar zakot deydilar, boshqalari esa xo‘jalikda kerak bo‘lib turadigan asbob-anjomlar deydilar.

Islom sathiy, zohiriy narsalar dini emas. Balki ixlos va amal dinidir. Ibadatlar ixlos bilan bo‘lmasa, egasini yaxshi axloq va omillarga boshlamasa, haqiqiy bo‘lmaydi. Inson tili bilan musulmonman deyishi, islomiy amallarni ba‘zilarini ado etishi, masalan, namoz o‘qishi ham mumkin, lekin haqiqiy musulmon bo‘lsa, iymon

alomatlari uning yurish-turishida, muomalasida, gap-soʻzida, ishida, odob-axloqida – hamma-hammasida koʻrinib turadi.

“Tafsiri hilol”ning soʻnggi nashrida: **6. Undoq kishilar riyo qiladiganlardir.** Namoz oʻqisa-yu, namozning haqiqatini unutsa, yomonlik, igʻvo, boʻxton yolgʻonchilik, buzgʻunchilik va boshqa razolatlardan qaytmasa, unday kishi riyokor, munofiq boʻladi. Odamlarning koʻzini boʻyash, ular huzurida obroʻ topish, oʻzini dindor qilib koʻrsatish uchun namoz oʻqigan boʻladi. **7. Va maaʼuunni man qiladiganlardir.** “Maaʼuun”ni baʼzi tafsirchilar zakot deydi, boshqalari esa xoʻjalikda kerak boʻlib turadigan asbob-anjomlar, deydi.

Islom sathiy, zohiriy narsalar dini emas. Balki ixlos va amal dinidir. Ibodatlar ixlos bilan boʻlmasa, egasini yaxshi axloq va omillarga boshlamasa, haqiqiy boʻlmaydi. Inson tili bilan musulmonman deyishi, islomiy amallarni baʼzilarini ado etishi, masalan, namoz oʻqishi ham mumkin, lekin haqiqiy musulmon boʻlsa, iymon alomatlari uning yurish-turishida, muomalasida, gap-soʻzida, ishida, odob-axloqida – hamma-hammasida koʻrinib turadi.

Har ikki xil davrda nashr etilgan “Tafsiri hilol”ning tarjimalari orasida deyarli maʼnoga bogʻliq boʻlgan ixtiloflar mavjud emas. Tafsirida ham deyarli farqlar uchramaydi.

Yuqorida qiyoslangan tarjima va tafsirlar orqali ularning orasidagi farqlar hamda oʻxshashliklar ochib berildi. Albatta, tarjima va tafsirlardagi xilma-xillikning sabablari mufasssirlarning ijtihodi va oʻquvchiga tafsiri yetkazib berish uslubi bilan ham bogʻliqdir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Shayx Muhammadjon mulla Rustam oʻgʻli (Mavlaviy hoji Hindistoniy). Qurʼoni Karim oyatlari maʼnolarining izohli tarjimasi. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. – 978 b.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qurʼoni karim maʼnolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. – 624 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol, Amma porasi. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – 181 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. Amma porasi. – Toshkent, Oʻzbekiston: Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. –181b.



5. Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiy. Qur‘oni karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimasi. – Anqara: “Yayin” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 611 b.
6. Azizxo‘ja Inoyatov, G‘ani Zikrillayev. Qur‘oni karim oyatlari mazmun-ma‘nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi. – Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022. – 688 b.
7. Maxsudov D.R. Tafsir ilmiga kirish (o‘quv qo‘llanma). – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – Toshkent: “Qaqnus” nashriyot matbaa-birlashmasi, 2019. – 260 b.
8. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyot matbaa-birlashmasi, 2012. – 78/216 b.

“MEZON UL-AVZON” ASARINING TAHLILI

Mavluda Satiyeva Raximjon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti, O‘zbekiston

mavludasatiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis aruz vazniga oid turkiy tilda yaratilgan risola – Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarining qisqacha tahliliga bag‘ishlangan. Tahlil davomida aruzga oid birliklarning risolada qanday berilgani ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: aruz, juzv, rukn, sabab, vatad, fosila, misra, bayt, aruz doiralari.

Annotation: This thesis is devoted to a brief analysis of the main treatise on the prosody in the Turkic language, Alisher Navoi's “Mezon ul-avzon”. During the analysis, the poetic units of the prosody are considered.

Keywords: aruz, juzv, rukn, zihaf, sabab, vatad, fosila, misra, couplet, concentric circles.

Bilamizki, aruz she’riy tizim sifatida arab adabiyotida paydo bo‘lgan. Manbalarda aruz nazariyasi asoschisi sifatida Xalil ibn Ahmad ko‘rsatiladi. Uning nazariyasi keyinchalik aruz tizimi tarqalgan boshqa xalqlar uchun ham asos bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta asrlarga kelib Movorounnahrda ham arab va fors aruzi zamirida turkiy aruzshunoslik maktablari paydo bo‘ldi. Aruz temuriylar davrida o‘z cho‘qqisiga erishganligini o‘sha davrda yaratilgan aruz haqidagi turkiy risolalar, jumladan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” va Boburning “Muxtasar” kabilar bimalol isbotlay oladi. Adabiyotshunos olimlardan Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Anvar Hojiahmedov kabilar aynan Navoiy aruzi yuzasidan salmoqli tadqiqotlarni olib borishgan.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”ni 1492-1493-yillarda yozib tugatadi hamda o‘z risolasini turkiy adabiyotda aruzga oid ilk asar sifatida ta’riflaydi: *“G‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi’ bo‘lubdur, anga zobitae va qonune yo‘q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolae bitmaydur”* [Navoiy 2000, 95]. Holbuki, Shayx Ahmad Taroziy qalamiga mansub “Funun ul-balog‘a” bundan ancha ilgari – 1436–1437-yillarda yaratilgan bo‘lsa-da, Navoiy bu asardan xabardor bo‘lmaganligi sababli shunday ta’rif keltiradi. Haqiqatan ham, o‘sha davr yozma manbalarida “Funun ul-

balog‘a” haqida Boburning “Muxtasar”ida keltirilgan uch bayt misoldan tashqari ma’lumot uchramaydi.

“Mezon ul-avzon” asarini shartli ravishda uch qism: muqaddima, asosiy qism va xotima qismlariga bo‘lishimiz mumkin. Muqaddimada Navoiy an’anaviy hamd va na’tdan so‘ng, qisqacha o‘sha davrdagi adabiy jarayon haqida so‘z yuritib, bu asarni tartib berish fikri Husayn Boyqaro ko‘rsatmasi bilan Dehlaviy devonidagi g‘azallar vazni haqida ma’lumot yozishdan keyin tug‘ilganini qayd etadi. Bundan keyin salafarlari Xalil ibn Ahmad, Qays Roziy, Tusiy va Jomiy kabi “azizlar ruhidin istimdod qilib”, asarning asosiy qismiga o‘tadi.

Aruz nazariyasiga oid dastlabki tushunchalardan biri *juzv* bo‘lganligi sababli, birinchi navbatda risolalarda *juzvlar* qanday berilganligini ko‘rib chiqamiz. Navoiy “*juzv*” tushunchasini “*rukn*” atamasi ostida ta’riflaydi: “... *aruz fani ahli nazm avzoni usulining binosin uch rukng‘a qo‘yubdurlarkim, alarni sabab va vatad va fosila debdurlar*” [Navoiy 2000, 41]. So‘ngra Navoiy ushbu *juzv*larning barchasiga an’anaviy ta’rif beradi va ularning barchasi qatnashgan misra keltiradi: “*Va arkonning majmui bu kalimot tarkibida darajadurkim: “Ul ko‘zi qaro dardu g‘amidin chidamadim*” [Navoiy 2000, 41]. Bundan tashqari Navoiy har bir *juzv*ga misol tariqasida bittadan bayt keltirib o‘tadi: “*Ne sababdin, andoqkim,*

b a y t:

Ey oy, kelkim, yoringdurmen,

Furqat shomi zoringdurmen.

Va ne avtoddin, andoqkim,

b a y t:

Qadi havosidin gahi shajar sari nazar qilay,

Yuzi xayolidin gahi chaman sari guzar qilay.

Va ne favosildin, andoqkim,

b a y t:

Mirakim, tilakim chu sen o‘ldungu bas,

Ne qilay yanalar ko‘rarni havas” [Navoiy 2000, 42].

Navoiy salafaridan Nosiruddin Tusiy o‘zining “Me’yor ul-ash’or” risolasida fosila *juzv*ni alohida *rukn* sifatida qarashning keragi yo‘qligini aytadi. Lekin Navoiy asarda an’anaviy nazariyaga urg‘u qilgani uchun bunday muammoli masalaga to‘xtalib o‘tirmaydi.

Ruknlar ta’rifiga kelganda Navoiy sakkiz asl *ruknni* sanaydi hamda ularning beshtasi forsiy va turkiy she’riyat uchun xosligini aytib o‘tadi: “*Va ulcha bu sekkiz usuldin forsiy she’rda kasirul-vuqu’dur – beshdur: 1) mafo’ilon, 2) va fo’ilotun, 3) va*

mustaf'ilun, 4) va maf'ulotu, 5) va fa'ulun. Va turkcha she'rda ham ulcha mulohaza qililibdur, bu arkondin o'zga vuqu' topmas, magar takalluf bila" [Navoiy 2000, 43].

Shundan so'ng Navoiy besh asl running o'zgarishini aruzda "zihof" deyilishini aytib, yuqoridagi besh asl rukn uchun zihoflar va ularning natijasi – furu'larni keltiradi. Besh asl ruknda jami 45 zihof va 60 furu' keltiriladi.

Bahrlar tahliliga kelganda Navoiy ba'zisi arabga, ba'zisi ajamga xos va ba'zisi mushtarak bo'lgan 19 bahrni sanaydi. Bahrlarning bitta asl rukn takroridan hosil bo'lganlari va murakkab bahrlarga ham to'xtalib o'tadi.

Aruz ilmiga oid navbatdagi tushuncha bu *doiralar* bo'lib, Navoiyda 7 ta doira keltiriladi.

Hazaj, rajaz va ramal bahrlaridan iborat doira Navoiyda "*doirai mu'talifa*" tarzida berilgan. Misol uchun berilgan misralar:

Ko'ngul//Qon//Bil visolingda g'ami hijron xayolidin.

Munsarih, muzori', muqtazab va mujtass bahrlarining zihoflarda o'zgarishidan tashkil topgan doirani Navoiy "*doirai muxtalifa*" deb keltiradi:

Ishq//Etar//Tan//Figor shavq qilur jon zaif

"*Doirai muntazi'a*" – sari', jadid, qarib, xafif, mushokil bahrlaridan iborat bo'lib, misol tariqasida berilgan misralar shunday keltirilgan:

Sen//Bu//Jafoni//Mango ko'p qilma//Yor.

"*Doirai muttafiqa*" - mutaqorib va mutadorik bahrlaridan tashkil topgan. Doiraga kiritilgan misollar esa quyidagicha:

Kelib//Dardima chora qilsang ne bo'lg'ay.

Shu o'rinda navbatdagi doiraning yaratilishi haqida risolada ajib bir fikrlarga guvoh bo'lamiz. Navoiy 9 bahrni sanagan holda, ularning zihofga uchragan ko'rinishlaridan ikki doira tuzilgan, ammo solim shakli hech bir doiraga tartib bilan kiritilmaganini va bu ishni o'zi bajarganini aytadi: "*Agar munsarih va muzori' va muqtazab va mujtass baxrig'a zihofot yo'l berib, musamman qilib, bir doira qo'yubdurlar va sari' va jadid va qariyb va xafif va mushokil bahrig'a dag'i zihofot doxil qilib, yana bir doira qo'yubdurlar. Ammo bularning soliminiki, anga hech zihof kirmamish bo'lg'ay, hech doiraga tartib bila zabt qilmaydurlar. Bu mazkur bo'lg'an to'qquz asl bahrning soliminiki, zihofot duxulidin salomat qolmish bo'lg'aylar, bir doirai azimada jam' qilib, har birining o'rnig'a alohida misol kelturub, to'qquztasini yana bir misra'din ham istixroj qilib, ul "Doirai mujtamia" deyildi va bu doira rasmi zamon zurafosidin ba'zining xayoliga kelib erdi, ammo faqir anga tartib berdim*" [Navoiy 2000, 51]. Navoiyning izdoshi sifatida turkiy tildagi uchinchi aruzga oid risola yaratgan Bobur o'zining "Muxtasar" asarida ham xuddi shu doiraning

“*mushtabihai solima*” deb atalishini qayd etadi. Hamda, aslida Nosiruddin Tusiy “Me’yor ul-ash’or”da bu doirani keltirgani, Navoiy esa bu doirani o‘zi tuzgan deb berishini “*g’oliban “Meyor ul-ash’or”ni mutola’a qilmag’andur*” [Bobir 1971, 30] deb izohlaydi. Tadqiqotchi D.Yusupova aslida Tusiy risolasida bunday doirani tartiblash mumkinligini aytgan, ammo doiraning o‘zini keltirmagan deb qayd etadi [3, 72]

Komil va vofir bahrlaridan iborat keyingi doira Navoiyda “*doirai muxtalita*” deb beriladi. Navoiy bu ikki bahrni “*matbu*” ya’ni ta’bga yoqimli bahrlar bo‘lsada, kam she’r bitilgan deydi. Bu doiralarga quyidagi misralar kiritilgan:

Boqishing// Balo borishing alam turushung jafo qilishing sitam

Tavil, madid va basit bahrlari tashkil qilgan doiraga Navoiy “*Ammo tavil va madid va basit bahri arab shuarosining maxsusidur, alar aruzlarida doirag’a kiyurubdurlar va ajam shuarosi anga mashg’ul bo’lmaydurlar ... va ani “Doirai mushtabiqa” debdurlar*” [Navoiy 2000, 53] deb munosabat bildiradi.

Mango//Bir nafas//Sensiz qaroru tahammul yo’q misrasini misol qilib beradi.

Shuningdek, *bayt qismlari* Navoiy zihofotga uchramagan bayt solim deb atalishini ko‘rsatish bilan cheklanadi. Bu borada nisbatan kengroq izohni Bobur risolasida ko‘rishimiz mumkin. U baytning “aruz” va “zarb” qismlari o‘zgarishga uchramasa *sahih*, *tasbig’*, *izola* va *tarfil* zihoflariga uchrasa *mug’ayyariy* deyilishini aytib o‘tadi. Yana baytning oxirgi rukni tushirilib, musammandan musaddasga aylanishi “*majzu*”, baytning yarmi tushib qoldirilishi “*mashtur*” deyilishini ko‘rsatib o‘tadi.

Navoiy keyingi faslni she’r taqti’siga bag‘ishlaydi. Bayt keltirgan holda undagi kitobatga doir o‘ziga xosliklarni izohlab, taqti’ning to‘g‘ri shaklini berib ketadi.

So‘ng hazaj bahriga bag‘ishlangan faslda bahrning musamman, musaddas va murabba’ vaznlariga misollar keltiradi. Alohida e’tibor ruboiy vaznlariga qaratilib, hazaj bahrining axrab va axram zihofotlaridagi 24 vaznini sanab, shajara shaklida keltiradi.

Ketma-ketlik bilan rajaz, ramal, munsarih bahrlarining musamman, musaddas va murabba’ vaznlarini, muzori’ bahrining musamman va musaddas, muqtazab, mujtass bahrlarining musamman va murabba’ tarzida bir qator bahrlarning turli vaznlariga baytlar bilaan misollar keltirib, jami 19 ta bahrning 160 vaznini keltirib o‘tadi.

Risolada Navoiy turkiy she’riyatga xos poetik shakllar, jumladan tuyug‘, qo‘shiq, chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy va turkiy kabilarni sanab, misollar keltirib o‘tadi.



Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” bilan turkiy aruzshunoslikka katta hissa qo‘shgan ijodkordir. Asar o‘sha zamonlardayoq muvaffaqiyatga erishib, temuriy shahzodalarga aruz ilmini o‘rgatishda qo‘llanma sifatida ham foydalanilgan. Keyinchalik, aynan “Mezon ul-avzon” Abdurauf Fitratga “Aruz haqida” asarini yozishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16. – 329 б.
2. Бобир Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 412 б.
3. Yusupova D. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos bo‘lgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili. // Oltin bitiglar - Golden scripts, № 3 2019. 60-80 b.



PHRAGMITES COMMUNIS O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI

Nurmuxammad Azimov Shuxratovich

Qo‘qon DPI Kimyo kafedrası o‘qituvchisi (PhD)

Ismoiljon Boymatov Mamatkulovich

Qo‘qon DPI Kimyo kafedrası dotsenti (PhD)

Murzabek Ermakhonov Nisanbekovich

Muxtar Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti kimyo kafedrası mudiri, t.f.n.,dots.

Mubinaxon Qosimova Hayotjon qizi

Qo‘qon DPI I kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Poaceae oilasi, *Phragmites* turkumiga mansub bo‘lgan *Ph. communis* (oddiy qamish) o‘simligining morfolagik tuzilishi, o‘shish hududlari va uning qo‘llanilish sohalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.


Kalit so‘zlar: *Poaceae*, *Ph. communis*, *Ph. australis*, vegetativ organlar, generativ organlar.

Annotation: In the article belongs to *Poaceae* family, *Phragmites* genus *Ph. communis* (common reed) plant's morphological structure, growth areas, and areas of its use.

Keywords: *Poaceae*, *Ph. communis*, *Ph. australis*, vegetativ organs, generativ organs.

Phragmites communis Ba‘zi adabiyotlarda *Phragmites australis* nomi bilan ham yuritiladi. Bu o‘simlik turi bir urug‘pallalilar sinfi G‘allaguldoshlar oilasi - *Poaceae* tarkibiga kiradi. Bu oila esa, o‘z navbatida 700 avlod va 10000 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi. [1]. Bu turkum vakillari butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. O‘rta Osiyo hududida ham o‘shishga yaxshi moslashgan bo‘lib, O‘zbekistonda ko‘llar, daryolar va boshqa suv havzalari bo‘ylarida, Respublikaning deyarli barcha viloyatlari hududlarida uchraydi. Qamish turkumi namsevar bo‘lib, sho‘rlangan yerlarda ham o‘sa oladi. Bu o‘simlikning dashtlar, chalacho‘llar yoki cho‘llarda to‘p bo‘lib o‘shishi u yerda yer osti suvining yer yuzasiga yaqinligidan dalolat beradi.

Qamish o'simligi har qanday joyda o'sa olish qobiliyati tufayli, botanik olimlar o'rtasida kosmopolit maqomini olgan [2]. Ko'p yillik o't (1-rasm).



1-rasm. *Ph. communis* – oddiy qamish o'simligi fotosurati

Phragmites communis – oddiy qamish o'simligi iyul oyidan boshlab oktyabr oyiga qadar gullab meva beradi. Ildizi popuksimon, poyalaridagi bo'g'imlari bo'rtib, kengayish hosil qiladi. Bo'g'in oraliqlari segmentlarining ichi bo'sh, g'ovak bo'lib, silindrsimon shaklga ega. Poyasi interkalyar holatda o'sadi, ya'ni bo'g'im oralig'i bilan o'sish qobiliyatiga ega. Barglari o'z bandiga ega bo'lmaydi, barglar ketma-ket joylashadi. Barg yaproqlari parallel tomirlangan. Barglari plastinka va barg qinidan tarkib topgan. Qinning platinkaga o'tish qismida pardasimon tilchasi hamda ikki quloqchali bo'ladi. [3]. To'pgullari murakkab boshqoq hisoblanadi. Murakkab boshqoqlar oddiy boshqoqchalardan tarkib topgan. Oddiy boshqoqchalar bitta, ikkita yoki bir necha gulga ega bo'ladi. Har bir oddiy boshqoqchani asos qismida boshqoqchani qobiqlari joylashadi. Qobiqlar soni asosan 2 ta, ba'zan esa 1, 3 yoki 4 ta bo'lishi ham mumkin. Gullari 2 ta gul qobig'iga: ustki va ostki gul qobig'iga ega. [4]. Pastki gulqobig'i qalin bo'lib, yashil rangli yirik shaklga ega. Gullari ikki jinsli, ba'zi hollarda bir jinsli ham bo'lishi mumkin. Changchilari soni asosan 3 ta, ba'zan 1-2, 6 tani tashkil etadi. Urug'chisi 1 ta, ikkita meva bargchalarining o'zaro birikib o'sishidan hosil bo'ladi. Urug'chisining tumshuqchasi ikki bo'lakli patsimon. Boshqa boshqosimon o'simliklar singari, asosan shamol yordamida changlanadi. Pishib yetilgan urug'lari ham shamol yordamida tarqaladi, vegetativ yo'l bilan ham ko'payadi. [5].

Qamish o'simligining yosh yashil barglari mayda va yirik shoxli chorva mollariga yaxshi yemish bo'ladi. Qamishdan tayyorlangan silos qoramollarga yem sifatida ozuqaga berilganda sigir sutining miqdori va sifati ortishi kuzatiladi. Qamish



poyalari energiya manbai sifatida, kimyo sanoatida quruq haydash va gazifikasiya maqsadlaridagi xomashyo sifatida hamda qog'oz sanoatida ishlatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov N. S., Kushnazarova S. K., Qosimova M. H. ODDIY QAMISH O'SIMLIGIDAN-EKSTRAKT OLISH USULINI OPTIMALLASHTIRISH //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 1.

2. Yuldasheva, N. K., Azizova, D. S., Azimov, N. S., Rakhmanberdyeva, R. K., Gusakova, S. D., Terent'eva, E. O., & Aripova, S. F. (2021). Lipid and Polysaccharide Compositions of the Plant *Phragmites communis*. *Chemistry of Natural Compounds*, 57, 610-613.

3. Azimov, N. S., Yusufzhonova, D. O., Mezhlumyan, L. G., Ishimov, U. Z., & Aripova, S. F. (2021). Biological Activity of Protein Constituents and Alkaloids from the Plant *Phragmites communis*. *Chemistry of Natural Compounds*, 57(3), 597-598.

4. Azimov, N. S., Mezhlumyan, L. G., Ishimov, U. S., Aripova, S. F., Narbutaeva, D. A., Khushbaktova, Z. A., & Rakhimova, S. K. (2021). Protein Constituents of the Plants *Codonopsis clematidea* and *C. bactriana* and Their Biological Activity. *Chemistry of Natural Compounds*, 57(3), 599-600.

5. АЗИМОВ, Н. Ш., МАТЧАНОВ, А. Д., & АРИПОВА, С. Ф. (2020). Исследование элементного состава растения рода *Codonopsis* методом ИСП-МС. Доклады Академии наук Республики Узбекистан, (4), 41-46.

O‘ZBEKISTON TRANSPORTI SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI

Umarali Gulmatov Xabibulla o‘g‘li

O‘zFA Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston transport sohasidagi Kadrlar faoliyati, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasi yoritilgan. Bundan tashqari, kadrlar tayyorlash faoliyatida O‘zbekistondagi transport muassasalarining xorijiy muassasalar bilan o‘zaro hamkorligi haqida ma’lumolar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Transport, kadrlar masalasi, avtomobil transporti, temir yo‘l transporti, aviatsiya transporti, xalqaro hamkorlik.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelayotgan transport sohasini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Iqtisodiy jadallashuv davrida uzoqni yaqin qilish, vaqtni tejash hamda ortiqcha sarf-harajatlarni oldini olish maqsadida transport tizimini yanada takomillashtirish uchun jahon hamjamiyati qolaversa, O‘zbekistonda ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, nafaqat bir manzildan boshqa manzilga borish uchun temir yo‘llarni, avtomobil va havo yo‘llarini sifatini yaxshilash, balki mazkur sohalarning boshqarish tizimini, umumiy rivojlantirish masalasini takomillashtirish maqsadida sohaga doir infratuzilma va zarur shart-sharoitlarni yaratish, transport xizmatidan tortib, xavfsizlik masalalarigacha alohida e‘tibor qaratgan holda islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, bugungi kunda mazkur sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, mavjud kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari ham alohida ahamiyat bilan yondashuvni talab qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro namunalardan foydalangan holda sohani tubdan takomillashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘lda asosan, o‘quv-tayyorlov tizimini yanada rivojlantirish, o‘quv jarayonlarida zamonaviy resurslardan, eng yangi tipdagi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda sohaga oid ta’lim jarayonlarida moddiy texnik

bazani yanada kengaytirish orqali ilmiy salohiyatni yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"²⁴gi qarori mazkur soha rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti hamda Toshkent davlat texnika universitetining aviakosmik texnologiyalari fakulteti negizida Toshkent davlat transport universiteti tashkil etildi. Ushbu muassasa tashkil etilishi ortidan qator vazifalar belgilandi:

- transport sohasidagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, raqobatbardosh oliy ma'lumotli kadrlar, ilmiy pedagogik mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini osirish;

- soha doirasiga oid bo'lgan turli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish;

- xorijiy mamlakatlarning transport sohasidagi muassasalari bilan qo'shma ta'lim dastrurlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish hamda ular bilan o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport fani va ta'limi borasida nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribalarini tahlil qilish va boshqalar.²⁵

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, temir yo'l sohasida Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarning Oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish juda muhim hisoblanadi. Ayni paytda ular ham biz bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor. Hamkorlik asosan, o'zaro qo'shma ta'lim dasturidan iborat. Bu borada Transport universiteti tashabbusi bilan Germaniyaning "Deutsche Bahn" kompaniyasi o'rtasida o'zaro hamkorlik qilish maqsadida muloqot olib borildi. Ayni paytda bu hamkorlik transport sohasidagi vakillarga ta'lim, ilm-fan, talabalarga esa keyinchalik Yevropada faoliyat olib borib ulkan tajribalar orttirish imkoniyatini ham beradi. Bundan tashqari, Ruminiyada "Deutsche Bahn" kompaniyasining ilmiy tekshirish markazi ham faoliyat yuritadi. Shu boisdan ham ushbu kompaniya bilan o'zaro muzokaralarda mamlakatimizda ham shunday markaz tashkil etilishi borasidagi takliflar o'rtaga tashlandi.²⁶

²⁴ "Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR Prezidentining 04.05.2020 yildagi PQ-4703-sonli qarori.

²⁵ Abdurahmonov, O. Bir emas, ikki emas, uch qadam oldinda yurishimiz kerak: [O'zbekistonda transport sohasi] // Xalq so'zi. – 2021. – 14 yanvar.

²⁶ Abdurahmonov, O. Bir emas, ikki emas, uch qadam oldinda yurishimiz kerak: [O'zbekistonda transport sohasi] // Xalq so'zi. – 2021. – 14 yanvar.



Navbatdagi muhim masalalardan biri bu – aviatsiya sohasidagi o‘zaro hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yishdir. Tan olish kerakki, mazkur sohadagi faoliyat ko‘ngildagidek emas. Shuning uchun ham Transport universiteti va Fransiyaning Tuluzadagi fuqarolik aviatsiyasi milliy maktabi (ENAK) o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatildi.²⁷ Bu o‘z navbatidan sohada ta‘lim olayotganlar uchun ulkan imkoniyat hisoblanib, u yerni bitirib maxsus ATR litsensizaya ega bo‘lgan talabalar kelgusida uchuvchi bo‘lib ishlash huquqiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, Italiyaning La Sapienza universiteti bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatildi.²⁸ Kelishuvga binoan, asosiy e‘tibor aviakosmik masalalarga qaratildi. Ya‘ni sun‘iy yo‘ldosh, dron, raketa hamda boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borishga kelishildi.

Yana shuni ta‘kidlash lozimki, Transport va yo‘l infratuzilmasi sohasida umumiy kadrlar siyosatini takomillashtirish zarur bo‘lib, u bugungi kunda quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- kadrlarni tanlash va kerakli o‘rinlarga joylashtirish hamda ular bilan ishlashning shaffof va ochiq mexanizmining yo‘qligi;
- Transport vazirligi mutaxassislari va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari faoliyati samaradorligi darajasini baholash tizimining mavjud emasligi;
- xodimlarni rag‘batlantirish mexanizmining yetarli darajada samarali emasligi;
- kadrlar zaxirasi bazasi va undan foydalanish mexanizmining mavjud emasligi, xodimlar shtatini yangilash va rotatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmi (kasbiy qayta tayyorlash, malaka oshirish va stajirovka) yetarli darajada samarali emas.

Transport sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan ta‘lim muassasalarida zamonaviy o‘quv jarayoni infratuzilmasi asosan bir necha o‘n yillar avval yaratilgan bo‘lib, zamon talablaridan ortda qolmoqda. Transport ta‘lim tizimi zamonaviy asbob-uskunalar va inventarlar, o‘quv qo‘llanmalari, kompyuter texnologiyalari, yuqori sifatli internet aloqalarini ta‘minlash, ayniqsa, yuqori texnologiyali ta‘lim dasturlarini amalga oshirishda ma‘lum darajada tanqislikka duch kelmoqda. E‘lon qilingan kurslar va fanlarning barcha turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishga qodir professor-o‘qituvchilarning yetishmasligi mavjud.

²⁷ <https://www.mintrans.uz/news/toshkent-davlat-transport-universiteti-frantsiya-ta-lim-muassasalari-bilan-hamkorlik-qilmoqda>

²⁸ Abdurahmonov, O. Bir emas, ikki emas, uch qadam oldinda yurishimiz kerak: [O‘zbekistonda transport sohasi] // Xalq so‘zi. – 2021. – 14 yanvar.

Natijada ish haqining pastligi, tartibsiz va og‘ir mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlarning yetarli emasligi, shahar yo‘lovchi transportida bepul sayohat qilish huquqi, imtiyozli pensiya ta‘minoti kabi imtiyozlarning yo‘qligi transportda kadrlar almashinuvining yuqori bo‘lishiga va malakali professional kadrlar yetishmasligiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida qator huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Avtomobil transporti sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarni malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2006-yil 5-dekabrda 1626-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Yo‘lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanayotgan yuridik shaxslarning xodimlariga va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo‘yiladigan malaka talablari to‘g‘risidagi”gi Nizomiga asosan quyidagi avtotransport xizmatlari bilan shug‘ullanadigan xodimlarni malakasi oshirilishi belgilab qo‘yildi:

- avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar rahbarlarini malakasini oshirish. Bu holatda bunday rahbar lavozim egalariga oliy kasbiy ma‘lumoti to‘g‘risida diploma bo‘lgani holda, sohadagi ish staji 5 yildan kam bo‘lmashligi lozim. Agarda o‘rta maxsus diplomi mavjud bo‘lsa, unda ish staji 3 yildan kam bo‘lmagan holda malaka oshirish ishlari amalga oshiriladi.

Avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar rahbarlarini malakasini oshirish. Bu borada Malakaviy talablarga muvofiq avtomobil yoki texnik yo‘nalishda oliy kasbiy ma‘lumoti to‘g‘risida diplom, ish staji talab etilmaydi.

Xalqaro tashish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar rahbarlarining malakasini oshirish. Bunda, qo‘yiladigan talab O‘zbekiston Respublikasining xalqaro konvensiyalar, shartnomalari va bitimlari me‘yorlarini, “Xalqaro avtomobillarda tashishlarni amalga oshiradigan transport vositalari ekipajlarning ishga talluqli bo‘lgan Evropa bitimi (TVEB)”ga asosan xalqaro tashuv bilan shug‘ullanadigan haydovchilar malakaviy talablarga muvofiq BC toifali haydovchilik guvohnomasi bo‘lishidan iborat.

Tashish bilan shug‘ullanuvchi haydovchilarni malakasini oshirish malakaviy talablariga muvofiq korxonada kamida 1 yil ish stajiga ega hamda B, C, D toifali haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lgan haydovchi kamida ikki yilda bir marta o‘z malakasini oshiradi.²⁹

²⁹ Yo‘lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanayotgan yuridik shaxslarning xodimlariga va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo‘yiladigan malaka talablari to‘g‘risidagi” O‘zR Adliya Vazirligining 2006-yil 5-dekabrda 1626-son Nizomi.



Kadrlar tayyorlash masalasi Temir yo‘l transporti sohasida ham ijobiy tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, ushbu sohada Temir yo‘l transporti kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi tashkil etilgan.³⁰ Ayni shu markaz 2021-yil 19-aprel sanasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi X.N. Xasilov tomonidan qabul qilingan № 413-N - son buyrug‘i asosida Kadrlar malakasini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash Yo‘l markazi asosida Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi sifatida tashkil etildi. Keyinchalik ushbu markaz Toshkent temir yo‘l texnikumi tarkibiga kiritildi.³¹

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazining asosiy faoliyati temir yo‘l transporti va shu sohada faoliyat yuritayotgan bir qator korxon va tashkilotlarning ishchi-kadrlari, muhandislari hamda yuqori va o‘rta darajadagi rahbarlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Markaz faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Kadrlar tayyorlash dasturi bilan huquqiy asoslangan va shu asosida o‘z faoliyati amalga oshiradi.

Markazdagi o‘quv auditoriyalari soni 14 ta, multimedia xonalari esa 13 tani tashkil qiladi. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida 20 tinglovchi foydalana oladigan kopmuter xonasi ham mavjud.

Temir yo‘l hodimlari uchun tashkil etilgan 15 boshqarma, 88 yo‘nalish, 125 ta lavozim darajalari bo‘yicha kurslarda o‘quv tizimi faoliyat olib boradi. Mazkur kurslarda o‘qish malaka oshirish kurslari bo‘yicha 6-24 kunni tashkil qilsa, qayta tayyorlash kurslarida 24-96 kun davom etadi.³²

Ushbu markaz tinglovchilari nafaqat malakali ustozlardan tahsil olishadi, balki o‘quv dasturlarini yanada muakmmalroq o‘zlashtirish maqsadida Transport universiteti temir yo‘l texnikumi laboratoriyalari va o‘quv poligonlaridan keng foydalanishadi. Bu yaratilgan imkoniyatlar o‘z navbatidan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ulkan tirgak bo‘ladi.

Aviatransport sohasi rivojida malakali xodimlar va zamonaviy kadrlar boshqaruv tizimiga ham katta e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 4-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida havo

³⁰ “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK boshqaruvi raisi A. J. Ramatovning 2004 yil 1 noyabrdagi № 349-N son buyrug‘i asosida Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti qoshida Kadrlar malakasini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash Yo‘l markazi (KMOT va QTYM) tashkil etildi.

³¹ O‘zbekiston temir yo‘llari AJ joriy arxividan.

³² O‘zbekiston temir yo‘llari AJ ma‘lumotlari.

https://www.railway.uz/uz/kadrovaya_politika/povyshenie_kvalifikatsii/?VOICE=N



transportini boshqarish tizimi to'g'risida"gi Qarori bilan "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan.³³ O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining Ustavi va uning tashkiliy tuzilishi ilovasiga muvofiq, "O'zbekiston havo yo'llari" MAK apparatining eng ko'p xodimlari soni 120 kishidan (xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini hisobga olmasdan) iborat qilib belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan MAK Bosh direktorining birinchi o'rinbosari, MAK Bosh direktori o'rinbosarlari tayinlash; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishiladigan lavozimlar nomenklaturasiga MAKning xorijdagi vakolatxonalarini vakillarini tayinlash; MAK Kengashida ko'rib chiqadigan lavozimlar nomenklaturasiga MAK Bosh direktorining o'rinbosarlari va Boshqarma boshliqlari, Uchuvchilar majmuasi direktori, Aviatsiya-texnika majmuasi direktori, Havo aloqalari Bosh agentligining direktori, 243-sonli zavodi direktori, "Toshkent" aeroporti direktori, "O'zaeronavigatsiya" majmuasi direktori, O'quv-mashq markazi direktorini tayinlash; Viloyat yoki shahar hokimiyatlari bilan kelishiladigan lavozimlar nomenklaturasiga Toshkent, Samarqand, Nukus, Urganch, Buxoro, Termiz, Qarshi, Qo'qon, Namangan, Navoiy, Andijon, Farg'ona aeroportlar direktorlarini tayinlash yo'riqnomasi kiritilgan.³⁴

Albatta, shu o'rinda kadrlar masalasini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. Agar har bir parvozni tayyorlashga 25 nafarga yaqin mutaxassislarining qatnashishini hisobga olinsa, parvoz xavfsizligi, eng avvalo, xodimlarning a'lo darajadagi tayyorgarligiga ham bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham kompaniyada kadrlarni o'qitish va ularning mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilgan. Mutaxassislar "Boeing" aerobuslari va boshqa zamonaviy samolyotlarni o'rganish bo'yicha maxsus amaliyot markazlarida qayta tayyorgarlikdan o'tmoqdalar. Bu markaz xalqaro sertifikat va o'zga mamlakatlar uchun oliy toifali mutaxassislar tayyorlash huquqini olgan. O'tgan yillar mobaynida yana bir markaz – G'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish markazi ham ish boshladi. Bu esa xalqaro bozorga chiqish uchun keng imkoniyat yaratdi.

Rahbar lavozimlarga milliy kadrlarni tayinlashga yetarli e'tibor berilmasligi oqibatida MAK boshqaruv-rahbariyat tarkibi orasida mahalliy millatli shaxslar atigi 25,2 foizni tashkil etadi. Shu jumladan, korxonalar rahbarlari orasida – 66,7 foiz, korxonalar rahbarlari o'rinbosarlari orasida – 33,8 foiz, bo'limlar va xizmat boshliqlar

³³ O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 1-yig'ma jild, 140-varaq.

³⁴ O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 189-yig'ma jild, 51-52-varaqlar.



orasida – 32,4 foizni o’rta ma’lumotli kadrlar tashkil etgan.³⁵ Shuningdek, kadrlar bilan ishlashning asosiy jihatlaridan biri – rahbar lavozimlarga ko’tarilish uchun zaxirasini tanlash va tayyorlash, uning tarkibiy sifatini kengaytirish va yaxshilashga yetarli e’tibor berilmagan. Rahbariyat tarkibi va xorijga ishga yuboriladigan kadrlar zaxirasi ro’yxatiga 45 yoshdan katta mutaxassislar kiritilgan. Kadrlar zaxirasini yakka tartibda tayyorlash ishlari yo’lga qo’yilmagan, rezervda qayd etilgan milliy kadrlar foizi kam tashkil etgan.³⁶ MAK xodimlari orasida 34 nafar erkak, 5 nafar ayol mehnat qilgan.³⁷

Bu holat mustaqillikning ilk yillarida V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida ham kuzatilgan. Birlashma ishchi-xizmatchilarining 90 foizini rusiyabon xalqlar vakillaridan, o’n foizi boshqa millat vakillaridan iborat bo’lgan. Mahalliy kadrlarga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.³⁸

Shu boisdan, MAK tomonidan ishchi-xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Kiev fuqaro aviatsiyasi muhandislari institutining xorijlik vakillarni tayyorlash bo’yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetida tahsil olayotgan aviatsiya mutaxassislari uchun imtiyozlar berilgan.

Jumladan, moddiy qo’llab-quvvatlashni takomillashtirish va aviatsiya ishchilarining ish haqidagi o’zgarishlarni hisobga olgan holda tinglovchilarini o’qish davri uchun havo korxonasida egallab turgan lavozimi saqlab qolingan;

Fuqaro aviatsiyasidagi xizmati va ish tajribasini hisobga olgan holda yillik bir martalik haq olish huquqi saqlab qolingan, tinglovchilar egallagan lavozimlari bo’yicha o’qishga qabul qilingan vaqt uchun belgilangan oylik ish haqi to’lab borilgan.³⁹ Bu imtiyozlardan aviatorlar chuqur bilim va katta tajriba orttirishlari uchun foydalangan.

1992-yil 14-maydagi “O’zbekiston havo yo’llari” Milliy aviakompaniyasi va Aqto’be (Qozog’iston) oliy uchuvchilar aviatsiya bilim yurti o’rtasidagi tuzilgan shartnomaga muvofiq, o’zbekistonlik yoshlardan mazkur bilim yurtida aviatsiya sohasi bo’yicha mutaxassislar yetishib chiqdi.⁴⁰

MAK o’z hisobidan kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratgan. Jumladan, uchuvchilar – Ul’yanovsk Oliy aviatsiya maktabi bilan (Rossiya); navigator va ATC

³⁵ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 194-yig’ma jild, 186-varaq.

³⁶ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 188-yig’ma jild, 52-varaq.

³⁷ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 218-yig’ma jild, 370-varaq.

³⁸ Muhtarama Ulug’. Toshkent samolyotlari dunyo bozorida // Xalq so’zi. 1992 yil. 27 oktyabr.

³⁹ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 3-yig’ma jild, 200-varaq.

⁴⁰ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 2-yig’ma jild, 223-varaq.



muhandislari – Ukraina Davlat parvoz Akademiyasi bilan (Kirovograd), maxsus uskunar muhandislari – Kiev xalqaro universiteti bilan (Ukraina) hamkorlikda tayyorlangan. MAKning qolgan mutaxassislari Toshkent Davlat aviatsiya instituti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkent aviatsiya kolleji, Toshkent radiotexnika kollejida shartnoma – byudjet asosida tayyorlangan.⁴¹

Aviatsiya sohasida an’anaviy kadrlar tayyorlash Toshkent davlat texnika universitetida amalga oshirib kelinadi. Sohaning dolzarbligini hisobga olib O’zbekistonda 1995-yil Toshkent davlat aviatsiya instituti tashkil qilindi.

Bu institutda aviatsiya sohasining O’zbekiston oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoridagi oltidan ortiq bakalavriatura va magistratura bo’yicha malakali kadrlar tayorlanib kelindi.

2008-yil Toshkent davlat aviatsiya instituti ma’lum sabablarga ko’ra o’z faoliyatini tugatdi va kadrlar tayyorlash yana Toshkent davlat texnika universitetida davom ettirildi.

Texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi aviatsiya sohasini ham chetlab o’tmadi. Shu sababdan kadrlar tayyorlash yo’nalishlari ham o’zgardi.

Respublikada transport sohasini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbuslari bilan transport Vazirligi tashkil etilib, temir yo’l transporti, avtomobil yo’l transporti va havo yo’llari transporti korxonalarini malakali kadrlar bilan ta’minlash uchun 2020-yil Toshkent davlat transport universiteti ochildi. Shunga asosan aviatsiya sohasiga tegishli barcha ta’lim yo’nalishlari bo’yicha malakali kadrlar tayyorlash transport universitetida amalga oshirilib kelinmoqda.⁴²

“O’zbekiston havo yo’llari” milliy aviakompaniyasida uchish va qo’nishga tayyorlash, uni tashkil qilish uchun II – 114 samolyotida o’quv tayyorgarlik ishlari Toshkent, Samarqand va Namangan aeroportlarida olib borilgan.⁴³

Hozirda uchuvchi kasbini egallash uchun 25 yoshdan katta bo’lmagan yoshlar ta’lim olishga qabul qilinadi. 18 yoshida birinchi marta havo kemasini kursant sifatida boshqarish, yo’lovchilarni yoki yuklarni 21 yoshdan tashish uchun parvoz qilish mumkin. Aviakompaniyaning eng yosh uchuvchisi – 22 yosh hisoblanadi, aviakompaniyadagi samolyot qo’mondoni 60 yoshgacha, ikkinchi uchuvchi esa 65 yoshgacha uchishi mumkin. Boshqa aviakompaniyalarda yoshning yuqori chegarasi – 65 va 70 yosh etib belgilangan.⁴⁴ Bundan kelib chiqadiki, avikompaniya kadrlari

⁴¹ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 218-yig’ma jild, 372-373-varaqlar.

⁴² <https://ishonch.uz/archives/8066>

⁴³ O’zMA, M-90-jamg’arma. 1-ro’yxat. 189-yig’ma jild, 189-varaq.

⁴⁴ Uzbekistan airways. 2016 yil. 1-son. – B.30



orasida yosh chegarasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. yat kasb etadi. Albatta, yosh bo'yicha orttirilgan tajribalar parvoz ishlarida uchrab turadigan favqulodda vaziyatlarda katta foyda beradi.

Bir so'z bilan aytganda, Mustaqilligimizning dastlabki yillarida mavjud bo'lgan kadrlar tayyorlash sohasidagi bir qator muammolarga qaramasdan, bugungi kungacha bo'lgan davrda o'tkazilgan va davom etayotgan islohotlar natijasida mazkur yo'nalishda mavjud og'riqli masalalarga yechim topildi. Muammolarni hal qilishning zamonaviy usullari qo'llanildi. Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yanada takomillashtirish maqsadida bu sohaga kerakli bo'ladigan ilg'or texnologiyalar, zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanildi. Natijada, jahon hamjamiyatidagi transport sohasida kuchli raqobatga bardosh bera oladigan yetuk, malakali kadrlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyoting asosiy sohalaridan bo'lmish transport tizimini har tomonlama yuksalishiga, nafaqat chegaradosh mamlakatlar bilan, qolaversa, uzoq masofada bo'lgan, bevosita dengizga chiqa oladigan, iqtisodiyoti yaxshigina rivojlangan davlatlar bilan ham o'zaro transport aloqalarini o'rnatishda ulkan qadam bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxslarning xodimlariga va yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risidagi" O'zR Adliya Vazirligining 2006-yil 5-dekabrda 1626-son Nizomi.
2. Muhtarama Ulug'. Toshkent samolyotlari dunyo bozorida // Xalq so'zi. 1992 yil. 27 oktyabr.
3. O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 3-yig'ma jild, 200-varaq.
4. O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 2-yig'ma jild, 223-varaq.
5. O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 218-yig'ma jild, 372-373-varaqlar.
6. <https://ishonch.uz/archives/8066>
7. O'zMA, M-90-jamg'arma. 1-ro'yxat. 189-yig'ma jild, 189-varaq.
8. Uzbekistan airways. 2016 yil. 1-son. – B.30



SH.USNATDINOVTIŃ «IBRAYIM YUSUPOV. SHAYIRDIŃ JASLIĞI» POVESTINDE PROTOTIP

Arman Nurjanov

Berdaq atındağı QMU magistrantı

Annotaciya: Maqalada «Ibrayim Yusupov. ShayirdiŃ jaslığı» povestine ilimiy-teoriyalıq analiz jasalıp, kórkemlik ózgesheligi tuwralı pikirler berilgen. Maqaladağı pikirler hám analizler ilimiy-teoriyalıq miynetlerge tiykarlanıp jazıldı.

Gilit sózler: hújjetli povest, prototip, konflikt.

Аннотация: В статье были указаны мнения об искусной особенностях и научно-теоретический анализ произведения «Ибрайым Юсупов. Шайырдың жаслығы» ("Ибраим Юсупов. Молодость поэта"). Мнения и анализы в статье были написаны на основании научно-теоретическим трудам.

Ключевые слова: документальная повесть, прототип, конфликт.

Annotation: In the article A scientific-theoretical analysis related to the story: «Ibrayim Yusupov. ShayirdiŃ jaslığı» (" I.Yusupov. The poet's childhood ") and the opinions about its distinction . The ideas and analyzes in the article are based on scientific-theoretical studies.

Keywords: documentary narrative, prototype, conflict.

Povest kólemi jađınan romannan kishi, gúrriŃnen úlken bolıp, ol óziniŃ janrlıq qalıplesiw hám rawajlanıw jollarına iye. Bul boyınsha ózbek ádebiyattanıwshısı A.Abrorov povesttiŃ janrlıq tábiyatınan, yađnıy onıŃ gúrriŃ menen romanniŃ ortasında turıwshı «ortasha proza» ekenliginen kelip shıǵıp, onı romanğa ótiwdegi bir kópir, basqasha aytqanda, povestti kóbinshe jazıwshını «úlken proza»ǵa tayarlawshı dóretiwshilik laboratoriya sıpatında qaraydı. [1:10]

Sh.UsnatdinovtiŃ «Ibrayim Yusupov. ShayirdiŃ jaslığı» atamasındağı hújjetli povesti biografiyalıq hám hújjetli materiallarǵa bay kórkem dóretpе sanaladı. Povesttegi qaharmanlardıŃ kópshiligi prototiplerden ibarat.

«Prototip-kórkem shıǵarmadağı qaharman obrazın jasawǵa negiz bolǵan turmıstıŃ ózinde dál jasaǵan adam. Ádebiyattağı hár qanday qaharman obrazı olardıŃ minez qulqı, ádep ikramlıq belgileri, is-háreketleri barlıǵı ómirdiŃ ózinde bar nársеге tiykarlanıp dóretiledi. Hesh bir jazıwshı óz qaharmanınıŃ qılwaların bastan aqırına shekem aspannan alıp qıyaldan dóretpейdi. SonıŃ ushın da qaharmanlardıŃ turmıstıŃ



ózinde prototipi bolıwı sózsiz».[2:170] Ózbek ádebiyatshı alımı T.Boboev prototip tiykarında kórkem obraz jaratıwdıń xarakterli tárepi ómirde bar bolǵan jasap ótken tariyxıy shaxs kórkem obrazdın tiykarında turadı. Prototip penen obraz arasında jazıwshınıń ózi turadı. turmıs materialları prototip, jazıwshınıń dóretiwshilik fantaziyası kórkem toqıma hám alǵa súrilgen ideya-estetikalıq idealdın birigiwinen júzege keletuǵnıǵın atap kórsetedi. [3:55]

Joqarıdaǵı teoriyalıq pikirlerdi basshılıqqa alıp sonnı aytıw múmkin, hújjetli materiallarǵa tiykarlangan shıǵarmalarda turmıs materialın hám jazıwshınıń kórkem qıyalı teńdey áhmiyetke iye boladı.

Sh.Usnatdinovtıń «Ibrayım Yusupov. Shayırdın jaslıǵı» povestinde real ómir súrgen adamlardıń ruwxıy dúnyası, dúnyatanımı, minez-qulqı jazıwshı tárepinen keńnen uyrenilip, olardıń kórkem obrazı jaratıladı.

Ádebiyatshı alımlardıń aytıp ótkenindey: «Prototip tiykarında obraz jaratıwda jazıwshı málim bir insan ómiri hám harakterinen sol halında nusqa kóshirip qoymay, sheberligi dárejesinde, shıǵarmanıń ideyalıq-tematikalıq baǵdarınan kelip shıǵıp onı kórkem toqıma menen bayıtadı.[6:188]

Jazıwshı Sh.Usnatdinov shayır hám onıń menen zamanlas bolǵan adamlardıń ómiri, ishki dúnyasın psixologiyasın, júrek sezimlerinden, estetikalıq oy eleginen ótkerip kórkem obraz halında oqıwshıǵa usınadı. Povesttiń baslı orayında milliy ádebiyatımızda jarqın iz qaldırǵan talant iyesi Ibrayım Yusupovtıń kórkem ádebiy obrazı turadı. Jazıwshı tárepinen onıń jandúnyasınıń gózzallıǵı, dúnyatanımınıń keńligi, insanıyılıq pazıyletleri, ómirge dóretiwshilik dúnyasına bolǵan umtılısları sheberlik penen súwretlenedi. Demek kórkem shıǵarmada Ibrayım Yusupovtıń hám shayır sıpatındaǵı, hám ápiwayı insan sıpatındaǵı kelbeti ashıp beriledi.

Bárshemiz I.Yusupovtı insannıń júrek tórindegi jan sezimlerin pák qálbi menen tereń ańlap, biybaha kórkem shıǵarmalar dóretetuǵın shayır sıpatında jaqsı bilemiz. Biraq, biz onıń jeke insan sıpatındaǵı ózinshelik minez-qulqın bile bermeymiz. Hújjetli povestte shayırdın mine usı kópshilikke belgisiz bolǵan táreplerin súwretlewge dıqqat awdarılǵan. Shayırdın kórkem obrazı isenimli jaratılıwı ushın, onıń jasaǵan dáwiri jámiyetlik mádeniy ortalıǵı jazıwshı tárepinen úyrenilgen. Usınıń nátiyjesinde shıǵarmada shayır obrazı qáharman obrazı dárejesine kóterilgen. Jazıwshı povestte shayırdın ishki ruwxıy dúnyasın ashıp beriwde tartımlı poetikalıq bayanlawlardı qollanadı. Máselen: «Ibrayım menen jumıs islew Máden ushın azap. Silbırap júre beredi. Ot orıp otırsa geyde shópti qısımlap, oraqtı tartıwı menen otıra beretuǵın waqıtları kóp boladı. Qasınan bir kesirtke ótse, yamasa gúbelek kelip qonsa bolǵanı, ańırayıp tura beredi. Ásirese, jıńishke quyırıǵın gá joqarı, gá tómen qıltılatıp



turatuğın gúzdin sarı shımshıgı kórinse bolıp bolğanı, sonı ushırıp jıbermew ushın qılt etpey qarap otıradı.»

Mine, bul haqıyqıy shayır tábiyatı. Shayırdın qorshağan ortalıqtı ózgeshe qabıllawı oğan degen súyispenshiligi tábiyiy halında berilgen. Ol sırtqı ortalıqtan basqalar kóre almağan gózzallıqtı kóre alğanlıgı hám júrek eleginen ótkerilgenligi ushın da shayır sanaladı. Eger qorshağan ortalıқтаgı qubılıslar onın júregine qozgaw salmasa, qanday da bir sezimdi aytpasa, ondağı ájayıp dúnyanı ańlay almasa, haqıyqıy dóretiwshi bolmaydı, jazğanları bolsa oqıwshılar júregine jetip barmaydı. Jazıwshı bul haqıyqatlıqtı tereń túsiniy, shayırdın ishki dúnyasını qorshağan sırtqı ortalıqqa bolğan qatnası arqalı ashıp beredi. Sanalı oqıwshı keltirilgen qatarlardagı shayırdın ağası Mádenniinde ózine tán xarakterin uğıp aladı.

